

ISSN 2010-9601

MOLIYA

ILMIY JURNAL



Научный журнал «Финансы»

«Finance» scientific journal



1
2026

TOSHKENT

MOLIYA

Muassis: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tahririyat ijodiy jamoasi:

Bosh muharrir: *A.Karimov*

Bosh muharrir o‘rinbosari: *G‘.Tashmanov*

Texnik muharrir: *K.Rasulova*

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2008 yil 24 martda 0519-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

2008 yildan nashr qilinadi, bir yilda 6 marta chiqadi.

O‘zbekiston hududida tarqatiladi.

«Moliya» ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komis- siyasi Rayosatining 2013 yil 13 dekabrda 201/3-sonli qaroriga binoan iqtisod fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy maqolalari e‘lon qilinishi zarur bo‘lgan ilmiy jur- nallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Web-sayt: <http://financial.simmaautostar.uz>

e-mail: moliya@fi.uz *Obuna indeksi – 1204*

Tahririyat manzili: 100084, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 60^a-uy Tel.: (+998 71) 234-66-89

TAHRIR KENGASHI RAISI:

T.Z.Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI:

A.A.Karimov – Bosh muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

G‘.D.Tashmanov — Bosh muharrir o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

G.Q.Abduraxmanova — Ilmiy ishlar va innovasiyalar bo‘yicha prorektor iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

N.X.Xaydarov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S.Malikov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

E.G‘.Nabiyev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

G.N.Axunova — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

K.B.O‘razov - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.E.Toshmurodova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Abdullayeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.Z.Avloqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.I.Karimqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.A.Allayarov- iqtisodiyot fanlari doktori, professor

F.T.Muxamedov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.R.Rustamov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

X.M.Shennayev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.A.Ikramov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.K.Ochilov — iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

M.M.Tulaxodjayeva — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Z.A.Sagdullayeva — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

X.Qobulov — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

I.G‘.Kenjayev – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

D.A.Mirzayev — iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Asif Mahbub Karim– Malayziya, Bayneriy menejment va tadbirkorlik universiteti professori

Adriana Grigoressu – Ruminiya, Siyosiy tadqiqotlar va davlat boshqaruvi milliy universiteti
professori

Y.B.Maley – Belorussiya, Polosk davlat univesiteti dotsenti

Elcin Aykas Alp – Turkiya, Istanbul Tijorat Universiteti professori

Tae-Hyoung Mun — Janubiy Korea, Mokvuon universiteti professori

N.K.Muraviskaya — Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti
professori

K.Taygashinova – Qozog‘iston, Almata iqtisodiy-gumanitar universiteti professori

MUNDARIJA

Betlar

A.A.Karimov, N.K.Rizayev, L.F.Rasulov, Korxonalarda xususiy kapital hisobini takomillashtirish	4
A.A.Ostonokulov, O‘zbekistonda islomiy moliya va bank xizmatlari hisobi hamda auditi asoslarini shakllantirish	12
M.Yu.Raximov, Moliyaviy hisobot tahlili va uning muammoli jihatlari	25
B.A.Begalov, R.A.Dadabaeva, Tashkilotlardagi strategiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlari	34
D.X.Pulatov, B.I.Nurmuxamedova, Global iqtisodiyotda markaziy banklar raqamli valyutasi (cbdc – central bank digital currency): vujudga kelishi va rivojlanish tendensiyalari	43
A.T.Mamajonov, O‘zbekiston sharoitida moliyaviy hisobotning zaruriyati va uslubiy asoslari	52
S.J.Yangibayev, Improving the state investment policy in the agrarian sector of the economy	57
К.Чекулаева, Корпоративная социальная ответственность бизнеса как механизм устойчивого развития национальной экономики республики узбекистан	62
D.G.Xudaynazarova, Farmasevtika korxonalarida raqamli markirovkalash jarayonlariga oid xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish	77
F.Q.Boboxo‘jayeva, Bank marketingi: mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuv va raqamli transformatsiya	83
U.R.Uzakova, Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda boshqaruv mexanizmlarini raqamlashtirish asosida samaradorlikni oshirish	90
Sh.X.Ruzimuradov, Naqd pulsiz hisob-kitob tizimlari xavfsizligini ta‘minlash	98
A.H.Mahsutaliyev, Oliy ta‘lim tizimida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish	106
I.I.Erkinxojiyev, Agrobiznes loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy usullari	112
M.B.Moyliyev, Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda investitsiyalarni joylashtirish va aktivlarni boshqarish mexanizmining o‘rni	117
L.O.Xayitboyeva, Strategik boshqaruv hisobining zamonaviy usullari: korxonalar amaliyotida qo‘llanilishi va takomillashtirish tavsiyalari	122
L.O.Zunnunov, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari shakllanish tarixi va nazariy-huquqiy mexanizmlari	127
Б.К.Хамдамов, Ш.У.Аминов, Проблемы бухгалтерского учета на современном этапе развития экономики узбекистана	132
Sh.O‘.Aminov, Buxgalteriya hisobida raqamli transformatsiya: sun‘iy intellekt va mashinali o‘rganish texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi	143
M.T.Abdujaborova, Moliyaviy hisobotlar elementlarini bashoratlash	148
T.M.Berdiyev, O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish holatining ilmiy tahlili	157
G.A.Nosirova, The role of effective delegation in project management	165
J.A.Abdurasulov, Ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etishda aktivlar va majburiyatlarni baholash hamda hisobda aks ettirish masalalari	169

- A.T.Maxkambayev**, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqishning ahamiyati va zarurligi **177**
- G.D.Tashmanov, I.U.Tursunaliev**, Accounting recognition and valuation of long-term assets under international financial reporting standards (IFRS) **182**

Karimov Akrom Abbasovich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor, “Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası professori. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti.
karimovaa53@mail.ru

Rizayev Nurbek Kadirovich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor, “Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrası professori. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
rizayevnk220874@gmail.com

Rasulov Lazizbek Farxod o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi

KORXONALARDA XUSUSIY KAPITAL HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Каримов Акром Аббасович - доктор экономических наук, профессор, профессор кафедры «Финансовый учет и отчетность» Ташкентский государственный экономический университет. Karimovaa53@mail.ru

Ризаев Нурбек Кадилович - доктор экономических наук, профессор, профессор кафедры «Банковское дело и бухгалтерский учет». Ташкентский Международный Университет Кимё. rizayevnk220874@gmail.com

Rasulov Lazizbek Farxod o‘g‘li – Соискатель.
Ташкентский Международный Университет Кимё.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИИ

Karimov Akrom Abbasovich - Doctor of Economics, Professor, Professor of the Financial accounting and reporting Tashkent State University of Economics.
Karimovaa53@mail.ru

Rizaev Nurbek Kadirovich - Doctor of Economics, Professor, Professor of the Department of Banking and Accounting. Kimyo International University in Tashkent
rizayevnk220874@gmail.com

Rasulov Lazizbek Farkhod o‘g‘li- Researcher. Kimyo International University in Tashkent.

IMPROVING ACCOUNTING OF EQUITY

Annotatsiya: Xususiy kapital hisobini takshkil etish va uni yuritishda ularning xarakterini hisobga oluvchi schyotlarni takomillashtirish bo‘yicha fikr mulohazalar yuritilgan. Xususiy kapital hisobi bo‘yicha schyotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtiri borish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapital va taqsimlanmagan foyda (zarar) bilan birga xalqaro talablarga muvofiq boshqa umumlashgan

daromadlar kabi schyotlarni kritish va amaliyotda qo'llash mumkin bo'ladi. Natijada amaldagi 21-son BHMS qoidalarini MHXS talablariga uyg'unlashtirib borishni ta'minlaydi.

Tayanch so'zlar: xususiy kapital, sof foyda, zarar, qshilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, rezerv kapital.

Аннотация: В статье рассматривается разработка отчетности по организации и управлению учетом собственного капитала, а также совершенствование отчетности, отражающей его движение. Актуальна необходимость гармонизации отчетности по учету собственного капитала с международными стандартами финансовой отчетности. С этой точки зрения станет возможным пересмотр и практическое применение таких показателей, как уставный капитал, собственный капитал, резервный капитал и нераспределенная прибыль (убытки) в соответствии с международными требованиями, а также прочий совокупный доход. В результате действующие положения МСФО 21 будут приведены в соответствие с требованиями МСФО.

Ключевые слова: собственный капитал, чистая прибыль, убыток, собственный капитал, нераспределенная прибыль, резервный капитал.

Abstract: This article examines the development of reporting on the organization and management of equity accounting, as well as the improvement of reporting reflecting its movement. The need to harmonize equity accounting reporting with international financial reporting standards is pressing. This will enable the revision and practical application of indicators such as authorized capital, equity, reserve capital, and retained earnings (losses), as well as other comprehensive income, in accordance with international requirements. As a result, the current provisions of IFRS 21 will be aligned with IFRS requirements.

Keywords: equity, net profit, loss, equity, retained earnings, reserve capital.

KIRISH.

Jahon amaliyotida xususiy kapitalni bozor kapitallashuvi deb nomlanadigan kapital ko'rsatkichi dunyodagi eng yirik kompaniyalarni aniqlash va baholash uchun foydalaniladi. Bugungi kunda ushbu ko'rsatkichga ega bo'lgan eng yirik brend kompaniyalarning bozor yoki xususiy kapitali trln.dollar qiymatida baholanadi. Masalan, TOP-10 bo'yicha dunyodagi eng yirik kompaniyalar, jumladan "Microsoft Corporation" (AQSh) kompaniyasining bozor kapitallashuvi (xususiy kapitali) hajmi - 3,425 trln.doll, "Apple Inc." (AQSh) - 3,397, "Nvidia Corporation" (AQSh) - 3,155, "Alphabet Inc." (AQSh) - 2,305, "Amazon.com, Inc." (AQSh) - 2,056, "Saudi Arabian Oil Group" (S.Arabistoni) - 1,809, "Meta Platforms, Inc." (AQSh) - 1,294, "Berkshire Hathaway Inc." (AQSh) - 887,16 "Eli Lilly and Company" (AQSh) - 808,65 hamda "TSMC (Tayvan) - 800,39 mlrd.doll.ga teng bo'lgan [1]. Demak, jahon mamlakatlari kompaniyalariga tegishli bo'lgan bozor kapitali (xususiy kapitali) hajmining bunday yirik ko'rinishga aylanishi, o'z navbatida ular hisobini uslubiy jihatdan takomillashtirib borishni taqozo etadi. O'z navbatida respublikamizda ham buxgalteriya hisobi tizimini, xususan korxonalarda xususiy kapital hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2025 yildan 2030 yilgacha bo'lgan davr "Yangilanish bosqichi"ning 2-chi davri boshlandi. Bunda moliyaviy hisob tizimini yaratilish, MHXSga o'tishni takomillashtirish, BHMSlarni MHXSga o'tkazish hamda moliyaviy hisobotlar sifatini ta'minlash va uning bazasini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olingan. O'tgan qisqa muddatda 4 ta BHMSlar xalqaro standart (MHXS) talablariga moslashtirildi. Bunda 1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" nomli standartni xalqaro 1-son MHXS "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" standartiga muvofiqlashtirish asosida aynan xususiy kapitalni

hisobga olish tartibi ham takomillashtirildi. Republikamizda buxgalteriya hisobi sohasidagi islohotlarning yangi davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 sentyabrdagi PQ-282-sonli "Moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ushbu qaror asosida kelgusida MHXSga o'tuvchi tashkilotlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish (Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar maqomini berish-jami 307 ta tashkilotga), Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunning yangi tahririni ishlab chiqish hamda BHMSlarni MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish kabi tizimli ishlar amalga oshiriladi. Maqolada, xususiy kapital hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Xususiy kapital tushunchasi bo'yicha iqtisodiy adabiyotlar va me'yoriy xujjatlarda ko'plab ta'riflar va o'ziga xos mualliflik yondoshuvlari berilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xususan 1-son BHXSda xususiy kapital bo'yicha alohida ta'rif berilmagan bo'lsada, unda yoritib berilishi lozim bo'lgan komponentlarga to'xtalib o'tiladi: "Xususiy kapitalning komponentlari, masalan, kiritilgan kapitalning har bir turi, boshqa umumlashgan daromad va taqsimlanmagan foydaning har bir turi bo'yicha jamg'arilgan qoldig'ini o'z ichiga oladi." [2].

«Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi»da esa quyidagi qoidalar o'z ifodasini topgan: «Xususiy kapital tashkilotning barcha majburiyatlari chegirilgandan keyin uning aktivlaridagi qoldiq ulushdir» [3].

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida: "xususiy kapitalning tarkibiga quyidagilar kiritiladi: ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zahira kapitali va taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" [4].

Qozog'iston qonunchiligida quyidagi tushuncha berilgan: "Kapitla-bu yakka tartibdagi tadbirkor yoki tashkilotning barcha majburiyatlari chegirib tashlanganidan keyin qolgan aktivlarning ulushi." [5].

Respublikamizda amaldagi buxgalteriya hisobiga oid qonunchilikda esa: «Xususiy kapital ustav kapitali, qo'shilgan, zaxira kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi» deb keltirib o'tilgan [6].

Milliy standart qoidalarida esa quyidagilar bayon etilgan; "Buxgalteriya balansining xususiy kapital (o'z mablag'lari manbalari) bo'limida ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, sotib olingan xususiy aksiyalar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), kapitalning boshqa tarkibiy qismlari bo'yicha ma'lumotlar aks ettirilishi kerak" [7].

Yana bir milliy standart Konseptual asosda: "Xususiy kapital ustav, qo'shilgan, rezerv kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan iborat bo'ladi. Zarur hollarda ustav, qo'shilgan, rezerv kapitali analitik kesimda hisobga olinishi mumkin. Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar va majburiyatlar qiymatini baholashga bog'liqdir" deb ifodalanadi [8].

Bu borada sohaning etuk iqtisodchi olimlari tomonidan ham turli fikr-mulohazalar yuritilgan, jumladan Z.Kurbanov tomonidan: «Xususiy kapital-bu korxonaning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi farqdir» deb ta'rif berilgan [9]. A.Ermatov esa: «Xususiy kapital – ishlab chiqarish resurslarining o'tgan davrlardagi foydalanilishi natijasida jamlangan, kelgusida iqtisodiy naf keltirish imkoniyatiga ega hamda mulkdorlarga tegishli bo'lgan qiymatlar majmuidir» deb ifodalaydi [10]. K.Berdievning fikriga ko'ra: «Xususiy kapital – bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktivlarining barcha majburiyatlar chegirilganidan qolgan qismi, ya'ni korxonada mulkdorlarining aktivlaridagi ulushidir» [11]. E.Ortiqov bir qator manbalarni o'rganish natijasida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Xususiy

kapital yoki uning sinonimi bo'lgan sof aktivlar manbalarda turli nomlar va mazmunda talqin qilinadi. Odatda, «buxgalteriya hisobi va auditga oid manbalarda xususiy kapital, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)da» kapital, iqtisodiy tahlilga oid manbalarda va ijtimoiy tarmoqlarda esa, sof aktivlar, sof aylanma aktivlar, aylanma kapital, ishchi kapital kabi tushunchalar keng qo'llaniladi" [12]. I.Ismanov: «Hozirgi kunda iqtisodchi olimlar o'rtasida munozaraga sabab bo'layotgan masalalardan biri – kapitalni iqtisodiy kategoriya emas, balki buxgalteriya hisobi kategoriyasi sifatida e'tirof etish lozim» deb e'tirof etadi [13]. I.Sherimbetov quyidagi fikrlarni bilirib o'tadi: "Buxgalteriya hisobi maqsadlarida hususiy kapital – muayyan davrga korxonada aktivlaridan majburiyatlarini chegirilgandan qolgan qismi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki aynan mulkdorlar, majburiyatlar chegirilgandan so'ng qolgan aktivlarga egalik qiladi. Bunday tartibdagi yondashuv xususiy kapital hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etilishiga imkon yaratadi"[14].

Yuqorida bildirib o'tilgan turli qarashlar va yondoshuvlarni umumlashtirgan holda, xususiy kapitalga quyidagi mualliflik tushunchasi berildi: "*Xususiy kapital - bu korxonada faoliyati jarayonida iqtisodiy naf keltiradigan iqtisodiy resurslar yig'indisi bo'lib, aktivlardan majburiyatlarning chegirmasi bo'yicha, sof aktiv sifatida ustav, qo'shilgan, rezerv kapitali hamda taqsimlanmagan foydadan iborat bo'ladi*".

TADVIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolani yozishda xususiy kapital hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil hamda buxgalteriya hisobining usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Korxonada mulkdori qonunchilik bo'yicha barcha majburiyatlarni bajargandan so'ng qoladigan korxonada aktivlariga egalik qila oladi. Ya'ni korxonada muassisiga doim barcha aktivlar emas, balki majburiyatlar chegirilgandan so'ng qoladigan aktivlar tegishli bo'ladi. Shu sababli xususiy kapitalni sof aktiv deb xam ataladi. Xususiy kapital quyidagilardan tarkib topadi:

- ustav fondi (ustav kapitali),
- qo'shilgan kapital,
- zaxira kapitali
- taqsimlanmagan foyda.

Quyida ayrim tushunchalarga batafsil to'xtalib o'tiladi, jumladan *Ustav fondi* (ustav kapitali) ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischi (ishtirokchilar) o'rtasidagi kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chet el valyutasida ifodalangan ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo'ladigan inflyatsiya zaxiralarini, qonun hujjatlarida va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarni, shuningdek tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganligini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilishi mumkin.

Ustav kapitali - bu ta'ris hujjatida belgilangan doiradagi faoliyatni ta'minlash uchun ta'rischilarning (ishtirokchilarning) korxonaga mulkiga qo'ygan mablag'lari (ulushlari, aksiyalar nominal qiymatida va hokazolar)ning pul ifodasidagi yig'indisidir.

Korxonaga ustav kapitalining holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

8310 "Oddiy aksiyalar";

8320 "Imtiyozli aksiyalar";

8330 "Pay va ulushlar".

Ustav kapitali harakatining buxgalteriya hisobi 8300-"Ustav kapitali" schyotida, tegishli jurnal orderda, uning analitik hisobi esa, ishtirokchilar (ta'rischilar) bo'yicha kartochkalar yoki qaydnomalarda yuritiladi.

Masalan, "Jizzahdonmahsulotlari" AJni ro'yxatdan o'tkazish paytida aksiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga ta'rischilarning ulushlari bo'yicha qarzi (to'liq miqdorda) aks ettirilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

1. Korxonaga ustav kapitalining ro'yxatdan o'tkazilishiga:

Debet 4610 - Ta'rischilar bilan hisoblashishlar schyoti - 2 mlrd. so'm

Kredit 8310 yoki 8320 - Oddiy (imtiyozli) aksiyalar schyoti - 2 mlrd. so'm.

2. Aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini nominal qiymati bo'yicha sotilishi:

Debet 5010 yoki 5110 - Pul mablag'lari schyoti - 2 mlrd. so'm

Kredit 4610 - Ta'rischilar bilan hisoblashishlar schyoti - 2 mlrd. so'm

Ustav kapitalini hisobga olish bilan bog'liq yana bir muhim masala, ustav kapitalini doimiy ravishda oshirib borishdir. Korxonaning ustav kapitali uning foydasi hisobiga ko'paytirish mumkin bo'lgan eng katta miqdorni aniqlash uchun o'tgan hisobot yili yakuni bo'yicha korxonaning sof aktivlari miqdori hisoblab chiqariladi. Masalan, "Jizzaxdonmahsulotlari" AJning moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida da sof aktivlarining qiymati 273104483 ming so'mni tashkil qildi. Korxonaga joriy yilda 430924 min so'm sof foyda bilan yakunlagan. Natijada korxonada 273267356 ming so'mdan oshmaydigan summaga ko'paytirish huquqiga ega bo'ladi. Aksiyadorlik ishtirokchilari yig'ilishida ustav kapitalini 301245 ming so'mga ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilindi va ushbu muaomala buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

Taqsimlanmagan foyda hisobiga ustav kapitali ko'paytirildi:

Debet 8710 - Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) schyoti - 301245 ming so'm.

Kredit 8330 - Pay va ulushlar schyoti - 301245 ming so'm.

Qo'shilgan kapital - bu tashkil etilayotgan xo'jalikning daromad (foyda) olish maqsadini ko'zlab, kiritilgan va kiritilayotgan dastlabki mablag'larning Respublikamiz yuqori tashkilotlari hamda bozor talablari asosida yuzaga kelgan mulk tafovutlarini, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mablag'lar bo'lib, bundan tashqari qo'shilgan kapital schyotida ustav kapitaliga qo'yilgan qo'yilmalarni to'lashda hosil bo'ladigan kursdagi farqlar summasi ham hisobga olinadi.

Qo'shilgan kapitalning mavjudligi va harakati quyidagi schyotlarda hisobga olinadi.

8410 - "Emissiya daromadi"

8420 - "Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farqi"

Masalan, "Jizzaxdonmahsulotlari" AJning nominal qiymati 500 so'm bo'lgan oddiy aksiyalari 800 so'mdan sotilgan aksiyalar 1000 so'mdan sotib olindi.

Debet 5110 - Hisob kitob schyoti - 500 so'm

8410 - Emission daromad - 200 so'm

9690 - Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar schyoti - 300 so'm

Kredit 8610 – Sotib olingan xususiy aksiyalar schyoti– 1000 so‘m.

Rezerv kapitali hisobot davrida erishilgan sof foyda hisobidan, amaldagi qonunchilik asosida, zarar ko‘rish ehtimolini oldini olish va xo‘jalikning oxirgi moliyalashtirish manbai sifatida gavdalanadigan hamda keyinchalik kirim qilingan (ustav kapitaliga taalluqli bo‘lmagan) aktivlarni inflyatsiya zaxirasining o‘zida mujassam etgan mablag‘lar manbai bo‘lib, u korxonaning (qanday mulk shaklidan qat’iy nazar) iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan himoyalash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan mablag‘lar manbaini ifodalab, u korxonaning hisobot yilda erishgan sof foydasidan shakllantiriladi.

Amaldagi qonunchilikka binoan korxonada rezerv kapitali tashkil etiladi. Uning miqdori jamiyat ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘lmashligi kerakligi belgilab berilgan.

8510 “Mulknini qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotida mulklarni qayta baholash natijasida vujudga kelgan o‘zgarishlar hisobga olinadi. Mulklarni qayta baholash natijasida rezerv kapitalining shakllanishi va to‘ldirilishi 8510 “Mulknini qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining kreditida qayta baholash natijasida qiymati oshgan mulklarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Agar qayta baholash natijasida mulklarning qiymati kamaysa, kamaygan summa o‘sha mulkning navbatdagi qiymati oshishi hisobiga to‘ldiriladi va u 8510 “Mulknini qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining debetida aks ettiriladi. Shu mulkning avvalgi qayta baholashdagi qiymatidan oshgan arzonlashtirilgan summa xarajat sifatida tan olinadi va 9430 “Boshqa operatsion xarajatlarni” schyotida aks ettiriladi. Demak, ushbu hisobvaraqlar (schyotlar) BHMS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tuzayotgan korxonalar uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Korxonalarda xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi schyotlar taklif etildi:

1-jadval

Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida amaldagi buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi”ga (21-son BHMS) xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlar bo‘yicha berilgan taklif¹.

Amaldagi schyotlar		Taklif etilayotgan schyotlar	
Schyot raqami	Nomi	Schyot raqami	Nomi
8500 - Rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlar		8500 - Rezervlarni hisobga oluvchi schyotlar	
8510	Mulknini qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar	8510	Rezerv kapitali (fond)
8520	Rezerv kapitali	8520	Asosiy vositalarning qayta baholanishi bo‘yicha rezerv
8530	Tekinga olingan mulk	8530	Nomoddiy aktivlarning qayta baholanishi bo‘yicha rezerv
		8540	Moliyaviy instrumentlarni baholanishi bo‘yicha rezerv
		8550	Bir valyutadan boshqa valyutaga o‘tkazishdagi kurs farqlari bo‘yicha rezerv
		8560	Boshqa rezervlar

¹ “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan tashkilotlar uchun buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi” loyixasi asosida muallif ishlanmasi.

Taklif etilayotgan ushbu xususiy kapitalga tegishli bo'lgan 8500 – “Rezervlar”da buxgalteriya hisobi milliy standartlari va moliyaviy hisobot standartlari shuningdek, korxonaning ta'sis xujjatlari va hisob siyosati talabiga muvofiq xususiy kapital schetida aks ettiriladigan rezervlar hisobi quyidagi schyotlar guruhini o'z ichiga oladi:

8510 – “Rezerv kapitali (fond)” ta'sis hujjatlariga muvofiq belgilangan rezerv kapitali hisobi uchun foydalaniladi;

8520 – “Asosiy vositalarning qayta baholanishi bo'yicha rezerv” asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha operatsiyalar hisobi uchun foydalaniladi;

8530 – “Nomoddiy aktivlarning qayta baholanishi bo'yicha rezerv” nomoddiy aktivlarni qayta baholash bo'yicha operatsiyalar hisobi uchun foydalaniladi;

8540 – “Moliyaviy instrumentlarni qayta baholanishiga rezerv” ulushli va qarz instrumentlarini qayta baholash bo'yicha operatsiyalar hisobi uchun foydalaniladi;

8550 – “Bir valyutadan boshqa valyutaga o'tkazishdagi kurs farqlari bo'yicha rezerv” xoriydagi bo'linmaga kiritilgan sof investitsiyaning bir qismini tashkil etadigan va korxonaning moliyaviy hisobotida sof investitsiya chiqarilgunga qadar xususiy kapital sifatida tasniflanadigan kurs farqlari hisobi uchun foydalaniladi;

8560 – “Boshqa rezervlar” yuqoridagi guruhlarda ko'rsatilmagan boshqa rezervlar hisobi uchun foydalaniladi.

Yuqorida taklif etilgan schyotlardan ko'rinib turibdiki, xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Amaldagi 8510 - “Mulkni qayta baholashdan tuzatishlar” schyoti negizida ikkita mustaqil schyotlar yuritiladi, ya'ni:

8520 – “Asosiy vositalarning qayta baholanishi bo'yicha rezerv”

8530 – “Nomoddiy aktivlarning qayta baholanishi bo'yicha rezerv”

Masalan, aksiyadorlik jamiyatida 100 mln. so'mlik asosiy vositalari qayta baholash modeliga asosan 1,5 koeffitsientga oshirildi, ushbu operatsiyaga taklif qilinayotgan schyotlar asosida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi:

Debet 0100 - “Asosiy vositalar” schyotlari - 50 mln. so'm;

Kredit 8520 - “Asosiy vositalarni qayta baholanishi bo'yicha rezerv” schyoti - 50 mln. so'm.

Korxonalarda xususiy kapital hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning yana bir muhim jihati shundaki, kelgusida “Ustav kapitali va boshqa kapital elementlari” nomli Moliyaviy hisobotning milliy standarti (MHMS) yaratish va uni amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu avvalgi 14-sonli BHMS “Hususiy kapital to'g'risidagi hisobot” va shu kabi BHMSlarni o'rnini egallaydi hamda milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg'unligini ta'minlaydi.

XULOSA.

Tadqiqotlar natijasida korxonalar xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlarni taklif etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini ta'minlaydi, BHMS bo'yicha qo'llanilayotgan schyotlarni to'g'ridan-to'g'ri xalqaro bo'yicha talablarni qo'llash imkoniyatini beradi;

xususiy kapital, jumladan rezervlarni hisobga olishda taklif qilinayotgan schyotlar aniq tushunarli bo'lishi o'tish vazifasini bajaradi hamda xususiy kapital haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri aks ettirish imkoniyatini yaratadi;

xalqaro standartlar talablarida schyotlar rejasi emas, asosan e'tiborni moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratganligi tufayli, kelgusida korxonada shakllantirilayotgan moliyaviy hisobotlarni takomillashuviga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020 yil 24 fevral. <https://lex.uz/docs/4746047>
2. "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish". 1-son BHXS (Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti). Rasmiy tarjima-2022 y. 108-band.
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi". Rasmiy tarjima-2022 y.
4. [Федеральным законом от 06.12.2011 № 402-ФЗ, Приказом Минфина РФ от 31.10.2000 № 94н](#), Положениями по бухгалтерскому учету, [Учетной политикой организации](#)
5. О бухгалтерском учете и финансовой отчетности. Закон Республики Казахстан от 28 февраля 2007 года Н 234. <https://zakon.uchet.kz/rus/docs/Z070000234>
6. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel. O'RQ-404-son. 19-modda.
7. **O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati»**. <https://lex.uz/docs/7050497>
8. "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos". <https://lex.uz/docs/7015916>
9. Kurbanov Z.N., Misirov K.M. Moliyaviy va boshqaruv hisobi.T."IQTISOD-MOLIYA", 2019. - 575 b.
10. Ermatov A.A. Xususiy kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish muammolari. Iqt fan. bo'yicha falsafa doktori (RhD) diss avt. T: 2020 y. - 60 b.
11. Berdiev Q.H. Xususiy kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish. Iqt. fan bo'yicha falsafa doktori (RhD) diss. avt. T: 2023 y. - 58 b.
12. Ortiqov E.Ya. Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish. Iqt. Fan bo'yicha falsafa doktri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss avtoreferati. T.: 2025 yil. 35 b.
13. Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlari iqtisod va moliya / Экономика и финансы, №2, 2016.
14. Sherimbetov I.X. Xususiy kapital hisobi va auditi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: "NIHOL-PRINT", 2025. 160 b

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra
professori, a.ostonokulov@tsue.uz,
ORCID: 0000-0003-2792-3174

O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA VA BANK XIZMATLARI HISOBI HAMDA AUDITI ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Professor of the Department, Tashkent State
University of Economics, a.ostonokulov@tsue.uz,
ORCID: 0000-0003-2792-3174

FORMATION OF ACCOUNTING AND AUDIT FRAMEWORK FOR ISLAMIC FINANCE AND BANKING SERVICES IN UZBEKISTAN

Остонокулов Азамат Абдукаримович
Профессор кафедры Ташкентского
государственного экономического университета,
a.ostonokulov@tsue.uz,
ORCID: 0000-0003-2792-3174

ФОРМИРОВАНИЕ ОСНОВ УЧЕТА И АУДИТА ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ И БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning fundamental asoslarini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda islomiy moliya va bank xizmatining iqtisodiy mohiyati, uni joriy etishdagi institutsional talablar hamda an’anaviy va islomiy buxgalteriya hisobi standartlari o‘rtasidagi konseptual farqlar ochib berilgan. Xalqaro moliya institutlari hisobotlari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro buxgalteriya hamda audit standartlari asosida qiyosiy va konseptual tahlil amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida islomiy moliya operatsiyalarida buxgalteriya hisobi foizsiz daromad, aktivga asoslangan va foyda-zararni bo‘lish tamoyillariga tayanishini hisobga olgan holda, O‘zbekiston sharoiti uchun mos aralash hisob va audit modeli taklif etilgan. Mazkur model an’anaviy moliya tizimi barqarorligini saqlagan holda islomiy moliya va bank xizmatini bosqichma-bosqich joriy etish imkonini beradi. Olingan xulosalar islomiy moliya va bank xizmatini joriy etishda normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish, buxgalter va auditorlar tayyorlash tizimini rivojlantirish hamda moliyaviy shaffoflikni oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so‘zlar: islomiy moliya, islomiy bank xizmatlari, buxgalteriya hisobi, audit, shariat muvofiqligi, AAOIFI standartlari, IFRS.

Abstract

This article scientifically analyzes the issues of forming the fundamental foundations of accounting and auditing in Islamic finance and banking entities in Uzbekistan. The study reveals the economic essence of Islamic finance and banking, institutional requirements for its implementation, and conceptual differences between traditional and Islamic accounting standards. A comparative and conceptual analysis was carried out based on the reports of international financial institutions, current regulatory legal acts, and international accounting and auditing standards. As a result of the study, a mixed accounting and auditing model suitable for the conditions of Uzbekistan was proposed, taking into account the fact that accounting in Islamic financial transactions is based on the principles of non-interest income, asset-based, and profit-loss sharing. This model allows for the gradual

introduction of Islamic finance and banking while maintaining the stability of the traditional financial system. The conclusions obtained are of practical importance in improving the regulatory framework for the introduction of Islamic finance and banking, developing the system for training accountants and auditors, and increasing financial transparency.

Keywords: Islamic finance, Islamic banking, accounting, auditing, Shariah compliance, AAOIFI standards, IFRS.

Аннотация

В данной статье научно анализируются вопросы формирования фундаментальных основ бухгалтерского учета и аудита в исламских финансовых и банковских организациях Узбекистана. Исследование раскрывает экономическую сущность исламского финансирования и банковского дела, институциональные требования к его внедрению и концептуальные различия между традиционными и исламскими стандартами бухгалтерского учета. Проведен сравнительный и концептуальный анализ на основе отчетов международных финансовых институтов, действующих нормативно-правовых актов и международных стандартов бухгалтерского учета и аудита. В результате исследования предложена смешанная модель бухгалтерского учета и аудита, адаптированная к условиям Узбекистана, учитывающая тот факт, что учет в исламских финансовых операциях основан на принципах непроцентного дохода, учета активов и распределения прибыли и убытков. Эта модель позволяет осуществлять постепенное внедрение исламского финансирования и банковского дела при сохранении стабильности традиционной финансовой системы. Полученные выводы имеют практическое значение для совершенствования нормативно-правовой базы внедрения исламского финансирования и банковского дела, развития системы подготовки бухгалтеров и аудиторов, а также повышения финансовой прозрачности.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский банкинг, бухгалтерский учет, аудит, шариатское соответствие, стандарты AAOIFI, IFRS.

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda jahon moliya tizimida islomiy moliya va bank xizmatlarining ahamiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Bugungi kunda islomiy moliya bozorining umumiy hajmi 6 trln. AQSh dollaridan ortiqni tashkil etib, u bank, sukuk (investitsion qimmatli qog‘oz), islomiy sug‘urta (takaful) hamda investitsiya fondlarini qamrab olgan kompleks tizim sifatida shakllanmoqda[6]. Islomiy moliyaning jadal rivojlanishi uning foizga asoslanmagan, real aktivlar bilan bog‘liq hamda risk va foydani adolatli taqsimlashga qaratilgan moliyaviy mexanizm sifatida barqaror iqtisodiy o‘shni ta‘minlashdagi roli bilan izohlanadi[7].

Xalqaro moliya institutlari islomiy moliyani an‘anaviy moliya tizimiga muqobil emas, balki uni to‘ldiruvchi samarali instrument sifatida baholamoqda. Jumladan, Жаҳон банки (World Bank) islomiy moliyani moliyaviy inklyuziyani oshirish, kichik biznes va aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida e‘tirof etadi[5]. Shuningdek, Халқаро валюта жамғармаси (IMF) o‘z tahliliy hisobotlarida islomiy bank xizmatlari to‘g‘ri institutsional va hisob standartlari asosida joriy etilgan taqdirda moliya tizimi barqarorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi[8].

O‘zbekistonda ham moliya bozorini diversifikatsiya qilish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining turli moliyaviy ehtiyojlarini qondirish hamda tashqi investitsiyalarni jalb etish maqsadida islomiy moliya va bank xizmatlarini joriy etish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Mamlakatda moliya va bank xizmatlari tizimini isloh qilish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etishga qaratilgan davlat siyosati doirasida islomiy moliya elementlari bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Xususan, “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga asosan nobank kredit tashkilotlari jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlarga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko‘rsatishga ruxsat berildi[1]. Kelgusida tijorat banklarda ham islomiy moliya va bank xizmatlari ko‘rsatish

imkoniyatlari ortib bormoqda. Bu esa, nafaqat huquqiy va institutsional muhitni, balki buxgalteriya hisobi va audit tizimini ham tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Amaldagi an'anaviy buxgalteriya hisobi va audit tizimi, asosan, foizli kredit munosabatlari va qarz majburiyatlariga tayangan holda shakllangan bo'lib, u Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) hamda audit sohasida Auditning xalqaro standartlari (ISA) asosida yuritiladi. Biroq islomiy moliya amaliyotida moliyaviy operatsiyalar foizga emas, balki aktivga asoslangan savdo, ijara va sheriklik munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, islomiy moliya subyektlarida buxgalteriya hisobi daromadni tan olish, aktivlarni baholash, risklarni hisobga olish va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish nuqtai nazaridan an'anaviy hisob tizimidan sezilarli darajada farq qiladi[9].

Xalqaro amaliyotda islomiy moliya institutlari uchun maxsus buxgalteriya va audit standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan qabul qilingan buxgalteriya, audit va shariat standartlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu standartlar islomiy moliya operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni bilan bir qatorda, ularning shariat talablariga muvofiqligini ham hisobda aks ettirishni talab qiladi[10]. Shu bilan birga, Islom moliya xizmatlari kengashi (IFSB) islomiy moliya institutlari uchun moliyaviy barqarorlik, risk-menejment va korporativ boshqaruv masalalari bo'yicha qo'shimcha yo'riqnomalarni ishlab chiqqan[12].

Shunga qaramasdan, O'zbekiston sharoitida islomiy moliya va bank xizmatlari uchun mos buxgalteriya hisobi va auditning fundamental asoslarini kompleks tarzda shakllantirish masalasi yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy ishlar, asosan, islomiy moliyaning umumiy iqtisodiy mohiyati yoki huquqiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, buxgalteriya hisobi va auditning konseptual, metodologik va institutsional masalalari yetarlicha ochib berilmagan. Shu bois, an'anaviy va islomiy buxgalteriya standartlarini taqqoslash, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitiga mos fundamental hisob va audit modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning fundamental asoslarini ilmiy jihatdan shakllantirish, an'anaviy va islomiy hisob standartlarini taqqoslash hamda milliy amaliyot uchun konseptual yondashuvlar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada ushbu maqsadga erishish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro moliya institutlarining tahliliy hisobotlari hamda Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI) va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida qiyosiy va konseptual tahlil amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Islomiy moliya va bank xizmatlarida buxgalteriya hisobi va audit masalalari so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda alohida mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanib bormoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur sohadagi tadqiqotlar islomiy moliyaning iqtisodiy mohiyati, moliyaviy barqarorlikka ta'siri, hisob standartlari va audit tizimining o'ziga xos jihatlarini qamrab olgan holda bir nechta konseptual yo'nalishlarga ajralgan.

Islomiy moliyaning iqtisodiy va institutsional mohiyatiga oid tadqiqotlar. Xalqaro moliya institutlari va nufuzli olimlar islomiy moliyani foizga asoslanmagan, real aktivlar bilan bog'liq va riskni adolatli taqsimlashga qaratilgan moliyaviy tizim sifatida ta'riflaydilar. Islomiy moliyaning iqtisodiy ahamiyati, ayniqsa, moliyaviy moslashuvchanlikni oshirish, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash nuqtai nazaridan yuqori baholanadi[6].

Islom taraqqiyot banki (IDB) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda islomiy moliya institutlari aktivga asoslangan operatsiyalar hisobiga spekulyativ risklarni cheklashini hamda iqtisodiy inqirozlarga nisbatan barqarorroq ekanligi ta'kidlanadi[7]. Shu bilan birga, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) islomiy bank xizmatlari tegishli huquqiy va hisob standartlari bilan ta'minlangan holda joriy etilsa, milliy moliya tizimi barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi[8].

Islomiy moliyada buxgalteriya hisobi konsepsiyalari. Islomiy moliyada buxgalteriya hisobi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar, asosan, shariat tamoyillari bilan uyg'un hisob tizimini shakllantirish zaruratiga qaratilgan. Bu borada asosiy ilmiy va amaliy manba sifatida Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan ishlab chiqilgan buxgalteriya standartlari xizmat qiladi. Ushbu standartlarda buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy natijalarni aks ettirish, balki operatsiyalarning shariat talablariga muvofiqligini ta'minlash vositasi sifatida qaraladi[9].

Nufuzli olimlar islomiy buxgalteriya hisobi an'anaviy hisob modelidan konseptual jihatdan farq qilishini ta'kidlaydilar. Xususan, Zubair Hasan va Abdul Rahim Abdul Rahman islomiy hisob tizimi iqtisodiy natija bilan bir qatorda axloqiy va ijtimoiy javobgarlikni ham hisobga olishi lozimligini asoslaydilar[15].

An'anaviy va islomiy buxgalteriya standartlarini taqqoslashga oid ilmiy yondashuvlar. An'anaviy buxgalteriya hisobi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida foizli kredit munosabatlari va qarz majburiyatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan. Biroq islomiy moliya amaliyotida daromad savdo ustamasi, ijara to'lovi yoki sheriklik natijasi sifatida shakllanadi, bu esa daromadni tan olish va aktivlarni baholashda mutlaqo boshqa yondashuvni talab qiladi.

Vinnicombe, McCallum va Zijl islomiy banklarda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) qo'llanilishi ayrim hollarda shariat talablari bilan to'liq uyg'un kelmasligini, ayniqsa oldindan kelishilgan marja bilan muddatli to'lovlar orqali tovarni sotish shakli (murabaxa) hamda foydalar va zararlar taqsimotiga asoslangan sherikchilik (mushoraka) operatsiyalarida hisoblash muammolari mavjudligini ko'rsatgan[16]. Christopher Napier islomiy buxgalteriya hisobi mustaqil konseptual maktab sifatida qaralishi kerakligini ta'kidlab, uni muqobil buxgalteriya namunasi, deb baholaydi[21].

Islomiy audit va shariat muvofiqlik nazorati bo'yicha tadqiqotlar. Islomiy moliyada audit masalasi ilmiy adabiyotlarda ikki qavatli tizim sifatida talqin qilinadi: moliyaviy audit va shariat muvofiqlik auditi. Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI)ga muvofiq, shariat auditi moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi bilan bir qatorda operatsiyalarning foiz (ribo), noaniqlik (g'arar) va taxmin (maysir)dan xoli ekanligini baholaydi[10].

Islom moliya xizmatlari kengashi (IFSB) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shariat muvofiqlik nazoratini islomiy moliya institutlarida risk-menejment va korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida belgilaydi[11]. Farook, Hassan va Lanis shariat auditi instituti zaif bo'lgan hollarda moliyaviy hisobot ishonchliligi pasayishini ilmiy jihatdan asoslab bergan[17].

Islomiy moliyani joriy etayotgan Malayziya, Indoneziya, Qozog'iston kabi mamlakatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi va audit standartlarini milliy huquqiy va institutsional muhitga moslashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sarea va Hanefah islomiy moliya institutlarida hisob standartlarining parchalanganligi hisobotlarni taqqoslash imkoniyatini cheklashini ta'kidlab, Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI)ni milliy darajada tizimlashtirishni taklif qiladilar[18].

O'zbekistonga oid ilmiy ishlar esa, asosan, islomiy moliyaning huquqiy va institutsional jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, buxgalteriya hisobi va auditning fundamental asoslarini tizimli shakllantirish masalasi yetarlicha ochilmagan.

Adabiyotlar sharhi natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya sohasida buxgalteriya hisobi va audit masalalari xalqaro miqyosda faol o'rganilgan bo'lsa-da, ushbu tadqiqotlar asosan rivojlangan islomiy moliya bozorlariga qaratilgan. O'zbekiston kabi islomiy moliyani joriy etish bosqichida turgan mamlakatlar uchun buxgalteriya hisobi va auditning fundamental, milliy moslashgan modelini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqotlar deyarli mavjud emas.

Shu bois, mazkur tadqiqot an'anaviy va islomiy buxgalteriya standartlarini qiyosiy tahlil qilish, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish hamda islomiy moliya va bank xizmati subyektlari uchun buxgalteriya hisobi va auditning fundamental asoslarini shakllantirish orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan original ilmiy ish sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqot islomiy moliya va bank xizmatlari subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning fundamental asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, unda sifatli va konseptual tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi islomiy moliyaning iqtisodiy-huquqiy mohiyati, buxgalteriya hisobi va audit standartlarining o‘ziga xos jihatlari chuqur ochib berish, shuningdek, O‘zbekiston sharoitiga mos ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradigan usullar yig‘indisiga tayanadi.

Tadqiqotda, avvalo, O‘zbekistonda islomiy moliya va bank xizmatlarini joriy etish bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2022 yildagi “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-765-son Qonuni[1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023 yildagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-364-son qarori[2], O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 17.10.2025 yildagi “Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (11.01.2023 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3412)[3], O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 26.07.2024 yildagi “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (26.07.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3536)[4]. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili islomiy moliya va bank xizmatlari subyektlarida buxgalteriya hisobi hamda auditni joriy etish uchun huquqiy asoslar, mavjud cheklolar va institutsional bo‘shliqlarni aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu usul orqali an’anaviy buxgalteriya hisobi va audit tizimi bilan islomiy moliyaga mos hisob tizimi o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Qiyosiy tahlilda daromadlarni tan olish usullari, aktivlarni baholash va hisobda aks ettirish, risk va majburiyatlarni taqsimlash, moliyaviy hisobot shakllari va ochib berish (disclosure) talablari, audit jarayoni va uning qamrovi kabi yo‘nalishlar qamrab olindi. Bu jarayonda an’anaviy hisob tizimida qo‘llaniladigan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) hamda Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AAOIFI) asosiy taqqoslash ob’ekti sifatida olindi[14].

Metodologiya doirasida islomiy moliya sohasida yetakchi hisoblangan xalqaro moliya institutlari va standart belgilauvchi tashkilotlarning hujjatlari o‘rganildi. Xususan, islomiy moliya institutlarining hisob va audit amaliyoti bo‘yicha qoidalar, risk-menejment, korporativ boshqaruv va shariat muvofiqligi masalalari, xalqaro tavsiyalar asosida tahlil qilindi[10]. Bu tahlil islomiy moliyada buxgalteriya hisobi va audit nafaqat moliyaviy natijalarni aks ettirish, balki shariat talablariga muvofiqlikni ta’minlash funksiyasini ham bajarishini ko‘rsatib berdi.


Tadqiqotda konseptual modellash usuli qo‘llanilib, uning yordamida O‘zbekiston sharoitiga mos islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditning fundamental modeli ishlab chiqildi. Ushbu model hisobning asosiy qoidalari (ribo taqiqlanishi, aktivga asoslanganlik, foyda-zararni bo‘lish), hisob ob’ektlari va operatsiya turlari, moliyaviy hisobot elementlari, auditning ikki qavatli tizimi (moliyaviy audit va shariat muvofiqlik auditori) kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Konseptual modellash usuli maqolada taklif etilayotgan yondashuvlarni tizimlashtirish va ularni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining rasmiy normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro moliya institutlarining tahliliy hisobotlari, Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI) hamda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS), nufuzli ilmiy maqolalar, qo‘llanmalar tashkil etdib tadqiqot natijalarining ishonchligi va tekshirish imkoniyatini ta’minlaydi. Tadqiqot konseptual va normativ tahlilga asoslangan bo‘lib, amaliyotdagi statistik ma’lumotlarning cheklanganligi tufayli empirik usullar qo‘llanilmadi. Shu

bilan birga, ushbu cheklov maqolaning maqsadi — buxgalteriya hisobi va auditning fundamental nazariy asoslarini shakllantirish vazifasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish uchun nazariy jihatdan asoslangan, institutsional jihatdan amaliy va metodologik jihatdan barqaror bo'lgan fundamental yondashuvni shakllantirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Olingan natijalar xalqaro standartlar, ilmiy tadqiqotlar va milliy huquqiy muhit tahlili asosida o'zaro bog'liq yo'nalish bo'yicha umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya va bank xizmatini ko'rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi an'anaviy hisob tizimidan farqli ravishda iqtisodiy, huquqiy va axloqiy tamoyillarni birlashtiruvchi kompleks qoidalar tizimiga tayanadi (1-rasm).



1-rasm. Islomiy moliya va bank xizmatlari subyektlarida buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari¹

Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti tasdiqlangan qoidalarga asosan foiz taqiqlanishi (Riba prohibition) islomiy moliyada foizli daromad manbalariga yo'l qo'yilmaydi. Shu sababli, buxgalteriya hisobi foiz hisoblash va amortizatsiyalangan qiymat modeliga emas, balki, savdo ustamasi (murabaxa), ijaradan olinadigan daromad (ijara), sheriklik natijasi (mushoraka, mudoraba) orqali shakllanadigan daromadlarni aks ettirishga yo'naltiriladi. Bu esa daromadni tan olishning vaqt, shart va iqtisodiy mazmuniga asoslangan yondashuvini talab qiladi[19].

Aktivga asoslanganlik (Asset-backing principle) islomiy moliya operatsiyalarida har bir moliyaviy munosabat real aktiv bilan bog'liq bo'lishi shart. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan bu bank balansida tovar-moddiy zaxiralar ulushining oshishi, ijara ob'ektlarini aktiv sifatida tan olish, aktivlarning haqiqiy iqtisodiy mohiyatini ochib berish zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu qoida an'anaviy banklar balansida ustun bo'lgan qarz instrumentlaridan keskin farq qiladi.


Foyda va zararni bo'lishish (Profit and Loss Sharing) sheriklikka (mushoraka, mudoraba) asoslangan operatsiyalarda daromad kafolatlanmagan bo'lib, buxgalteriya hisobi risk va natijani ishtirokchilar o'rtasida adolatli taqsimlashni aniq va shaffof aks ettirishi shart. Bu hisob siyosati, rezervlar shakllantirish va hisobot ochib berish talablarini kengaytiradi.

Axloqiy va ijtimoiy yo'naltirilganlik islomiy buxgalteriya hisobi zakot, xayriya va ijtimoiy fondlarni moliyaviy hisobotlarda alohida element sifatida ko'rsatishni talab qiladi. Bu holat hisobotlarni faqat iqtisodiy samara emas, balki ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan ham baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, islomiy moliya subyektlarida buxgalteriya hisobi ob'ekti an'anaviy bank operatsiyalariga nisbatan keng va murakkab hisoblanadi. Ular murabaxa bo'yicha tovar aktivlari va muddatli debitor qarzlari, mushoraka va mudoraba shartnomalari bo'yicha kapital ulushlari, ijara ob'ektlari va ijaradan olinadigan daromadlar, sukuk bo'yicha investitsiya aktivlari, zakot majburiyatlari va ijtimoiy fondlarni qamrab oladi (2-rasm).

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Eng muxim hisob ob'ektlari

2-rasm. Islomiy moliya va bank xizmatlari subyektlarida eng asosiy hisob ob'ektlari²

Ushbu ob'ektlar bo'yicha hisob yuritish an'anaviy schyotlar rejasini qayta ko'rib chiqishni, islomiy operatsiyalar uchun maxsus subschyotlar joriy etishni talab qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlarda ochib berish darajasi (disclosure) sezilarli oshadi.

Moliya va bank xizmatlari subyektlarida an'anaviy va islomiy qoidalar asosidagi buxgalteriya hisobida umumiy o'xshash jihatlari ancha yuqori bo'lishi bilan birga 1 va 2 rasmlarda keltirib o'tilgan jihatlarni inobatga olgan holda o'ziga xos farqli jihatlarni ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Moliya va bank xizmatlarida an'anaviy buxgalteriya hisobi va islomiy qoidalar bo'yicha hisobning o'ziga xos jihatlari³

№	Taqqoslash mezonlari	An'anaviy buxgalteriya hisobi	Islomiy moliya bo'yicha buxgalteriya hisobi
1	Konseptual asos	Qarz va foiz konsepsiyasiga tayanadi	Foiz taqiqlanishi (ribo), aktiv va sheriklikka asoslangan
2	Daromad manbai	Foiz, komissiya, moliyaviy instrumentlar	Savdo ustamasi (murabaxa), ijara haqi, sheriklik foydasi
3	Daromadni tan olish	Vaqt qiymati va hisoblash qoidasiga asoslanadi	Iqtisodiy mazmun va shariat muvofiqligiga asoslanadi
4	Aktivlar roli	Aktivga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish shart emas	Har bir operatsiya real aktiv bilan bog'liq
5	Riskni taqsimlash	Risk asosan qarz oluvchi zimmasida	Risk va foyda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi
6	Foyda kafolati	Foiz orqali kafolatlangan daromad mavjud	Foyda kafolatlanmaydi
7	Moliyaviy instrumentlar	Kredit, obligatsiya, derivativlar	Murabaxa, mushoraka, mudoraba, ijara, sukuk

² Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

³ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

8	Ijtimoiy majburiyatlar	Hisob tizimida markaziy o'rin tutmaydi	Zakot, xayriya, ijtimoiy fondlar hisobda aks ettiriladi
9	Buxgalteriya standartlari	Asosan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)	Asosan Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AAOIFI)
10	Hisobot maqsadi	Investor va kreditorlar uchun moliyaviy axborot	Moliyaviy axborot + shariat muvofiqlik
11	Ochiqlash (Disclosure)	Moliyaviy risk va natijalar	Moliyaviy axborot + shariatga muvofiqlik
12	Audit modeli	Faqat moliyaviy audit	Moliyaviy audit + shariat muvofiqlik auditi
13	Axloqiy omil	Bevosita hisobga olinmaydi	Buxgalteriya hisobi tarkibiy qismi
14	Korporativ boshqaruv	Foyda maksimallashtirishga yo'naltirilgan	Foyda + ijtimoiy adolat va mas'uliyat
15	O'zbekiston uchun qo'llash	Amalda to'liq joriy etilgan	Aralash model orqali bosqichma-bosqich joriy etish mumkin

Jadval asosida moliya va bank xizmatlari sohasida an'anaviy va islomiy qoidalar asosidagi buxgalteriya hisobida daromadlar va xarajatlarni tan olish, ular bilan bog'liq aktivlar va majburiyatlarning vujudga kelishi, daromadlar bilan bog'liq risk majburiyatlarini yuklash kabi jihatlarda farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, an'anaviy tizimda faoliyat yuritayotgan moliya va bank xizmatlari subyektlarining asosiy maqsadi foyda bo'lsa, islomiy moliya va bank xizmatlarida shariat qoidalariga asosan foyda va ijtimoiy adolat (majburiyat) birlamchi sanaladi. Islomiy buxgalteriya hisobi an'anaviy hisob tizimini inkor etmaydi, balki uni iqtisodiy, axloqiy va ijtimoiy o'lchamlar bilan boyituvchi muqobil konseptual model sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida an'anaviy hisob infratuzilmasiga tayangan holda islomiy moliya operatsiyalari uchun maxsus hisob qoidalarini joriy etishga asoslangan aralash yondashuv eng maqbul hisoblanadi. Bu kabi jihatlarda o'z navbatida, moliya va bank xizmatlarida an'anaviy buxgalteriya hisobi va islomiy qoidalar bo'yicha hisobda soliq munosabatlari bo'yicha ham o'ziga xos jihatlarni vujudga keltrib chiqaradi.

Islomiy moliya va bank xizmatlari subyektlarida audit faqat moliyaviy tekshiruv bilan cheklanmasligini, balki keng qamrovli institutsional nazorat mexanizmi moliyaviy audit va shariat muvofiqlik auditi sifatida shakllanishini ko'rsatmoqda. Moliyaviy audit hisobotlarning ishonchligi, qonunchilik va standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi. U xalqaro audit standartlari va milliy qoidalar asosida amalga oshiriladi. Shariat auditi islomiy moliya institutlari uchun qoidalar ahamiyatga ega bo'lib, u buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga tayanadi va operatsiyalarning foiz (ribo), noaniqlik (g'arar) va taxmin (maysir)dan xoli ekanligini baholaydi. Islomiy moliya xizmatlari kengashiga ko'ra, bu audit turi korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimining ajralmas qismi hisoblanadi[20].

Islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida audit tizimi buxgalteriya hisobi kabi an'anaviy moliyaviy nazorat doirasidan kengroq institutsional va konseptual mazmunga ega. An'anaviy audit, asosan, moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va amaldagi standartlarga muvofiqligini tekshirishga qaratilgan bo'lsa, islomiy moliyada audit ushbu vazifalar bilan bir qatorda operatsiyalarning shariat tamoyillariga muvofiqligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, islomiy moliyada audit

moliyaviy nazorat mexanizmigina emas, balki axloqiy, huquqiy va institutsional ishonchni shakllantiruvchi muhim element sifatida qaraladi. Quyidagi 2-jadvalda an'anaviy audit bilan islomiy moliyada audit o'rtasidagi asosiy farqli va ayrim umumiy jihatlar tizimli tarzda taqqoslanadi.

2-jadval

Moliya va bank xizmatlarida an'anaviy va islomiy qoidalar bo'yicha auditning o'ziga xos jihatlar⁴

№	Taqqoslash mezonlari	An'anaviy audit	Islomiy moliyada audit
1	Auditning asosiy maqsadi	Moliyaviy hisobot ishonchliligi (ISA)	Moliyaviy hisobot + shariatga muvofiqlik (AASIFI)
2	Audit qamrovi	Moliyaviy hisobotlar	Hisobotlar + operatsiya mazmuni
3	Standartlar bazasi	Auditning xalqaro standartlari (ISA)	Auditning xalqaro standartlari (ISA) + Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI)
4	Nazorat ob'ekti	Hisob siyosati va hisobot shakllari	Hisobotlar + shartnomalar
5	Foiz (ribo) masalasi	Nazorat ob'ekti emas	Ribo mavjud emasligi tekshiriladi
6	G'arar (noaniqlik) va maysir (taxmin)	Audit doirasida emas	G'arar (noaniqlik) va maysir (taxmin)dan xoli ekanligi tekshiriladi
7	Daromad manbalari	Foiz, komissiya	Savdo ustamasi, ijara, sheriklik foydasi
8	Auditor xulosasi	Faqat moliyaviy xulosa	Moliyaviy + shariat xulosasi
9	Shariat kengashi	Mavjud emas	Institutsional element Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI)
10	Risklarga yondashuv	Moliyaviy risklar	Moliyaviy + shariatga nomoslik riski
11	Audit mustaqilligi	Kasbiy mustaqillik (ISA)	Kasbiy + axloqiy mustaqillik
12	Etika mezonlari	Kasbiy etika kodeksi	Kasbiy etika + shariat axloqi
13	Korporativ boshqaruvdagi o'rni	Nazorat funksiyasi	Nazorat + institutsional legitimlik
14	Ochiqlash (Disclosure)	Moliyaviy axborot	Moliyaviy axborot + shariat muvofiqligi
15	O'zbekiston uchun qo'llash	Amalda joriy etilgan	Aralash audit modeli taklif etiladi

⁴ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyada audit an'anaviy moliyaviy tekshiruv bilan cheklanib qolmaydi, balki operatsiyalarning shariat tamoyillariga muvofiqligini ta'minlovchi mustaqil institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy auditda asosiy e'tibor moliyaviy hisobotlarning ishonchligiga qaratilgan bo'lsa, islomiy moliyada audit ushbu vazifani saqlagan holda, foiz (ribo), noaniqlik (g'arar) va taxmin (maysir) elementlarining mavjud emasligini ham baholaydi[10].

Xalqaro tadqiqotlar shariat muvofiqlik auditori mavjud bo'lmagan hollarda islomiy moliya institutlarida shariatga rioya qilmaslik xavfi (shariah non-compliance risk) ortib borishini ko'rsatadi. Bu esa, nafaqat axloqiy, balki moliyaviy va reputatsion xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, shariat auditori islomiy moliya institutlarida risk-menejment va korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi[11].

O'zbekiston sharoitida mazkur tahlil muhim institutsional xulosaga olib keladi: islomiy moliyani joriy etishda an'anaviy audit tizimidan voz kechish talab etilmaydi. Aksincha, Auditorning xalqaro standartlari (ISA) asosida shakllangan mavjud audit infratuzilmasini saqlab qolgan holda, uni Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI)ga muvofiq shariat muvofiqlik auditori bilan to'ldirish orqali aralash audit modelini joriy etish eng maqbul yechim hisoblanadi. Bunday yondashuv milliy moliya tizimining barqarorligini ta'minlaydi, xalqaro standartlarga moslikni saqlaydi va islomiy moliya institutlariga nisbatan ishonchni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.

Bizningcha, umumlashtirgan holda aytish mumkinki, islomiy buxgalteriya hisobi an'anaviy tizimga zid emas, balki uning ayrim cheklovlarini to'ldiruvchi muqobil model sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston sharoitida an'anaviy operatsiyalar uchun Moliyaviy hisobotning milliy standartlari (MHMS) hamda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), islomiy moliya va bank xizmatlari yuzasidan operatsiyalar uchun Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan belgilangan standartlar asosida hisob yuritish aralash tizimli model sifatida eng maqbul variant hisoblanadi.

Olingan natijalar islomiy moliyani joriy etishda normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, buxgalter va auditorlarni tayyorlash tizimini yangilash, moliyaviy hisobot shaffofligini oshirish uchun asosida ishlab chiqilgan konseptual model metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu model islomiy moliya va bank xizmatlarini O'zbekiston bank tizimiga bosqichma-bosqich, barqaror va xavflarni minimallashtirgan holda joriy etish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya va bank xizmatlari subyektlarida buxgalteriya hisobi va audit an'anaviy moliyaviy hisobdan kengroq konseptual doiraga ega. O'zbekiston uchun xalqaro standartlarga tayangan, milliy xususiyatlarni inobatga olgan aralash hisob va audit modeli islomiy moliyani samarali joriy etishning eng maqbul yo'li hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida olingan natijalar islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditorni tashkil etish masalasi faqat texnik hisob yuritish muammosi emas, balki konseptual, institutsional, huquqiy va axloqiy o'lchamlarga ega murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi. Muhokama jarayonida mazkur natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlar, nufuzli olimlarning ishlanmalari hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar bilan solishtirib tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy buxgalteriya hisobi an'anaviy hisob tizimidan tubdan uzilgan mustaqil tizim emas, balki uni kengaytiruvchi va to'ldiruvchi muqobil konseptual model sifatida qaralishi mumkin. Bu xulosa xalqaro adabiyotlarda mavjud ilmiy pozitsiyalar bilan uyg'un. Jumladan, Christopher Napier islomiy buxgalteriyani muqobil buxgalteriya varianti sifatida ta'riflar ekan, unda iqtisodiy natijalar axloqiy me'yorlar va jamoat manfaatlari bilan uyg'un holda aks ettirilishini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqotda aniqlangan fundamental prinsiplar — foiz (ribo) taqiqlanishi, aktivga asoslanganlik, foyda va zararni bo'lish hamda ijtimoiy javobgarlik — aynan shu konseptual yondashuvni tasdiqlaydi[21].

Shu bilan birga, ayrim olimlar islomiy buxgalteriya hisobi uchun to'liq alohida standartlar tizimini yaratish zarurligini ilgari suradilar. Biroq natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kabi

islomiy moliya endigina joriy etilayotgan mamlakatlar uchun bunday keskin yondashuvdan ko'ra mavjud an'anaviy hisob tizimi bilan uyg'unlashtirilgan model institutsional jihatdan maqbulroq hisoblanadi.

Muhokama natijalari an'anaviy buxgalteriya hisobi standartlari va islomiy buxgalteriya standartlari o'rtasidagi asosiy ziddiyatlar, avvalo, daromadni tan olish, aktivlarni baholash va riskni hisobga olish sohalarida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. An'anaviy tizimda daromad foiz va vaqt qiymati konsepsiyasiga tayanadi, islomiy moliyada esa u real aktivlar harakati va sheriklik natijasi bilan bog'liq.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, an'anaviy standartlar (jumladan, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)) islomiy moliya operatsiyalarining iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib berishda ayrim hollarda cheklangan imkoniyatga ega. Shu sababli, islomiy moliya institutlari amaliyotida maxsus standartlar qo'llaniladi.

Mazkur tadqiqotda taklif etilgan aralash yondashuv ushbu ziddiyatlarni yumshatishga qaratilgan bo'lib, u xalqaro adabiyotlarda ilgari surilgan ijobiy holatlar bilan uyg'un. Ya'ni, islomiy operatsiyalar uchun maxsus qoidalarni saqlagan holda, umumiy hisob infratuzilmasida an'anaviy standartlardan foydalanish institutsional barqarorlikni ta'minlaydi.

Muhokama natijalari islomiy moliya institutlarida auditning roli an'anaviy moliyaviy audit doirasidan ancha keng ekanligini ko'rsatdi. Islomiy audit faqat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tekshirish bilan cheklanib qolmasdan, operatsiyalarning shariat tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash orqali tizimli ishonch va moslashuvchanlikni shakllantiradi.

Xalqaro tadqiqotlar shariat muvofiqlik auditi mavjud bo'lmagan hollarda islomiy moliya institutlarida shariatga rioya qilmaslik xavfi ortib borishini ko'rsatadi. Bu risk nafaqat diniy, balki moliyaviy va jiddiy xavflarga ham olib keladi. Shu nuqtai nazardan, Islom moliya xizmatlari kengashi (IFSB) tomonidan ishlab chiqilgan shariat boshqaruvi va risk-menejment bo'yicha qo'llanmalar mazkur tadqiqotda taklif etilgan ikki qavatli audit modeli bilan to'liq uyg'un keladi.

O'zbekistonda islomiy moliyani joriy etishning tizimli qiyinchiliklariga qaratildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat ilmiy ishlar islomiy moliya va bank xizmatlari rivojlangan mamlakatlar Malayziya, Bahrayn, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar tajribasiga asoslanildi. O'zbekiston sharoitida esa, huquqiy baza hali to'liq shakllanmagan, buxgalter va auditorlar uchun maxsus malaka tizimi cheklangan, shariat auditi instituti amalda mavjud emas.

Shu sababli, mazkur tadqiqotda taklif etilgan fundamental model islomiy moliya va bank xizmatlarini tezkor joriy etish emas, balki bosqichma-bosqich, institutsional moslashuvga asoslangan yo'lni nazarda tutadi. Bu yondashuv xalqaro moliya institutlari tomonidan ilgari surilgan ehtiyotkor integratsiya strategiyalari bilan ham mos keladi.

Kengaytirilgan muhokama natijalari islomiy moliyani joriy etish buxgalteriya hisobi va audit sohasida normativ-huquqiy hujjatlar islohotlarni talab qilishi, Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI) ni to'liq ko'chirish emas, balki milliy sharoitga moslashtirish, shariat auditi institutini joriy etish korporativ boshqaruv sifatini oshirish, hisob va audit shaffofligining oshishi tashqi investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Bu imkoniyatlar O'zbekistonda moliya bozorini diversifikatsiya qilish va moliyaviy moslashuvchanlikni oshirish bo'yicha davlat siyosati bilan ham uyg'un keladi.

Kengaytirilgan muhokama shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish masalasi strategik ahamiyatga ega institutsional muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan fundamental yondashuv va aralash model xalqaro ilmiy adabiyotlar bilan uyg'un holda, O'zbekiston sharoitida islomiy moliyani barqaror, shaffof va ishonchli tarzda joriy etish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditni shakllantirish masalasi alohida hisob tizimini joriy etish bilan cheklanmasdan, moliya tizimining konseptual va me'yoriy asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab etuvchi strategik

jarayon ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyani samarali joriy etish, avvalo, uning iqtisodiy mohiyatiga mos buxgalteriya hisobi va audit tizimini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Olib borilgan tahlillar islomiy moliyada buxgalteriya hisobi an'anaviy moliyaviy hisob tizimidan mazmunan farq qilishini, biroq unga zid emasligini aniq ko'rsatdi. Islomiy moliya operatsiyalarida daromad foiz sifatida emas, balki real aktivlar harakati va sheriklik natijasi sifatida shakllanadi. Bu esa daromadni tan olish, aktivlarni baholash, risklarni hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda ochib berish masalalarida maxsus, kengaytirilgan va iqtisodiy mazmunga asoslangan yondashuvlarni talab qiladi. Shu ma'noda, islomiy buxgalteriya hisobi iqtisodiy natijalarni aks ettirish bilan bir qatorda shariat tamoyillariga muvofiqlik va ijtimoiy javobgarlikni ta'minlovchi institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

An'anaviy buxgalteriya hisobi va audit standartlari bilan Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI) qiyosiy tahlil qilish natijalari xalqaro moliyaviy hisob standartlari moliya bozorlarida shaffoflik va taqqoslanuvchanlikni ta'minlashda muhim o'rin tutishini, biroq islomiy moliya operatsiyalarining iqtisodiy va axloqiy mohiyatini to'liq qamrab olishda cheklangan imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, islomiy moliya institutlari uchun ishlab chiqilgan Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI) buxgalteriya hisobi va auditni shariat talablari bilan uyg'un holda tashkil etish uchun zarur metodologik asosni yaratadi. Biroq ushbu standartlarni milliy amaliyotga to'liq va mexanik tarzda ko'chirish emas, balki Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida shakllangan mavjud hisob infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirilgan holda moslashtirish O'zbekiston sharoiti uchun eng maqbul yechim sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida audit tizimi ham keng qamrovli tizim xarakterga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. Moliyaviy audit bilan bir qatorda shariat muvofiqlik auditini islomiy moliya institutlarining faoliyatida shariatga nomos operatsiyalar xavfini kamaytiradi, hisobotlar ishonchligini oshiradi hamda investorlar va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi. Bu holat islomiy auditni faqat nazorat vositasi emas, balki korporativ boshqaruv va risk-menejmentning ajralmas elementi sifatida qarash zarurligini asoslaydi.

O'zbekiston sharoitida olingan natijalar islomiy moliyani joriy etishda qator amaliy va institutsional xulosalarni ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, islomiy moliya operatsiyalari uchun buxgalteriya hisobi va auditni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bazasini bosqichma-bosqich shakllantirish va uni amaldagi qonunchilik bilan uyg'unlashtirish zarur. Ikkinchidan, an'anaviy moliyaviy operatsiyalar uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS), islomiy moliya operatsiyalari uchun esa Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit standartlari (AASIFI)ga tayanuvchi aralash hisob va audit modelini joriy etish moliya tizimining barqarorligini saqlagan holda yangi moliyaviy vositalarni integratsiya qilish imkonini beradi. Uchinchidan, buxgalterlar va auditorlar uchun islomiy moliyaga ixtisoslashgan qayta tayyorlash va sertifikatlash tizimini joriy etish kadrlar salohiyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. To'rtinchidan, shariat auditini institutni tashkil etish va uni milliy korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot O'zbekistonda islomiy moliya va bank xizmati subyektlarida buxgalteriya hisobi va auditning fundamental asoslarini shakllantirish bo'yicha nazariy jihatdan asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan va xalqaro standartlar bilan uyg'un bo'lgan konseptual yondashuvni taklif etadi. Taklif etilgan model milliy iqtisodiyotning tizimlashtirilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda islomiy moliyani barqaror, shaffof va ishonchli tarzda joriy etish uchun ilmiy poydevor yaratadi. Mazkur yondashuv kelgusida islomiy moliya sohasida empirik tadqiqotlar o'tkazish, me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish va amaliy qo'llanmalar ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2022 yildagi “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-765-son Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023 yildagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-364-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 17.10.2025 yildagi “Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (11.01.2023 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3412)
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 26.07.2024 yildagi “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (26.07.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3536).
5. World Bank, Financial Consumer Protection and Islamic Finance, Washington DC, 2021
6. World Bank, Islamic Finance: A Catalyst for Shared Prosperity, Washington DC, 2022
7. Islamic Development Bank, Islamic Finance Development Report, Jeddah, 2023
8. IMF, Ensuring Financial Stability in Countries with Islamic Banking, Washington DC, 2017
9. AAOIFI, Financial Accounting Standards, Bahrain, 2020
10. AAOIFI, Accounting, Auditing and Governance Standards, Bahrain, 2021
11. IFSB, Guiding Principles on Shariah Governance Systems, Kuala Lumpur, 2018
12. IFSB, Guiding Principles on Risk Management for Islamic Financial Institutions, Kuala Lumpur, 2019
13. IFRS Conceptual Framework, London, 2018
14. IFRS Conceptual Framework, London, 2018; AAOIFI, Financial Accounting Standards, Bahrain, 2020
15. Hasan AN, Abdul-Rahman A, Yazid Z (2020), "Shariah governance practices at Islamic fund management companies". *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, Vol. 11 No. 2 pp. 309–325, doi: <https://doi.org/10.1108/JIABR-03-2017-0045>.
16. Vinnicombe T (2012), "A study of compliance with AAOIFI accounting standards by Islamic banks in Bahrain". *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, Vol. 3 No. 2 pp. 78–98, doi: <https://doi.org/10.1108/17590811211265902>
17. Farook S, Kabir Hassan M, Lanis R (2011), "Determinants of corporate social responsibility disclosure: the case of Islamic banks". *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, Vol. 2 No. 2 pp. 114–141, doi: <https://doi.org/10.1108/1759081111170539>.
18. Mohammed Sarea A, Mohd Hanefah M (2013), "The need of accounting standards for Islamic financial institutions: evidence from AAOIFI". *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, Vol. 4 No. 1 pp. 64–76, doi: <https://doi.org/10.1108/17590811311314294>
19. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI)
20. Islamic Financial Services Board (IFSB)
21. Almulhim, A., Alomair, M., & Napier, C. J. (2023). Islamic accounting, accountability and governance. In *Handbook of accounting, accountability and governance* (pp. 332-348). Edward Elgar Publishing.

Raximov Matnazar Yusupovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

raximovmy@mail.ru

MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILI VA UNING MUAMMOLI JIHLTLARI

Raximov Matnazar Yusupovich

Professor of Tashkent State University of Economics

raximovmy@mail.ru

FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS AND ITS PROBLEMATIC ASPECTS

Рахимов Матназар Юсупович

Профессор Ташкентского государственного

экономического университета

raximovmy@mail.ru

АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ И ЕГО ПРОБЛЕМНЫЕ АСПЕКТЫ

Annatsiya: Moliyaviy hisobot tahlili korxonaga faoliyatini baholash, uning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati va rentabelligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo amaliyotda moliyaviy hisobot tahlili jarayonida turli muammoli jihatlari uchraydi. Ushbu muammolar tahlil natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobot tahlili, moliyaviy holat, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy natijalar, ish aktivligi, iqtisodiy nachorlik.

Abstract: Financial statement analysis is important for assessing a company's performance, determining its financial stability, solvency, and profitability. However, in practice, various problematic aspects arise during financial statement analysis. These problems can negatively impact the reliability of the analysis results.

Keywords: financial statements, financial statement analysis, financial condition, financial stability, financial results, business activity, insolvency.

Аннотация: Анализ финансовой отчетности важен для оценки деятельности компании, определения ее финансовой устойчивости, платежеспособности и прибыльности. Однако на практике в процессе анализа финансовой отчетности встречаются различные проблемные аспекты. Эти проблемы могут негативно повлиять на достоверность результатов анализа.

Ключевые слова: финансовая отчетность, анализ финансовой отчетности, финансовое состояние, финансовая устойчивость, финансовые результаты, хозяйственная деятельность, экономическая несостоятельность.

Kirish

Moliyaviy hisobotning turli mamlakatlarda har xil shaklda tuzilishi va talqin qilinishi bir qator ob'ektiv omillar bilan izoxlanadi:

Davlatlarning iqtisodiy tizimi (bozor iqtisodiyoti, aralash yoki davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadigan tizim) moliyaviy hisobotning mazmuni va maqsadiga bevosita ta'sir qilmasdan qolmaydi.

Masalan:

-rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda hisobotlar ko'proq investorlar va aksiyadorlar uchun mo'ljallanadi.

-davlatning roli yuqori bo'lgan mamlakatlarda esa hisobotlar asosan soliq va nazorat maqsadlariga xizmat qiladi.

Ko'p mamlakatlarda buxgalteriya(moliyaviy) hisoboti soliq hisoboti bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, moliyaviy natijalarni soliq yukini kamaytirish maqsadida boshqacha talqin qilish holatlari mavjud.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy hisobotlarda qayta baholash, indekslash kabi yondashuvlar qo'llaniladi. Bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarning talqinini o'zgartiradi.

Har bir mamlakatda hisob-kitobga, riskka va shaffoflikka bo'lgan munosabat turlicha. Bu jixat ham milliy buxgalteriya an'analarning shakllanishiga olib kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda taqqoslama, mantiqiy, normativ-huquqiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanish ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Usullarni kompleks qo'llash tadqiqotning amaliy va nazariy ahamiyatini oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Turli davlatlarda moliyaviy hisobotlarning turlicha talqin qilinishi xorijlik R. Nobes, K. Parker, Ch. Xorngren asarlarida atroflicha o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida milliy hisob tizimlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida: huquqiy tizim, soliq siyosati, moliya bozorining rivojlanish darajasi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, anglosakson va kontinental buxgalteriya modellari o'rtasidagi farqlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.(1)

IFRS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari)ga bag'ishlangan adabiyotlarda (D. Aleksandr, E. Britton, J. Jorjesku) moliyaviy hisobotni xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish zarurati asoslab berilgan. Ushbu manbalarda: adolatli qiymat konsepsiyasi, mazmunning shakldan ustunligi, shaffoflik va taqqoslanuvchanlik kabi tamoyillar milliy hisob tizimlaridan farq qiluvchi muhim jihatlar sifatida ko'rsatilgan.(2)

Moliyaviy hisobot tahliliga bag'ishlangan adabiyotlarda (I. Blank, V. Kovalyov, Ye. Stoyanova) hisobot ma'lumotlarining ishonchliligi va ularni turli mamlakatlarda talqin qilish muammolari yoritilgan. Mualliflar hisobot tahlilida: hisob siyosati farqlari, inflyatsiya ta'siri, nomoliyaviy omillarni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydilar.(3)

Tahlil va natijalar

Moliyaviy hisobot tahlili va uning muammoli jihatlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tarkiblab o'tishimiz mumkin.

1. Axborotning sifati.

Axborot sifati - moliyaviy hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning foydalanuvchilar ehtiyojlariga qay darajada mos kelishi va qaror qabul qilishda qanchalik foydali ekanini ifodalaydi. Axborot sifatining asosiy mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-axborot iqtisodiy qarorlarga ta'sir ko'rsata olishi;

-bashorat qilish va baholash imkonini berishi.

Moliyaviy hisobot - korxon(a)ning muayyan davrdagi moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risidagi ishonchli va tizimlashtirilgan axborotni aks ettiruvchi rasmiy hujjatlar majmuasidir.

Moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi:

-foydalanuvchilar (investorlar, kreditorlar, davlat organlari, rahbariyat)ni qaror qabul qilish uchun zarur axborot bilan ta'minlash;

-korxonaning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini baholash.

Moliyaviy hisobot tahlilidagi asosiy muammolardan biri — hisobot ma'lumotlarining to'liq, aniq va ishonchli emasligidir. Ayrim korxonalarda hisob ma'lumotlari kechikib taqdim etiladi yoki buxgalteriya hisobida xatolarga yo'l qo'yiladi. Bu esa tahlil natijalarida noto'g'ri xulosalarga olib keladi.

Axborot to'liqligi-moliyaviy hisobotda foydalanuvchi to'g'ri iqtisodiy qaror qabul qilishi uchun zarur bo'lgan barcha muhim ma'lumotlar to'liq va yetarli darajada aks ettirilganini anglatadi. Axborot to'liqligining asosiy belgilari sifatida quyidagilar belgilanadi:

-barcha muhim operatsiyalarning hisobotda aks ettirilganligi;

-aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlar yashirilmaganligi;

-hisob siyosati va muhim o'zgarishlarining izohlarda ochib berilganligi;

-qo'shimcha ma'lumotlarning taqdim etishning zaruriyligi.

Axborot aniqligi - moliyaviy hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning xato va noaniqliklardan xoli, hisob-kitoblar to'g'ri amalga oshirilgan va real holatni haqqoniy aks ettirgan bo'lishidir. Axborot aniqligining asosiy belgilari sifatida:

-hisob-kitoblarda arifmetik xatoliklarning yo'qligi;

-ma'lumotlarning hujjatlar bilan asoslanganligi;

-aktiv va majburiyatlar to'g'ri baholanganligi;

-noto'g'ri talqinga olib keluvchi noaniq ifoda va ikki ma'nolikning yo'qligi.

Axborot ishonchligi - moliyaviy hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniy, xolis va real iqtisodiy holatni to'g'ri aks ettirishi, ya'ni foydalanuvchi unga ishonib qaror qabul qila olishini tasniflaydi

Axborot ishonchligini belgilovchi omillar mifatida:

-haqqoniyligi;

-to'liqligi;

-xolis bo'lishiligi tavsiyalanadi.

1-jadval

Moliyaviy hisobot axborot sifatlari taqqoslama jadvali

№	Axborot sifati	Qisqacha ta'rif	Asosiy talab
1	Moslik	Axborotlarning qaror qabul qilishga ta'sir qila olishi	Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishligi
2	Ishonchlik	Axborotlarning haqqoniy va xolis bo'lishi	Buzib ko'rsatishsiz, to'liq
3	To'liqlik	Barcha muhim ma'lumotlar berilganligi	Muhim axborotlarqoldirilmasligi
4	Aniqlik	Ma'lumotlar to'g'ri va xatosiz	Hisob-kitoblarda xato yo'qligi
5	Taqqoslanuvchanlik	Turli davrlar yoki korxonalarni solishtirish mumkinligi	Bir xil hisob usullarining fo'llanishi
6	Tekshiriluvchanlik	Ma'lumotlarni mustaqil tasdiqlash mumkin	Hujjatlar bilan asoslanganligi
7	O'z vaqtidalik	Axborotlarning vaqtida taqdim etilganligi	Kechikishsiz hisobotlar takdim etilishi
8	Tushunarlilik	Axborotlarning sodda va ravon	Murakkab ifodalarning

	bayon etilishi	yo'qligi
--	----------------	----------

2. Inflyatsiya ta'sirining hisobga olinmasligi.

Ko'p hollarda moliyaviy hisobotlar inflyatsiya sharoitida qayta hisoblanmaydi. Natijada aktivlar, majburiyatlar va daromadlar haqiqiy qiymatni aks ettirmaydi. Bu muammo ayniqsa yuqori inflyatsiya sharoitida tahlilning xolisligini pasaytiradi.

Axborot tahlilida inflyatsiya ta'sirining hisobga olinmasligi deganda, moliyaviy hisobot va iqtisodiy ko'rsatkichlar nominal qiymatlarda tahlil qilinib, pul qiymatining pasayishi (inflyatsiya) inobatga olinmasligi tushuniladi. Inflyatsiya sharoitida pulning xarid qobiliyati pasayadi.

Agar tahlilda inflyatsiya inobatga olinmasa:

- daromad o'sgandek ko'rinadi, aslida esa real foyda o'zgarmagan bo'ladi;
- aktivlar qiymati kam baholanadi;
- xarajatlar va foyda noto'g'ri solishtiriladi;
- moliyaviy holat haqida xato xulosa chiqarilishi mumkin.

Inflyatsiya ta'siring salbiy oqibatlarini quyidagi jihatlar bilan tavsiyalanadi.

1) Noto'g'ri dinamika tahlili:

- turli yillar ko'rsatkichlari taqqoslanganda;
- inflyatsiya hisobga olinmasa, sun'iy o'sish paydo bo'ladi.

2) Foydaning real darajasi buzib ko'rsatiladi:

- nominal foyda bor, ammo real foyda yo'q.

3) Aktivlarning haqiqiy qiymati aks etmaydi:

- uzoq muddatli aktivlar (binolar, uskunarlar) eski narxlarda hisobga olinadi.

4) Investor va kreditorlar adashishi:

- korxonalar moliyaviy jihatdan yaxshi ko'rinsa-da, real holat zaif bo'lishi mumkin.

Muammoni kamaytirish usullari sifatida ko'rsatkichlarni real qiymatga keltirish, inflyatsiya koeffitsientlaridan foydalanish, qayta baholash (indeksatsiya) usullarini qo'llash, qiyosiy tahlilda bir xil, baza yilini tanlash amallari bajariladi.

2-jadval

Inflyatsiya ta'sirini hisobga olinmaslikning tahlilga ta'siri

№	Tahlil yo'nalishi	Inflyatsiya ta'siri hisobga olinmasa	Natijadagi xato xulosa
1	Daromad tahlili	Nominal o'sish real o'sish deb qabul qilinadi	Foyda oshdi degan noto'g'ri fikrga kelinadi
2	Foyda darajasi	Foyda real qiymatda kamaygani ko'rinmaydi	Korxonalar samarali deb baholanadi
3	Aktivlar qiymati	Uzoq muddatli aktivlar eski narxda qoladi	Aktivlar summasi kam baholanadi
4	Davrlar taqqoslanishi	Turli yillar to'g'ridan-to'g'ri solishtiriladi	Sun'iy o'sish paydo bo'ladi
5	Xarajatlar tahlili	Xarajatlar real oshishi yashiriladi	Samaradorlik noto'g'ri baholanadi
6	Investitsiya bahosi	Real daromad hisoblanmaydi	Investorlar xato qarorlar qabul qiladi
7	Moliyaviy holat	Pul qadrsizlanishi inobatga olinmaydi	Korxonalar barqarorlik holatida degan noto'g'ri xulosaga kelinadi

Inflyatsiya ta'siri hisobga olinmasa, moliyaviy ko'rsatkichlar real emas, nominal holatda baholanadi va tahlil natijalari ishonchsiz bo'lib qoladi.

3. Hisob siyosatlaridagi farqlar.

Korxonalarda qo'llaniladigan buxgalteriya hisob siyosati turlicha bo'lishi mumkin. Amortizatsiya usullari, zaxiralarni baholash yoki daromadlarni tan olish qoidalaridagi farqlar korxonalarni solishtirma tahlil qilishni qiyinlashtiradi.

Hisob siyosati - korxonada o'zining moliyaviy hisobotlarini tuzishda qo'llanadigan qoida va usullar majmuasi.

Unda quyidagilar belgilanadi: aktiv va majburiyatlarni baholash usuli (narx, amortizatsiya, zaxiralar); daromad va xarajatlarni hisobga olish usuli; inflyatsiya, valyutalar kurslari va qarz shartlarini aks ettirish yo'li; buxgalteriya usullari (nominal, real qiymat, FIFO/LIFO, amortizatsiya turlari).

Har bir korxonada hisob siyosatiga erkinlikka ega, lekin uning tanlovi moliyaviy ko'rsatkichlar tahliliga bevosita ta'sir qiladi.

3-javdal

Hisob siyosatidagi farqlar va tahliliga ta'sirlari

№	Hisob siyosati farqi	Ta'sir qiladigan moliyaviy ko'rsatkich	Tahlildagi oqibat
1	Amortizatsiya usuli (to'g'ridan-to'g'ri yoki cheklangan yoki tezlashtirilgan)	Amortizatsiya xarajatlari, aktivlar qiymati	Tezlashtirilgan amortizatsiya bilan foyda kamayadi, aktiv qiymati tez pasayadi; tahlilda qimmat va foyda noto'g'ri solishtirilishi mumkin
2	Zaxiralar bahosi (FIFO, LIFO, AVECO)	Sotish xarajatlari, foyda	LIFO ishlatilsa inflyatsiya sharoitida xarajat yuqori ko'rsatiladi va foyda kamayadi; FIFOda esa foyda yuqori ko'rinadi
3	Aktivlarni baholash usuli (nominal, qayta baholash)	Buxgalteriya balansi, aktivlar qiymati	Aktivlar qayta baholanganda balans qiymati oshadi; tahlilda kompaniya moliyaviy barqaror ko'rinadi
4	Daromadni e'tirof etish usuli (kassa yoki hisobga olish)	Daromad, foyda	Kassa usulida daromad so'nggi vaqtda hisobga olinadi; tahlilda foyda pasaygan ko'rinadi
5	Qarz va majburiyatlarni baholash (nominal yoki real qiymat)	Majburiyat qiymati, foyda	Qarz real qiymatda ko'rsatilmasa, foyda noto'g'ri talqin qilinadi
6	Mulk va investitsiyalar bahosi (qayta baholash yoki tarixiy qiymat)	Balans qiymati, kapital	Real qiymatdan farqlansa, tahlilda kompaniya qiymati sun'iy oshirilishi mumkin

Hisob siyosati **raxbariyatning, auditorlar va investorlar uchun muhim signal** hisoblanadi. Hisob siyosatidagi farqlar **raxbariyat va tahlilchilar uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda asosiy omil hisoblanadi**. Shuning uchun tahlilda **hisob siyosati aniq va barqaror bo'lishi**, uning o'zgarishlari esa izohlarda ko'rsatilishi shart.

4. Tahlilda faqat o'tmish ma'lumotlariga tayanish.

Moliyaviy hisobot tahlili asosan o'tgan davr ma'lumotlariga tayanadi. Bu esa korxonaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini to'liq baholash imkonini bermaydi. Strategik qarorlar qabul qilishda bu jiddiy cheklov hisoblanadi.

4-jadval

Tahlildagi asosiy muammolar

№	Muammo	Natijasi
1	Real vaqtga mos kelmaslik	Foyda, daromad va xarajatlar ko'rsatkichlari hozirgi iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi; tahlil natijasi eski ma'lumotlarga asoslanadi
2	Bozor va iqtisodiyot o'zgarishlari inobatga olinmaydi	Inflyatsiya, stavkalar, valyuta kurslari yoki salohiyatli raqobat holati tahlilda aks etmaydi
3	Strategik qarorlarning noto'g'ri chiqishi	Investorlar va rahbariyat foyda yoki qarzi tahlili asosida xato strategiyalar ishlab chiqishi mumkin
4	Foyda va xarajatning real qiymatining noto'g'ri talqini	Nominal foyda o'sgan bo'lib ko'rinadi, aslida real qiymati pasaygan bo'lishi mumkin
5	O'tmish tendensiyalari kelajakni prognoz qila olmaydi	Faqat tarixiy ma'lumotlarga tayangan tahlil kelajakdagi imkoniyat va xatarlarni yetarli ko'rsatmaydi
6	Iqtisodiy qarorlarning kechikishi	Muhim moliyaviy qarorlar (investitsiya, kredit olish, aktiv sotish) uchun kechikish yoki xato qarorlar yuzaga kelishi mumkin

5. Tahlilda nomoliyaviy omillarni inobatga olmaslik.

Tahlil jarayonida ko'pincha faqat raqamli ko'rsatkichlarga e'tibor qaratiladi. Boshqaruv sifati, bozordagi raqobat darajasi, texnologiyalar rivoji kabi nomoliyaviy omillar esa yetarlicha hisobga olinmaydi. Bu esa umumiy baholashni bir tomonlama qilib qo'yadi.

Nomoliyaviy omillar - korxonada faoliyati va moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi, lekin buxgalteriyada raqamlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aks ettirilmaydigan omillar.

Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishchi kuchining malakasi va samaradorligi;
- mijozlar va mol yetkazib beruvchilar bilan munosabat sifati;
- brend qiymati va raqobatdoshlik darajasi;
- ijtimoiy va siyosiy sharoitlar (soliq siyosatlari, litsenziyalar, sanksiyalar);
- ilmiy-texnika va innovatsiya imkoniyatlari.

Ya'ni, moliyaviy hisobotda raqamlar ko'rsatilsa ham, nomoliyaviy omillar ularning ma'nosini to'liq ochib bermaydi.

4-jadval

Nomoliyaviy omillarni inobatga olmaslikning tahlildagi oqibatlari

№	Muammo	Tahlildagi ta'siri
1	Iqtisodiy qarorlarda xato xulosa	Moliyaviy ko'rsatkichlar yaxshi bo'lsa ham, raqobatdan ortda qolish yoki ishchi samaradorligi pastligi xato baholanishi mumkin
2	Strategik va investitsiya xatarlari	Innovatsiya va texnologiya quvvati inobatga olinmasa, yangi loyihalar samaradorligi noto'g'ri baholanadi
3	Mijoz va bozor munosabatlari tahlilida kamchilik	Brend qiymati va mijozlarga sodiqlik tahlili mavjud emasligi uchun, real daromad va foyda noto'g'ri ko'rinadi
4	Ijtimoiy va siyosiy ta'sirni hisobga olmaslik	Soliq, litsenziyalash tartibi yoki siyosiy xatarlar moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini oshirib yubormasligi mumkin

5	Raqobatdoshlikni noto'g'ri baholash	Moliyaviy ko'rsatkichlar yuqori bo'lsa ham, raqobat ustunligi past bo'lishi tahlilda ko'rsatilmaydi
---	--------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------

Nomoliyaviy omillarni inobatga olishning ahamiyatini quyidagi ta'sir birliklari bo'yicha tasniflash mumkin.

Real foyda va samaradorlikni baholash:

-faqat hisobdagi raqamlar asosida korxonalar yaxshi ko'rinishi mumkin, lekin xodimlar samaradorligi past bo'lishi mumkin.

Strategik qarorlar sifatini oshirish:

-investitsiya, loyihalar va rivojlanish strategiyasi nomoliyaviy faktorlar bilan baholanganda aniq va ishonchli qarorlar chiqariladi.

Xatarlarni aniqlash:

-brend, litsenziya, bozor yoki ijtimoiy sharoit tahlili investorlar va rahbariyat uchun xatarlarni ko'rsatadi.

Faqat moliyaviy raqamlarga tayanish tahlilni qisqa ko'rsatadi va real samaradorlik va xatarlarni aks ettirmaydi. Nomoliyaviy omillar (ishchi kuchining sifatidan bozor va brend qiymatigacha) tahlilga qo'shilsa, korxonaning haqiqiy iqtisodiy va strategik holati aniqroq namoyon bo'ladi.

6. Tahlil usullarining cheklanganligi.

Amaliyotda ba'zan faqat klassik tahlil usullari bilan cheklanib qolinadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda esa kompleksli, ssenariyli va prognoz tahlil usullaridan foydalanish talab etiladi.

Moliyaviy hisobot tahlili usullari - korxonaning moliyaviy holatini baholash va qaror qabul qilish uchun qo'llaniladigan turli yo'llar va metodlar majmuasini bildiradi.

Cheklanganlik deganda, tahlilda qo'llaniladigan usullar moliyaviy hisobot raqamlari bilan bog'liq, lekin ular barcha omillar va kontekstni hisobga olmaydi. Ya'ni:

-faqat moliyaviy raqamlar asosida xulosa chiqariladi;

-nomoliyaviy, strategik, bozor va makroiqtisodiy omillar nazarda tutilmaydi;

-qaror qabul qilish uchun faqat muayyan ko'rsatkichlarga ishoniladi.

5-jadval

Moliyaviy hisobot tahlilida cheklanganlikning muammoli jihatlari

№	Muammo	Cheklangan usullar sababi	Oqibatlari
1	Faqat nominal raqamlarga tayanish	Trend, koeffitsientlar va soha standartlari asosida tahlil	Real foyda va qiymatni noto'g'ri baholash; inflyatsiya, valyutalar va bozor o'zgarishlari inobatga olinmaydi
2	Nomoliyaviy faktorlar hisobga olinmaydi	Uskunalar, brend, mijozlar va ishchi kuchining sifati tahlilda ko'rsatilmaydi	Samaradorlik, raqobatdoshlik va strategik ustunlik noto'g'ri baholanadi
3	Iqtisodiy va strategik tahlil cheklangan	Faqat qarz va foyda ko'rsatkichlari qo'llaniladi	Uzoq muddatli investitsiya, loyihalar va strategiya tahlili noto'g'ri chiqadi
4	Qiyosiy tahlil qiyinlashadi	Ushbu usullar kompaniyalar va davrlar o'rtasida farqlarni to'liq aks ettirmaydi	Solishtirishda sun'iy ko'rsatkichlar paydo bo'lishi mumkin
5	Xatarlar va tendensiyalar yetarli baholanmaydi	Moliyaviy koeffitsientlar va foydadan tashqari ma'lumotlar olinmaydi	Investor va rahbariyat xato xulosalarga kelishi mumkin

Cheklangan usullar tahlilini takomillashtirish yo'llari sifatida quyidagi yo'nalishlarni tarkiblash mumkin.

Nomoliyaviy omillar bilan birga tahlil:

-ishchi kuchining samaradorligi, brend qiymati, mijozlar va bozor tendensiyalari.

Real qiymat va inflyatsiya hisobga olish:

-nominal foyda va aktivlarni real qiymatga keltirish.

Strategik va makroiqtisodiy kontekstni inobatga olish:

-soliq siyosati, valyuta kursi, bozor sharoitlari va raqobat darajasi.

Bir necha usullarni qo'llash:

-koeffitsientlar, trend tahlil, gorizontaal va vertikal tahlil, prognoz va ssenariy tahlili.

Xulosa

Moliyaviy hisobot tahlilidagi muammoli jihatlar tahlil natijalarining aniqligi va ishonchliligiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun hisobot sifatini oshirish, inflyatsiyani hisobga olish, nomoliyaviy omillarni qo'shish hamda zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish zarur. Faqat shundagina moliyaviy hisobot tahlili boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali vositaga aylanadi.

Moliyaviy hisobot tahlili faqat raqamlarga e'tiqod qilib amalga oshirilsa, u real iqtisodiy holat, strategik imkoniyatlar va xatarlarni to'liq ko'rsatmaydi. Samarali tahlil uchun o'tmish ma'lumotlarini real qiymat, nomoliyaviy faktorlar va makroiqtisodiy kontekst bilan birlashtirish zarur.

Jumladan, moliyaviy hisobot tahlili va undagi kamchiliklarni oldini olishda zamonaviy, yagona tahliliy yondashuvning yo'qligi ham holatni to'g'ri baholashda imkon bermayapti.

Ishonch mezonlari aniq belgilangan va chuqurlashtirilgan moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishning zamonaviy shaklini yo'lga qo'yishdagi yondashuvlar afsuski tahlilning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Bu borada, menejerlar va qiziquvchilarni keng doirasi uchun moliyaviy holat tahlilining milliy va xalqaro segmentini yagona bir tizimga keltirish zarurligidan tahlilning metodologik bazisini qayta tuzib chiqish talab etilmoqda.

Metodologik asosning yagona tartibiga kelishda uning tadqiq etish birliklarini, ko'rsatkichlar tizimi, baholash indikatorlarini aniq klassifikatsiyasini tuzib zarur. Xozirgi holatda esa ularning dunyo amaliyotida yuzlab yondashuvlari va farqli jihatlarini kuzatish mumkin. To'g'ri, qaysidan ma'noda farqli jihatlarining bo'lishi tabiiydir. Biroq, bu farqli jihatlar turlicha talqinga olib kelmasligi lozim. Ayniqsa, tahliliy ko'rsatkichlarga nisbatan me'yoriy talablarning belgilanishida rivojlangan G'arb dunyosi bilan milliy iqtisodiyotdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning farqli ustunliklari ob'ektni to'g'ri talqin qilishga ta'sir qilmasligi lozim.

Metodologik asos ko'p jihatdan saxo bo'yicha xuquqiy normalarining belgilanishidagi muammolar bilan ham bog'lanadi. Xukukiy normalari belgilangan, aksiyadorlik jamiyatlarining muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashdagi talablar ham uning turli korxonalarda turlicha metodika va tartiblar aniqlanishidan ham ortiqcha va hech qanday ta'sirga ega bo'lmagan tahliliy amallar amalga oshirilayotganligi ham fikrimizning isboti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Нобес К., Паркер Р. Сравнительный международный бухгалтерский учет. — 13-е изд. — Харлоу: Pearson Education, 2016.
2. Александер Д., Бриттон А., Жориссен А. Международная финансовая отчетность и анализ. — Лондон: Cengage Learning, 2011.

3. Артеменко В.Г., Астапова В.В. Анализ финансовой отчетности. Учебное пособие. – М.: ОМЕГА-Л, 2011. – 270 с.
4. Артеменко В.Г., Беллендир М.В. Финансовый анализ. – М.: Дело-Сервис, 2008. – 152с.
5. Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента: Учебное пособие. – 2-е изд., доп. и перераб. – М.: Финансы и статистика. 2010.–512 с.
6. Банк В.Р., Банк С.В., Тараскина А.В. Финансовый анализ. Учебное пособие. – М.: ТК Велби, Проспект, 2007. – 344 с.
7. Пардаев М.Қ., Исроилов Б. Иқтисодий таҳлил Т.: Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси 2011, 452 б.
8. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov V.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. T.:Print Line Group, 2017.-533 b.
9. Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатини таҳлили Т.: Иқтисод-молия. 2015, 356 б.
10. Рахимов М.Ю, Қаландарова Н.Н. Молиявий таҳлил. Т.: Иқтисод-молия. 2019, 750 б.
11. Рахимов М.Ю., Астаноккулов О.Т., Қаландарова Н.Н. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Т.: Иқтисод-молия 2021 й. 435 б.
12. Рахимов М.Ю., Мавланов Н.Н. Қаландарова Н. Н. Иқтисодий таҳлил. Т.: Иқтисод-молия 2021 й. 346 б.
13. Соколов Я. В. Бухгалтерский учет: от истоков до наших дней. — М.: Финансы и статистика, 1996.
14. Ковалев В. В. Финансовый анализ. — М.: Финансы и статистика, 2013.
15. Қодиров А. А. Бухгалтерия ҳисоби ва аудит. — Т.: Фан ва технология, 2019.
16. Казакова Н.А. Финансовый анализ. Учебник. М.: Юрайт, 2018. – 470 с.
17. Кирьянова З.В., Седова Е.И. Анализ финансовой отчетности: Учебник / - 2- е изд., испр. и доп. - М.: Юрайт, 2014. - 428 с.

Bahodir Abdusalomovich Begalov,
professor, iqtisodiyot fanlari doktori,
Email: begalov@yandex.ru
Ra'no Akramovna Dadabaeva,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, TDIU professori.

TASHKILOTLARDAGI STRATEGIYALAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

Bakhodir Abdusalomovich Begalov,
Professor, Doctor of Economic Sciences,
Email: begalov@yandex.ru
Rano Akramovna Dadabaeva,
Candidate of Economic Sciences, Professor of TSUE.

STRATEGIES AND DIGITAL TRANSFORMATION PROCESSES IN ORGANIZATIONS

Бегалов Баходир Абдусаломович,
Профессор, доктор экономических наук,
Электронная почта: begalov@yandex.ru
Дадабаева Рано Акрамовна,
Кандидат экономических наук, профессор ТГЭУ.

СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ

Annotatsiya. Raqamli transformatsiya dinamik ravishda o'zgarib borayotgan raqamli iqtisodiyotda tashkilotlarning barqaror rivojlanishida asosiy omilga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqishning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqilib, raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy jarayonlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiyalarning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan. Raqamli strategiyani umumiy biznes strategiyasi va xodimlarning kompetentsiyalari bilan uyg'unlashtirish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya texnologiyalar, jarayonlar va inson kapitalini qamrab oluvchi tizimli yondashuvni talab qiladi.

Abstract. Digital transformation is becoming a key factor in the sustainable development of organizations in a dynamically changing digital economy. This article reviews modern approaches to developing digital transformation strategies and analyzes the main processes of implementing digital technologies. Factors influencing the success of digital transformations are studied. Particular attention is paid to the need to align the digital strategy with the overall business strategy and employee competencies. The results of the study show that digital transformation requires a systematic approach that encompasses technologies, processes, and human capital.

Аннотация. Цифровая трансформация становится ключевым фактором устойчивого развития организаций в динамично меняющейся цифровой экономике. В статье рассматриваются современные подходы к разработке стратегий цифровой трансформации и анализируются основные процессы внедрения цифровых технологий. Изучаются факторы, влияющие на успешность цифровой трансформации. Особое внимание уделяется

необходимости согласования цифровой стратегии с общей бизнес-стратегией и компетенциями сотрудников. Результаты исследования показывают, что цифровая трансформация требует системного подхода, охватывающего технологии, процессы и человеческий капитал.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, tashkiliy strategiya, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, biznes jarayonlari, o'zgarishlarni boshqarish, raqamli madaniyat, raqamli yetuklik.

Keywords: Digital transformation, organizational strategy, innovation, digital technologies, business processes, change management, digital culture, digital maturity.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, организационная стратегия, инновации, цифровые технологии, бизнес-процессы, управление изменениями, цифровая культура, цифровая зрелость.

Kirish. Raqamli transformatsiya zamonaviy tashkilotlar uchun asosiy rivojlanish sohasiga aylandi. Raqamli biznes modellariga o'tish raqobatning kuchayishi, iste'molchilar xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar va sun'iy intellekt, bulutli xizmatlar, katta ma'lumotlar va buyumlar interneti kabi texnologiyalarning jadal rivojlanishiga javob sifatida qaraladi. Biroq, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati nafaqat texnologiyalarni joriy etishga, balki tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga mos keladigan aniq strategiyani ishlab chiqishga ham bog'liq.

Yuqori noaniqlik va tezkor texnologik innovatsiyalar muhitida tashkilotlar qiymat yaratish, jarayonlarni optimallashtirish va o'zgarishlarni boshqarishga yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishlari kerak. Raqamli transformatsiya strategiyasi - bu raqamli vositalarni joriy etish, tashkiliy tuzilmani o'zgartirish, raqamli kompetensiyalarni mustahkamlash va innovatsion madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar to'plamidir. Raqamli transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish raqamli tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy muvaffaqiyat omillari va xavflarni aniqlashga yordam beradi. Ko'pgina tashkilotlarda raqamli kompetensiyalar hamda integratsiyalashgan raqamli strategiya mavjud emasligi va biznes jarayonlarini qayta loyihalash kabi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, bu esa ushbu mavzuni tizimli o'rganish zarurligini keltirib chiqaradi.

Shuning uchun raqamli transformatsiya strategiyalari bo'yicha tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki u tashkilotlarga barqaror rivojlanish modellarini yaratishga, innovatsiyalarni tezda joriy etishga va raqamli o'zgarishlarni samarali boshqarishga yordam beradi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi raqamli transformatsiya jarayonlarini har tomonlama o'rganishga qaratilgan bo'lib, bir qancha ilmiy yondashuvlar va tahlil usullariga asoslanadi. Birinchi navbatda, tahliliy yondashuv qo'llanib, raqamli transformatsiya sohasidagi zamonaviy nazariy manbalar, ilmiy maqolalar va amaliyotdagi keyslar o'rganilgan. Bu, mavjud nazariy qarashlar va innovatsion amaliy tajribalarni taqqoslash imkonini bergan.

Tadqiqotda shuningdek tizimli yondashuvdan foydalanilgan bo'lib, unga ko'ra raqamli transformatsiya faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki tashkilotning biznes-modeli, ichki jarayonlari va inson kapitali kabi tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi murakkab va o'zaro bog'liq tizim sifatida qaraladi. Tizimli tahlil orqali raqamli o'zgarishlarning turli sohalarga ta'siri va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlangan.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli qo'llanib, turli kompaniyalar va sektorlarda qo'llanilayotgan raqamli strategiyalar o'rganilgan bo'lib, ularning samaradorligi va qo'shilgan qiymati solishtirildi. Ushbu usul raqamli transformatsiyaning eng samarali mexanizmlarini aniqlash va umumlashtirish imkonini bergan.

Ma'lumotlarni tartiblash usullari orqali raqamli transformatsiyaning asosiy bosqichlari,

muvaffaqiyat omillari va asosiy vositalari belgilab chiqilgan. Shu tariqa, tanlangan metodologiya raqamli transformatsiya strategiyalarini tizimli tahlil qilish va ularning amaliy qiymatini baholash imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Strategiya tashkilot o'z qarashlari, masalalari, maqsad va vazifalarini qanday amalga oshirishini tavsiflaydi. Muayyan strategiyani tanlash o'z va-zifasini bajarish uchun tashkilotning resurslari va faoliyatini yuqoridan pastga yo'nalgan holda boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

Strategiyani ishlab chiqish jarayonida daromadlarni oshirish, yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlarni ushlab qolish, mijozlar sodiqligini mustahkamlash hamda yangi mahsulotlarni bozorga chiqarish uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirish kabi maqsadlar keng qo'llaniladigan ustuvor yo'nalishlardir. Muqobil strategiyalarni tanlashda menejerlar har bir strategiyaning daromad va foydaga uzoq muddatli ta'sirini, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar darajasini, zarur resurslarning miqdori va tarkibini, shuningdek, raqobatchilarning ehtimoliy reaksiyasini har tomonlama baholashlari lozim.

Umuman olganda, strategiya tashkilot yoki uning alohida bo'linmalarining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari va harakatlar majmuasini belgilaydi. Korporativ strategiya esa tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish ko'lamini va yo'nalishini, o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida resurslardan samarali foydalanish orqali bozor ehtiyojlari va manfaatdor tomonlar talablarini qanday qondirishini ifodalaydi.

Strategiyani ishlab chiqishning asosiy bosqichlarida mavjud muammolar aniqlanadi, tashkilotning rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqiladi, kuchli va zaif tomonlar kompleks tahlil qilinadi. Ya'ni, avvalo tashkilotning holati baholanadi, so'ngra strategiyaning bir nechta muqobil variantlari ishlab chiqiladi va ulardan eng maqbul yo'nalish tanlanib, takomillashtiriladi.

Tashkilotning ichki jarayonlarini baholashda vaqt ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishning moslashuvchanligi, sifat standartlariga rioya etish darajasi hamda sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish sifati kabi indikatorlar qo'llaniladi. Kadrlar bilan ishlash samaradorligi esa xodimlar kompetensiyasi, mehnat unumdorligi, ishga qoniqish darajasi, tashabbuskorlik hamda motivatsiya kabi mezonlar asosida baholanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ilgari tavsiflangan axborot tizimlarining har bir turi tashkilotlar oldida turgan muhim masalalarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Oxirgi o'n yillikda ushbu tizimlarning ayrim turlari kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligi, raqobatbardoshligi va bozordagi mavqeini saqlab qolishi uchun alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Raqobatda ustunlikka erishish uchun samarali vosita sifatida qo'llaniladigan bunday axborot tizimlari strategik axborot tizimlari deb ataladi. Strategik axborot tizimlari o'z mohiyati jihatidan yuqori darajadagi menejerlar tomonidan uzoq muddatli qarorlar qabul qilishga xizmat qiladigan an'anaviy strategik boshqaruv tizimlaridan farq qiladi. Ushbu tizimlar menejmentning yuqori pog'onasi foydalanadigan qaror qabul qilish va rejalashtirish tizimlari negizida shakllanishi mumkin bo'lsa-da, ular faqat rahbariyat doirasi bilan cheklanmay, tashkilotning barcha darajalarida qo'llanishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, strategik axborot tizimlari ko'lamining kengligi bilan ilgari ko'rib chiqilgan axborot tizimlaridan sezilarli darajada ustundir.

Strategik axborot tizimlari tashkilotning maqsadlari, mahsulot va xizmatlari, ichki jarayonlari hamda tashqi aloqalarini tubdan o'zgartirishga qodir. Bunday tizimlar kompaniya rahbariyatining boshqaruv uslubini, shuningdek, korxonaning asosiy biznes faoliyatini amalga oshirish tamoyillarini sezilarli darajada transformatsiya qiladi.

Masalan, State Street banki strategik axborot tizimlaridan foydalanish orqali o'zining an'anaviy bank xizmatlari – cheklarni qayta ishlash, depozit hisobvaraqlarini ochish va kredit berish kabi operatsiyalarini tubdan qayta ko'rib chiqdi. Natijada bank o'zaro kreditlash jamiyatlari va kredit byurolariga elektron buxgalteriya yuritish xizmatlarini, ma'lumotlarni qayta ishlash yechimlarini taqdim etishni boshladi hamda pensiya jamg'armalariga investitsiya menejrlari faoliyatini monitoring qilishda ko'maklashmoqda.

Universal, barcha holatlar uchun mos keladigan yagona strategik axborot tizimi mavjud emas. Aksincha, tashkilotning, bo'linmaning yoki sanoatning turli strategik darajalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan ko'plab axborot tizimlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifalarga ega. Har bir darajadagi tizim muayyan strategik maqsadlarni amalga oshirishda qo'llaniladi va ularni tahlil qilish uchun mos modellar ishlab chiqilgan.

Axborot tizimlaridan raqobat quroli sifatida samarali foydalanish uchun, avvalo, korxonalarining strategik imkoniyatlari qaysi yo'nalishlarda shakllanishi mumkinligini aniqlash zarur. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) nafaqat xodimlarning ish faoliyatini, balki tadbirkorlarning raqobat yuritish uslubini ham keskin o'zgartirdi. Dastlab kompyuterlar korxonalarda qo'lda bajariladigan jarayonlarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish vazifasini bajargan bo'lsa, bugungi kunda avtomatlashtirish axborot asrining oddiy va odatiy talabi hisoblanadi. Hozirgi kompaniyalar esa o'z faoliyatini avtomatlashtirishdan tashqari, raqobatchilardan ustunlikka erishish uchun AKTdan foydalanishning yangi, innovatsion yo'llarini topishga intilmoqda.

Ta'kidlanganidek, tashkilotlar raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun turli strategiyalardan foydalanadilar. Eng ko'p qo'llaniladigan strategik yondashuvlar quyidagilardan iborat: afzallik mezonlari, Porterning beshta raqobat kuchi modeli va qiymat (o'sish) zanjiri. Ushbu strategiyalar iste'molchilar xatti-harakati, bozordagi raqobat kuchlari va qiymat yaratish jarayonlarini tahlil qilishga imkon beradi.

Afzallik mezonlari strategiyasi iste'molchilarning qaror qabul qilish sabablarini aniqlashga qaratilgan. Masalan, agar xaridor uchun asosiy mezon yetkazib berish tezligi bo'lsa, u tezkorlik uchun qo'shimcha to'lovga tayyor bo'ladi. Shunga muvofiq, tashkilot ushbu ustunlikni ta'minlash uchun qo'shimcha resurs sarflaydi. Iste'molchilar afzalliklarini samarali boshqarish nafaqat mijozlar uchun qulaylik yaratadi, balki biznesga ham raqobat ustunligini beradi.

Iste'molchi uchun afzalliklar: individual yondashuv, ma'lumotlar xavfsizligi va ularning afzal ko'rgan kanallari orqali muloqot qilish imkoniyati. Bu mijoz tajribasini yaxshilaydi va ularning brendga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Biznes uchun afzalliklar: marketing investitsiyalarining yuqori daromadlilikligi, mijozlarni ushlab qolish koeffitsientining oshishi va brend obro'sining mustahkamlanishi. Afzalliklarni boshqarish tizimi kompaniyaga qaysi mijoz bilan qanday kanal orqali muloqot qilishni aniq belgilash imkonini yaratadi.

Iste'molchilar xohish-istaklarini boshqarish sohasidagi eng yaxshi amaliyotlar quyidagilardan iborat:

- iste'molchilarga oqilona tanlov imkonini yaratish;
- afzalliklarni belgilash jarayonini intuitiv va tezkor qilish;
- mijoz imtiyozlaridagi o'zgarishlarga moslashuvchan javob berish;
- barcha bo'limlar o'rtasida mijozlar haqidagi ma'lumotlarni integratsiyalash.

Mazkur strategiya iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur tushunishga asoslanadi. Afzalliklar va xatti-harakatlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam yig'ish, tahlil qilish va ularga operativ javob

berish daromad va mijoz sadoqatini oshiradi. Bunda faqat raqamli ma'lumotlar emas, balki mijozlar bilan bevosita muloqot, suhbatlar, fikr-mulohazalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish faqatgina ularning bildirgan talablariga javob berish emas balki, zamonaviy marketingda mijoz ehtiyojlarini oldindan bilish va prognoz qilish, ularga javob berish kabi muhim ahamiyatga ega. Xarid jarayonidan avval mijozning afzalliklarini aniqlash va tushunish tashkilotga yanada sifatli xizmat ko'rsatish va yuqori darajadagi mijoz tajribasini yaratish imkonini beradi.

Ko'plab mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohaslarida mijozlarning avvalgi tashriflari asosida ularning yoqtirishlari, yoqtirmasliklari va muntazam so'rovlari qayd etilib boriladi. Masalan, restoranda ofitsiant doimiy mijozni tanirdi va odatda qaysi buyurtmani xohlashi haqida so'raydi; chakana savdo do'konida sotuvchi mijozga uning sevimli mahsulotlari sotuvga qo'yilgani haqida xabar beradi; sayyohlik agentliklari esa mijozning qaysi mehmonxonani, qaysi aviakompaniyani va samolyotda o'tirish joyini afzal ko'rishini oldindan biladi. Bu holatlar korxonalar mijozlarning afzalliklarini muntazam kuzatib borayotganini ko'rsatadi.

Mijoz afzalliklari sotuv jarayoniga bevosita ta'sir qilishini inobatga olgan holda, korxonalar bu jarayonni mijozlarga xizmat ko'rsatishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rishlari lozim. Mijozning yoqtirishlari, yoqtirmasliklari va maxsus so'rovlariga moslashish ularning ehtiyojlariga mos xizmatni taqdim etishga yordam beradi. Mijoz afzalliklariga moslashuv — mijozga o'zi xohlagan narsani, o'zi xohlagan shaklda taqdim etish orqali biznes jarayonlarini soddalashtirish va "mijozlarni hayratlantirish" strategiyasini amalga oshirishdir.


Iste'molchilarning mahsulotni tanlashdagi afzalliklari ko'pincha o'zlari anglamagan omillarga tayanadi. Korxonalar uchun esa bu jarayon alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Narx va mavjudlikdan tashqari, iste'molchi xohish-istaklarini bilish mahsulotni sotish ehtimolini hamda sotish hajmini prognoz qilish imkonini beradi. Afzalliklar mahsulotdan mahsulotga farq qiladi va mahsulotning har bir tarkibiy qismi bu afzalliklarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iste'molchi afzalliklarini aniqlashning keng qo'llaniladigan usullaridan biri bu — iste'molchilar panelini yaratishdir. Panel, odatda, demografik mezonlar asosida shakllantiriladi va kompaniyaning o'zi yoki bozor tadqiqotiga ixtisoslashgan tashkilot tomonidan boshqariladi.

Shuningdek, korxonalar boshqa turdagi afzalliklarning biznesga ta'sirini ham o'rganishi zarur. Masalan, mijozlar ko'pincha sekin yetkazib berishdan ko'ra tez yetkazib berilishini, qo'shimcha to'lovsiz bepul yetkazib berishni afzal ko'rishadi. Bu jarayon mijoz xatti-harakati, ularning ehtiyojlari va bozordagi raqobat sharoitiga mos xizmat ko'rsatish strategiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Har qanday tashkilot raqobatbardosh kuchlarning beshta tarkibiy qismi tomonidan bosim ostida bo'ladi, ya'ni mavjud tashkilotlar o'rtasidagi raqobat, yangi raqobatchilar tahdidi, yetkazib beruvchilarning xarid qobiliyati, iste'molchilarning xarid qobiliyati va mahsulot o'rnini bosuvchi mahsulotlar tahdidi. Bu model M.Porter tomonidan (1980) taklif qilingan va hozirda rivojlantirib borilmoqda (1-rasm). Ushbu beshta kuchdan kelib chiqadigan tahdidni tahlil qilib, menejerlar ularning har biri atrofida strategiya ishlab chiqishi mumkin.

Raqobat tahdidlarining tarkibini ko'rib chiqamiz. Barcha firmalar yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish va o'z brendlarni ishlab chiqish va o'z mijozlariga xarajatlarini o'zgartirish orqali ularni jalb qilishga harakat qilib, doimiy ravishda yangi, yanada samarali ishlab chiqarish usullarini ishlab chiqayotgan boshqa raqobatchilar bilan bozor maydonini baham ko'rishadi.



1-rasm. M.Porterning raqobatchi kuchlar modeli

Bozorga yangi ishtirokchilarning kirib kelishi raqobat muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mobil ishchi kuchi va yetarli moliyaviy resurslarga ega erkin iqtisodiyot sharoitida bozorga yangi kompaniyalar doimiy ravishda kirib keladi. Ba'zi sanoatlarda kirish to'siqlari past (masalan, pitsa yoki kichik chakana savdo biznesi), boshqa sohalarda esa (kompyuter chiplarini ishlab chiqarish kabi) yuqori kapital va murakkab texnologik talablar sababli kirish ancha qiyin bo'ladi. Yangi ishtirokchilar innovatsion g'oyalar, moslashuvchan ishchi kuchi va brend tarixining yo'qligi kabi afzalliklarga ega bo'lsalar-da, ularda tajriba yetishmasligi, yuqori moliyaviy ehtiyojlar va past brend tan olinishi kabi zaifliklar ham mavjud.

Mahsulot va xizmatlarning o'rnini bosuvchilar sonining ko'pligi ham narxlar nazoratini pasaytiradi. Texnologik rivojlanish natijasida deyarli barcha sohalarda muqobil variantlar paydo bo'lmoqda: benzin o'rnida etanol, dizel o'rnida o'simlik moyi, an'anaviy elektr energiyasi o'rnida quyosh va shamol energiyasi, klassik telefoniya o'rnida Internet-aloqa, raqamli yuklab olish o'rnida musiqa oqim xizmatlari va hokazo.

Shundan kelib chiqib, korxonalarni raqamlashtirish quyidagi natijalarni beradi:

- raqamli iqtisodiyot an'anaviy sohalarni transformatsiya qiladi va yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi;

- mijozga yo'naltirilgan yangi biznes-modellar paydo bo'ladi;
- katta ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash qiymat yaratishning asosiy manbaiga aylanadi;
- mijozlar haqidagi ma'lumotlar raqamli kompaniyalar uchun muhim aktiv bo'ladi;
- yangi mahsulotni bozorga chiqarish tezligi raqobatning asosiy mezoniga aylanadi;
- raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini optimallashtirish va qaror qabul qilish sifatini sezilarli oshiradi.


Mijozlarning bozordagi ta'siri ham kuchli bo'lishi mumkin. Agar ular raqobatchi mahsulotlarga oson o'ta olsalar yoki narxlarning shaffofligi yuqori bo'lsa, kompaniya yuqori narx belgilash imkoniyatini yo'qotadi. Masalan, onlayn darsliklar bozorida talabalarda bir nechta sotuvchilarni solishtirish imkoniyati mavjud bo'lgani uchun ular katta tanlash kuchiga ega.

Yetkazib beruvchilarning bozor qudrati ham kompaniya daromadlariga ta'sir ko'rsatadi. Agar firma bir nechta yetkazib beruvchiga ega bo'lsa, narx, sifat va yetkazib berish jadvali bo'yicha ko'proq nazoratga ega bo'ladi. Masalan, noutbuk ishlab chiqaruvchilar ko'plab komponentlar bo'yicha bir necha yetkazib beruvchilar bilan ishlaydi.

Raqobat ustunligini tushunishda mahsulot tannarxi va qiymati muhim ahamiyatga ega. Qiymat — iste'molchining mahsulot uchun to'lashga tayyor bo'lgan miqdori, tannarx esa uni ishlab chiqarish

xarajatlari. Agar narx tannarxdan yuqori bo'lsa, kompaniya foyda oladi. Shunday qilib, tashkilotning uzoq muddatli strategiyasi iste'molchi uchun qiymati ishlab chiqarish xarajatlaridan yuqori bo'lgan mahsulotlar yaratishga qaratilishi lozim.

Keling, qiymatni baholash modelini batafsil ko'rib chiqaylik. Ushbu model sizga strategiyalarni qo'llash eng muvaffaqiyatli bo'lgan va axborot tizimlari yanada samarali ishlaydigan biznes sohalarini aniqlashga imkon beradi. Tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar nisbatan yuqori qiymatga ega ekanligini hamma biladi. Darhaqiqat, tayyor mashinaning narxi uning tarkibiy qismlariga qaraganda ancha yuqori. Nima tufayli tayyor mahsulotning qiymati oshadi? Ishlab chiqarish jarayoni xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantiradigan bir qator bosqichlardan iborat. M. Porter modeli ushbu barcha bosqichlarda tashkilotda chiqish mahsulotining qiymatini qanday oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Tashkilotdagi barcha biznes-jarayonlarini asosiy va ta'minlovchilarga bo'lish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Qiymatni oshirish zanjiri¹

Tashkilotning asosiy faoliyati uning tovar va xizmatlarini yaratish, tarqatish va mijozlarga yetkazish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar kiruvchi logistika, ishlab chiqarish, chiquvchi logistika, marketing va sotish hamda servis xizmatlaridan iborat. Kiruvchi logistika xom ashyo va komponentlarni qabul qilish va saqlashni, ishlab chiqarish esa ularni tayyor mahsulotga

¹ Muallif ishlanmasi

aylantirishni ta'minlaydi. Chiquvchi logistika tayyor mahsulotlarni saqlash va tarqatishga xizmat qiladi. Marketing va sotish faoliyatlari mahsulotni bozorga chiqarish va iste'molchiga yetkazishni, servis esa sotilgan mahsulotlarni qo'llab-quvvatlash va ta'mirlashni o'z ichiga oladi.

Qo'llab-quvvatlovchi jarayonlar esa asosiy faoliyatni ta'minlaydi; ularga tashkiliy boshqaruv, mehnat resurslarini rivojlantirish, texnologik innovatsiyalar va xom ashyo hamda butlovchi qismlarni xarid qilish kiradi.

Portnering qiymat zanjiri konsepsiyasiga ko'ra, barcha jarayonlar iste'molchi uchun mahsulot qiymatini oshirishga xizmat qilishi lozim. Bu yuqori sifat, past tannarx va mahsulotning o'ziga xosligi bilan namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonlarda axborot tizimlari samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash orqali muhim rol o'ynaydi.

Korxonaning asosiy faoliyat turlari: mahsulotni qayta ishlash, ishlab chiqarish, sotish, yetkazib berish va texnik xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lib, ular uchun samaradorlik mezonlari mos ravishda qayta ishlash aniqligi, ishlab chiqarish samaradorligi, sotuv jarayonida mijozni jalb qilish darajasi va xizmat ko'rsatish tezligidir.

Ushbu jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda strategik axborot tizimlaridan keng foydalaniladi. Asosiy faoliyatlar uchun saqlashning avtomatlashtirilgan tizimlari, kompyuter boshqaruvidagi ishlab chiqarish tizimlari, buyurtmalarni shakllantirish tizimlari, uskunalarga xizmat ko'rsatish modullari va yetkazib berishni rejalashtirish tizimlari qo'llaniladi. Qo'llab-quvvatlovchi faoliyatlar uchun esa elektron rejalashtirish va xabar almashish tizimlari, ish oqimini boshqarish tizimlari, kompyuter yordamida loyihalash tizimlari hamda xaridlarni avtomatlashtirish tizimlaridan foydalaniladi.

Xulosa va atkliflar. Shunday qilib, korxonani boshqarish uchun ATlari va AKTdan keng foydalanish har qanday kompaniyani bozor sharoitidagi o'zgarishlarga boshqarish va moslashuvchanligini oshirish orqali yanada raqobatbardosh qiladi. Bunday avtomatlashtirish quyidagilarga imkon beradi:

- menejerlar va mutaxassislarni yagona ma'lumotlar banki asosida iloji boricha to'liq, tezkor va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali kompaniyani boshqarish samaradorligini oshirish;
- ish oqimini optimallashtirish va standartlashtirish, uning eng ko'p vaqt talab qiladigan protseduralarini avtomatlashtirish orqali ish yuritishni yaxshilash;
- axborotlarni qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish, kompaniya xodimlarining kerakli ma'lumotlarga kirishini tartibga solish va soddalashtirish orqali ishlarni bajarish xarajatlarini kamaytirish. Xodimlarning mehnat xususiyatlarini o'zgartirish, ularni odatdagi ishlarni bajarishdan xalos qilish va kasbiy muhim vazifalarga e'tibor qaratish imkoniyatini berish;
- boshqaruvning barcha darajalarida pul tushumlari va xarajatlarini ishonchli hisobga olish va nazorat qilishni ta'minlash;
- o'rta va quyi bo'g'inlarning rahbarlari o'z bo'linmalarining faoliyatini tahlil qilib, rahbariyat va tegishli bo'limlar uchun tezkor va tahliliy hisobotlarni tayyorlash;
- alohida bo'linmalar, filiallar va markaziy apparat o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi samaradorligini oshirish;
- axborotlarni qayta ishlashning barcha bosqichlarida ma'lumotlarning to'liq xavfsizligi va yaxlitligini ta'minlash.

AKTlari ta'sirida yuzaga keladigan o'zgarishlar shu qadar keng tarqalganki, tabiiy savol tug'iladi: "aslida nima bo'lyapti?". Shubhasiz, AKTlari o'zining barcha inqilobiyligi bilan ishlab chiqarish jarayonlarini bekor qilmadi, raqobatchilarni yo'q qilmadi va qaror qabul qilish huquqini odam-dan tortib olmadi. Boshqaruv ob'ekti – kompaniya virtual bo'lib qolgan bo'lsa ham, tashqi muhit mavjud bo'lib, hatto ko'paygan bo'lsa ham, zaif tuzilgan vazifalarga yechim topish zarurati

saqlanib qoldi. Aksincha, biz axborot asridagi barcha jarayonlarning kuchayishi haqida gapirishimiz mumkin. Kompaniyani boshqarishda uskunalar to'plami o'zgardi, ammo u shu qadar o'zgardiki, u menejerlar bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarga, ya'ni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishga ta'sir qildi.

Mahsulot qiymatini oshirish zanjiri tashkilot ichida sodir bo'layotgan jarayonlarni tavsiflaydi. Korxonada izolyatsiya qilingan muhitda yashay olmaydi. U yetkazib beruvchilar yoki iste'molchilar bo'lgan boshqa tashkilotlar bilan doimiy ravishda o'zaro aloqada harakatlanadi. Ushbu korxonalar har biri qiymat haqida o'z tushunchasiga ega. Shunday qilib, yetkazib beruvchi va iste'molchi zanjiri olinadi. Ushbu ikkita zanjirning birlashishi natijasida qiymat daraxti hosil bo'ladi. Raqobat jarayonida ko'plab tashkilotlar AKTlari va tizimlaridan yordamchi vosita sifatida foydalanadilar.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilgan iqtisodiy instrumentlarni samarali qo'llashning muhim natijasi korxonaning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga aylandi. Bu esa korxonada muvaffaqiyati uchun muhim bo'lgan omillar haqida ma'lumotlarni o'z vaqtida olishni ta'minlaydigan to'g'ridan-to'g'ri raqamli aloqa texnologiyasini joriy qilish orqali amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish ma'lumotlarini korxonada va uning alohida elementlari iqtisodiy holati haqidagi bilimga tezkor aylantirish ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Raqamli iqtisodiyot hamkorlar va mijozlar bilan munosabatlarni o'zgartirib, yangi o'zaro hamkorlik usullarini taklif qiladi va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda biznes-jarayonni nazorat qilishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abrashkin M.S. Vliyanie sifrovoy ekonomiki na razvitie promyshlennosti RF/ M. S. Abrashkin, A.A. Vershinin//Voprosy regionalnoy ekonomiki. – 2018. – № 1. – S. 3-9.
2. Begalov B.A., Abdullaev M.Q. Raqamli iqtisodiyot: darslik / B.A. Begalov, M.Q. Abdullaev. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. - 364 b.
3. Begalov B.A., Jukovskaya I.Ye. Metodologicheskie osnovy vliyaniya informatsionno-kommunikatsionnykh texnologiy na razvitie nacionalnoy ekonomiki. Monografiya. Tashkent, "Iqtisodiyot". 2018. – 178 s.
4. Begalov B.A., Dadabaeva R.A. "Raqamli strategiya va axborot tizimlari" / Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2024. – 248 b.
5. Vayl P. sifrovaya transformatsiya biznesa. Izmenenie biznes – modeli dlya organizatsii novogo pokoleniya/P. Vayl, S.Vorner.–M.: Alpina Biznes Buks, 2019. – 201 s.
6. Golovenchik G.G. sifrovaya mirovaya ekonomika [Elektronnyy resurs]: elektron. ucheb.-metod. kompleks / G.G. Golovenchik. – Minsk: BGU, 2021.
7. Lapidus L.V. sifrovaya ekonomika: Uchebnoe posobie dlya bakalavrov i magistrorov po napravleniyam «Ekonomika» i «Menejment». – M.: RUT, 2018. - 42 s.
8. Begalov B.A., Mamadaliyev O.T., Abdusalomova N.B. The Effect Of Eco-nomic Sectors And Regions In Gross Domestic Product In Uzbekistan. Journal of Positive School Psychology 2022, Vol. 6, No. 6, 2249-2263
9. Begalov B.A., Zhukovsky A. D. High-Tech Companies are the Driver of Regional Economic Development. Advances in Economics, Business and Management Research, volume 195. Proceedings of the Second Conference on Sustainable Development: Industrial Future of Territories (IFT 2021). P. 496-500.

Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich

iqtisod fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti direktorining birinchi o‘rinbosari

e-mail: pulatovdilshod56@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7430-3608

Nurmuxamedova Barno Ismailovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasida, dotsenti

e-mail: b.nurmukhamedova@tsue.uz

ORCID: 0009-0001-4396-3718

GLOBAL IQTISODIYOTDA MARKAZIY BANKLAR RAQAMLI VALYUTASI (CBDC – CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Пулатов Дилшод Хакбердиевич

доктор экономических наук, проф., первый заместитель директора Института бюджетно-налоговых научных исследований при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан

e-mail: pulatovdilshod56@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7430-3608

Нурмухамедова Барно Исмаиловна

Ташкентский государственный экономический университет кафедра “Финансы и финансовые технологии”, доцент

e-mail: b.nurmukhamedova@tsue.uz

ORCID: 0009-0001-4396-3718

ЦИФРОВЫЕ ВАЛЮТЫ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ (CBDC – CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY) В ГЛОБАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: СТАНОВЛЕНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ

Pulatov Dilshod Xaqberdievich

Doctor of Economics, Professor, First Deputy Director of the Institute of Budgetary and Tax Research under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan

e-mail: pulatovdilshod56@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7430-3608

Nurmukhamedova Barno Ismailovna

Tashkent State University of Economics department “Finance and financial technology”, associate professor e-mail: b.nurmukhamedova@tsue.uz

ORCID: 0009-0001-4396-3718

**CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY (CBDC) IN THE GLOBAL ECONOMY:
EMERGENCE AND DEVELOPMENT TRENDS**

Annotatsiya. Maqolada markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC), ularning paydo bo'lishi va global iqtisodiyotdagi hozirgi rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Ularni joriy etishning asosiy omillariga, jumladan, naqd pulsiz to'lovlarning o'sishi, pul oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirish zarurati va moliyaviy xavfsizlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. CBDC keng qo'llanilayotgan yoki tajribadan o'tayotgan mamlakatlar, jumladan, yetakchi iqtisodiyotlar va rivojlanayotgan bozorlar misollari keltirilgan. Raqamli valyutalarning potensial afzalliklari va xavflari, ularning pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi va xalqaro hisob-kitoblarga ta'siri baholanadi, tartibga solish, maxfiylik va kiberxavfsizlik jihatlari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Markaziy bankning raqamli valyutalari, CBDC, pul-kredit siyosati, naqd pulsiz to'lovlar, bank tizimi, xalqaro hisob-kitoblar, kiberxavfsizlik, tartibga solish, iqtisodiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В статье рассматриваются цифровые валюты центральных банков (CBDC), их появление и текущее развитие в мировой экономике. Особое внимание уделено причинам их внедрения, таким как рост безналичных платежей, необходимость повышения контроля над денежными потоками и укрепления финансовой безопасности. Приводятся примеры стран, где CBDC уже используются или проходят этап тестирования, включая ведущие экономики и развивающиеся рынки. Оцениваются потенциальные выгоды и риски цифровых валют, их влияние на денежно-кредитную политику, финансовую стабильность, банковскую систему и международные расчеты. Также обсуждаются аспекты регулирования, конфиденциальности и кибербезопасности.

Ключевые слова: цифровые валюты центральных банков, CBDC, денежно-кредитная политика, безналичные платежи, банковская система, международные расчеты, кибербезопасность, регулирование, экономическое развитие, цифровая экономика.

Abstract. The article discusses the digital currencies of central banks (CBDC), their appearance and current development in the global economy. Special attention is paid to the reasons for their implementation, such as the growth of non-cash payments, the need to increase control over cash flows and strengthen financial security. Examples are given of countries where CBDC is already in use or undergoing testing, including leading economies and emerging markets. The potential benefits and risks of digital currencies, their impact on monetary policy, financial stability, the banking system and international settlements are assessed. Regulatory, privacy, and cybersecurity aspects are also discussed.

Key words: digital currencies of central banks, CBDC, monetary policy, financial stability, non-cash payments, banking system, international settlements, cybersecurity, regulation, economic development, digital economy.

Kirish

Avvalo, CBDC nima? degan savolga oydinlik kiritaylik. CBDC – (inglizcha *Central Bank Digital Currency*) mamlakatning markaziy banki tomonidan emissiya qilinadigan va pul-kredit siyosatini tartibga solish maqsadida yaratilgan raqamli valyuta. Zamonaviy CBDC konsepsiyasi qisman bitkoin yoki boshqa kriptovalyutalardan ilhomlangan bo'lishi mumkin, biroq CBDCning boshqa kriptovalyutalardan asosiy farqi shundaki, u bevosita davlat tomonidan chiqariladi. Shuningdek, CBDC kriptovalyutalarga hos bo'lgan nomarkazlashganlik xususiyatiga ham ega emas.

Markaziy bankning raqamli valyutasi kriptovalyuta emas, lekin uning ayrim jihatlarini o'zida mujassam qilgan.

CBDCning yaratilish tarixi 2010-yillarning boshida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, naqd pulsiz to'lovlar hajmining ortishi hamda bitkoin kabi kriptovalyutalarning ommalashuvi sharoitida shakllana boshladi. CBDCni yaratishga oid dastlabki qadamlar turli davlatlar markaziy banklarining raqamli valyutalardan to'lov tizimlarining samaradorligini oshirish va pul oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlarini o'rganishlari bilan bog'liq bo'ldi.

Dunyo bo'ylab jadal rivojlanib borayotgan Markaziy bank raqamli valyutalarini joriy etish jarayonlari mamlakatlar pul-kredit va to'lov tizimlari barqarorligi va moliyaviy inklyuziya (aholining moliyaviy xizmatlardan keng foydalanish imkoniyatini oshirish)ga ta'siri ortib bormoqda.

O'zbekiston ham ko'pchilik davlatlarning markaziy banklari kabi raqamli valyutalar borasida o'rganish ishlarini olib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan CBDC chiqarish yoki tijorat banklariga pul bilan ta'minlangan steyblkoinlarni chiqarishga ruxsat berish masalasi ko'rib chiqilayotganligi ushbu jarayon mamlakatimiz uchun ham dolzarb ekanligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot markaziy banklar raqamli valyutasining (CBDC) shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning global iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, nazariy tahlil usuli orqali CBDC tushunchasining ilmiy asoslari va ularning joriy etilish omillari o'rganildi. Taqqoslama tahlil metodi yordamida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda CBDC joriy etish tajribalari solishtirildi hamda ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida raqamli valyutalarning pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi va xalqaro hisob-kitoblarga ta'siri kompleks ravishda baholandi.

Tadqiqotda, shuningdek, induksiya va deduksiya usullari qo'llanilib, empirik kuzatuvlar va nazariy xulosalar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik ta'minlandi. Axborot manbalari sifatida xalqaro moliyaviy institutlar, markaziy banklar va ilmiy nashrlarning rasmiy ma'lumotlari hamda tahliliy hisobotlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida CBDCning afzalliklari va xavf-xatarlari, shuningdek, ularni tartibga solish, maxfiylik va kiberxavfsizlik bilan bog'liq masalalar ilmiy jihatdan tahlil qilindi.


Tahlil va natijalar

CBDC yaratish bo'yicha loyihalar naqd pulsiz to'lovlar ulushining ortishi hamda moliyaviy tizimlarni modernizatsiya qilish zarurati bilan bog'liq holda sezilarli taraqqiyotga erishdi. Mohiyati jihatdan, CBDC pul evolyutsiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, pul oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirish, tranzaksiyalar tezligini oshirish va ularni qayta ishlash xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan. 2020-yillarda ushbu turdagi raqamli valyutalarga qiziqish izchil ortib bormoqda, bu esa kelajakda global moliyaviy tizimning sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

CBDCni joriy qilish bo'yicha umumiy konsepsiya shundan iboratki, CBDC Markaziy bank tomonidan boshqariladigan hamda bank tizimidagi boshqa tijorat banklari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan platformadir. Biz odatlangan bank tizimi tuzilmasidan farqli ravishda, CBDCni yuritish uchun tijorat banklariga qo'shimcha infratuzilma talab qilinmaydi – bu vazifani Markaziy bankning o'zi bajaradi. Tijorat banklari zimmasida faqat o'z mobil ilovasini qo'llab-quvvatlash funksiyasi

qoladi. Fuqaroda esa faqat bitta akkaunt (hisob) bo'ladi, bu uni ma'lum bir bank platformasiga bog'liq bo'lib qolishidan xalos etadi.

Quyida zamonaviy bank tizimining CBDC bank tizimidan farqlovchi chizma keltirilgan:



1-rasm. An'anaviy va CBDS-bank tizimlarining farqlari

CBDCni tartibga solish va uning xavfsizlik mexanizmlari haqida so'z borar ekan, shuni ta'kidlash joizki, markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) to'liq davlat nazorati ostida bo'lib, bu holat pul-kredit siyosatini tartibga solishning yangi mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlar quyidagilardan iborat:

1. *Raqamli valyutadan foydalanish sohasini chegaralash imkoniyati.* Masalan, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida mahalliy byudjetga istirohat bog'ini ta'mirlash uchun 2 mlrd so'm yo'naltirilgan taqdirda, ushbu mablag'larni shaxsiy hisobraqamlariga o'tkazish imkoni bo'lmaydi – tizim bunday tranzaksiyani avtomatik ravishda rad etadi. Bu mablag'larning manzilli sarflanishini ta'minlaydi.

2. *Bank tizimidagi valyuta hajmini to'liq nazorat qilish.* CBDC Markaziy bankka iqtisodiy jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, pul massasini tezkor boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yanada samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. *Foydalanuvchilarning shaxsiy smart-kontraktlar yaratish imkoniyati.* Bu shaxsiy mablag'lardan foydalanish shartlarini oldindan belgilashga imkon beradi. Masalan, ona o'z farzandiga kundalik ovqatlanish uchun 50-100 ming so'm ajratishi mumkin, biroq turli ko'ngilochar xizmatlar (kompyuter o'yinlari, turli totalizatorlar) bo'yicha tranzaksiyalarni bloklab qo'yish orqali ushbu mablag'ning maqsaddan tashqari sarflanishiga yo'l qo'ymaydi.

Bugungi kunda ushbu murakkab iqtisodiy va axborot muhitida raqamli valyuta infratuzilmasining ishonchligini ta'minlash raqamli valyutani joriy etgan mamlakatlar markaziy banklari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu maqsadda CBDC tizimida bir qator institutsional va texnologik xavfsizlik choralaridan foydalaniladi:

Tranzaksiyalarning Markaziy bank tomonidan tasdiqlanishi. Har bir operatsiya Markaziy bankning verifikatsiya mexanizmlaridan o'tadi. Bu tranzaksiyaning haqiqiyligini, subyektlarning identifikatsiyasini va mablag'larning qonuniy aylanishini ta'minlaydi.

Tasdiqlangan tranzaksiyalarning blokcheynga kiritilishi. CBDC arxitekturasi tranzaksiyalarni o'zgartirilmaydigan (immutable) bloklarga joylashtirish orqali ularning yaxlitligi va shaffofligini kafolatlaydi. Blokcheynga kiritilgan ma'lumotlar izchil tarzda saqlanadi va ular ustida retroaktiv o'zgarishlar kiritish imkoni mavjud emas.

Tranzaksiyalar zanjirining markazlashtirilgan boshqaruvi. CBDC tizimi Markaziy bank tomonidan to'liq nazoratda bo'lgan markazlashgan reyestruga asoslanadi. Bu tashqi kiberxavflarga, ruxsatsiz kirishlarga va tizimdagi buzilishlarga qarshi yuqori darajadagi axborot xavfsizligi choralari qo'llash imkonini beradi.

Blokcheyning texnologik xususiyatlariga asoslangan qo'shimcha himoya. Blokcheyning o'zi tranzaksiyalarni qalbakilashtirish, o'chirish yoki tahrirlash imkoniyatini deyarli yo'qqa chiqaradi. Konsensus algoritmlari, kriptografik himoya vositalari va audit izlari tizimning barqarorligini mustahkamlaydi.

Mazkur mexanizmlar CBDC infratuzilmasining ishonchliligini oshirish bilan birga, mamlakat miqyosida moliyaviy barqarorlik, axborot xavfsizligi va davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dunyo mamlakatlarida markaziy banklar raqamli valyutalarini joriy etish borasida muayyan tajriba mavjud. Hozirgi kunda qator davlatlarda markaziy banklarning raqamli valyuta loyihalari faol amalga oshirilmoqda. Bir qator mamlakatlar markaziy banklar raqamli valyutalarini joriy etish sohasidagi sinov loyihalardan amaliyotda real joriy etish bosqichiga o'tgan. 2022-yilga kelib Yevro hududi davlatlari, Buyuk Britaniya va Shvetsiyani ham o'z ichiga olgan 80 dan ortiq mamlakatlar milliy CBDC joriy etish imkoniyatlarini faol o'rgana boshladi.

CBDCni ishlab chiqishda yetakchi davlatlardan biri sifatida Xitoyni ko'rsatish mumkin. 2020-yilda Xitoy raqamli yuan (e-CNY) ni tajriba-sinovdan o'tkazishni boshladi. Bu dunyodagi eng yirik CBDC loyihalaridan biri hisoblanadi. "e-CNY" – Xitoy Xalq Respublikasi markaziy banking raqamli valyutasi. Bugungi kunda Xitoyda davlat xizmatchilarining ish haqlarini to'lash jarayonida e-CNYdan foydalanilmoqda. Ushbu raqamli valyuta Xitoydagi yirik xizmat ko'rsatish platformalari bilan keng integratsiya qilingan bo'lib, oddiy fuqarolar orasida ham keng qo'llanilmoqda. Shunga qaramay, e-CNY hali mamlakat bo'ylab to'liq joriy etilmagan bo'lib, hozircha kengaytirilgan pilot bosqichida turibdi.

Yevropa davlatlaridan Shveysariyani ko'radigan bo'lsak, bu mamlakatda ulgurji CBDC (wholesale CBDC) tadqiqotlari bo'yicha yetakchi tajribalarni kuzatish mumkin. Shveysariya Milliy banki (Swiss National Bank) va Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements – BIS) innovatsiya markazi hamkorligida amalga oshirilayotgan "Helvetia loyihasi" (Project Helvetia) doirasida raqamli markaziy bank pullaridan foydalangan holda tokenlashtirilgan aktivlarni hisob-kitob qilish bo'yicha ikki bosqichli muvaffaqiyatli sinov o'tkazilgan. Uchinchi bosqichda esa chegaralar orqali o'zaro aloqadorlik (interoperabellik) va yirik to'lov amaliyotlarini tadqiq qilish rejalashtirilgan. Ushbu ulgurji CBDC raqamli valyutaning chakana modellaridan farq qiladi, chunki ular aholiga emas, balki moliya tashkilotlariga mo'ljallangan. Ular orqali taqsimlangan reyestr texnologiyasi (Distributed Ledger Technology – DLT) banklararo hisob-kitoblarda barqarorlik va samaradorlikni oshirishi isbotlanmoqda.

Rossiya Markaziy Banki tomonidan joriy etilayotgan CBDC loyihasi "Raqamli Rubl" deb nomlangan, unga birinchi bo'lib "VTB" banki ulangan. Loyihani tadqiq etish bo'yicha pilot bosqichida 13 ta bank ishtirok etgan, 2024-yilda yana 16 moliyaviy tashkilot tizimga ulandi.

"Raqamli Tenge" Qozog'iston Respublikasining CBDC loyihasi bo'lib, uni 2023-yilda muomalaga chiqarish rejalashtirilgan edi. 2023-yil 15-avgust kuni Qozog'iston Markaziy banki Oliy

auditorlik palatasi uchun raqamli teng loyahasining taqdimotini o'tkazgan. Qozog'iston Markaziy banki mamlakat moliya bozorida yangi bosqichni boshlab berdi, milliy valyutaga bog'langan yangi stejblkoin pilot loyihasi ishga tushirildi. Yangi raqamli vosita Evo (KZTE) deb nomlanib, u to'liq Qozog'iston milliy valyutasi – tengega bog'langan holda joriy etildi. Stejblkoinni mahalliy "Eurasian Bank" hamda Intebix kriptobirjasi chiqarmoqda, Solana blokcheyni esa asosiy texnologik poydevor sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Mastercard ham loyihani xalqaro stejblkoin emitentlari bilan bog'lash orqali uni kengroq moliyaviy tizimga integratsiya qilishni maqsad qilgan.

Qozog'istonning milliy stejblkoini kriptovalyutalar va an'anaviy bank tizimi o'rtasida ko'prik vazifasini bajarishi dozim. Evo stejblkoinidan foydalanish yo'nalishlari juda keng:

- kriptovalyuta va fiat pullar o'rtasidagi aloqani kuchaytirish;
- raqamli aktivlarni ayirboshlash operatsiyalarini yengillashtirish;
- kripto-kartalar orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish.

Loyiha mamlakatning raqamli aktivlar bozorini rivojlantirish strategiyasining muhim qismi sifatida ko'rilmogda. Bundan kutilayotgan maqsad – innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etish orqali milliy raqamli ekotizimni shakllantirish va Qozog'istonni global raqamli moliyada yetakchi o'yinchilardan biriga aylantirish.


Evo texnik jihatdan Intebix va "Eurasian Bank" tomonidan chiqarilsa-da, uning ishga tushirilishi hamda tartibga solish jarayoni to'liq Markaziy bank tomonidan ta'minlanmogda. Bu esa loyihaning shaffofligi va huquqiy asoslarini kafolatlaydi.

Yangi stejblkoin piloti nafaqat mamlakatda raqamli iqtisodiyot rivojini tezlashtiradi, balki mintaqadagi kripto-moliyaviy innovatsiyalarga yangi sur'at berishi mumkin.

2022-yil 1-dekabrda Hindiston Markaziy banki raqamli rupiyani — CBDC-R ni tadbiq etishni boshlagan. Mamlakatdagi eng yirik chakana savdo tarmoqlari e-Rupee qabul qilishni yo'lga qo'ygan.

Yevropa Ittifoqi. Dastlab 2024-yilda Yevropa Ittifoqida raqamli yevro bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinishi mumkinligi rejalashtirilgan edi. Biroq ushbu muddatdan avval – 2023-yil oktyabr oyida Yevropa Markaziy banki (YMB) 2023-yil 1-noyabrdan boshlab raqamli yevro tizimini sinovdan o'tkazish jarayoni boshlanishi va bu jarayon ikki yil davom etishini ma'lum qildi.

Dunyodagi deyarli barcha yirik markaziy banklar (taxminan 80 foizi) CBDCni tadqiq qilmoqda yoki sinovdan o'tkazmoqda, ularning yarmi esa bu borada ancha ilgari lab, tadbiq etish va keng qo'llash bosqichlariga kirgan. Bu boradagi har bir davlatning strategiyasi turlicha bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi raqamli valyutaning chakana va ulgurji modellarini bir vaqtning o'zida o'rganmogda. Bugungi kunda mazkur moliyaviy texnologiya bilan faol ishlayotgan mamlakatlar xaritasi quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda:



2-rasm. Markaziy banklarning raqamli valyutasi maqomi xaritasi

Xulosa va tavsiyalar

Markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) global moliyaviy tizimda muhim innovatsiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Ularning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish.

Biroq, ushbu imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf-xatarlar ham mavjud. Ma'lumotlarning maxfiyligi bilan bog'liq muammolar, moliyaviy barqarorlikka ehtimoliy tahdidlar va texnik infratuzilmaga bo'lgan yuqori talablar shular jumlasidandir.

CBDCni muvaffaqiyatli joriy etish ularning ijobiy ta'sirini maksimallashtirish va salbiy oqibatlarni minimallashtirish uchun muvozanatli, chuqur tahlil qilingan yondashuvni talab etadi.

CBDCning asosiy maqsadlari – narxlarning barqarorligi, pul-kredit siyosati ta'sirchanligini ta'minlash va ommaviy ishonchni mustahkamlashdan iborat. Shu bilan birga, CBDCning amal qilishi amaldagi inflyatsiyaga qarshi siyosatni (inflation targeting) yoki amaldagi to'lov tizimlari barqarorligini buzmasligi kerak. U naqd pul va tijorat banklari pullarini to'liq almashtirish emas, balki ularni to'ldiruvchi vosita bo'lish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, CBDC orqali markaziy bank likvidlikni va foiz stavkalari kanalini samarali nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida steyblkoinlarni chiqarish bo'yicha sinov loyihasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi bilan tashkil etiladigan tartibga solish qumdoni doirasida amalga oshirilishi belgilangan. Sinov natijalari asosida aholining raqamli valyutalarga talabi o'rganiladi. "Chunki raqamli valyutalar bo'yicha yuqori kutilmalar mavjud. Dunyo tajribasiga ko'ra, agar mamlakatda to'lov tizimi yaxshi rivojlangan bo'lsa, qo'shimcha to'lovlar ahamiyatga ega bo'lmay qolishi mumkin. Shuning uchun avval test o'tkazib, keyin amaliy natijasini ko'ramiz".

Markaziy bank o'z raqamli valyutasini chiqarish haqida o'ylashi kerak, chunki u aholi va biznesning chakana to'lovlari, Markaziy bank va banklar o'rtasidagi operatsiyalar hamda Markaziy bankning boshqa davlatlar bilan tranzaksiyalarida qo'llanilishi mumkin.

Mavzuni o'rganish asosida O'zbekistonda CBDCni joriy etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. *Institutsional-huquqiy bazani mustahkamlash.* O‘zbekiston CBDCni ishlab chiqish va joriy etishda dastlab huquqiy infratuzilmani modernizatsiya qilishi zarur, jumladan:

- raqamli valyutaning maqomi va huquqiy statusini aniq belgilash,
- Markaziy bank vakolatlarini kengaytirish,
- smart-kontraktlar, raqamli identifikatsiya va data-xavfsizlik bo‘yicha me‘yoriy normalarni ishlab chiqish.

BRICS va Yevropa Ittifoqi tajribasidan kelib chiqib, huquqiy asoslarni oldindan shakllantirish loyiha samaradorligini oshiradi.

2. *CBDCni joriy etish bo‘yicha Pilot loyihani bosqichma-bosqich joriy etish.* Raqamli valyuta katta ko‘lamdagi moliyaviy innovatsiya bo‘lgani uchun uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri umummilliy darajada tatbiq etish xavf-xatarlarni kuchaytirishi mumkin. Shu sabab, dastlab davlat xizmatlari to‘lovlarida, keyin banklararo hisob-kitoblarda, so‘ngra cheklangan miqyosdagi aholi segmentlarida pilot tajribalarni o‘tkazish tavsiya etiladi.

Rossiya, Xitoy va Hindistonning pilot tajribasi shundan dalolat beradiki, bosqichma-bosqich yo‘llanish CBDCning xavfsiz va barqaror joriy etilishini ta‘minlaydi.

3. *Banklar va fintex-kompaniyalar bilan chuqur integratsiya.* O‘zbekistonning moliya bozori oxirgi yillarda faol raqamlashtirilmoqda. CBDC samarali ishlashi uchun tijorat banklari, to‘lov tizimlari, fintex xizmatlari bilan texnik integratsiya zarur. Xitoy tajribasi ko‘rsatganidek, keng platformaviy integratsiya raqamli valyutaning aholiga tez kirib borishini ta‘minlaydi.

4. *Axborot xavfsizligi va maxfiylik mexanizmlarini kuchaytirish.* CBDC joriy etilishi bilan ma‘lumotlar oqimi keskin ortadi. Shu sabab:

- blokcheyn asosidagi markazlashtirilgan reyestrni muhofaza qilish;
- maxfiylikni ta‘minlash bo‘yicha kuchaytirilgan kriptografik mexanizmlar;
- cyber-xavfsizlikning uch pog‘onali tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Rossiya va Yevropa Ittifoqi shu masalalarni eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘ygan.

5. *Aholi va biznes uchun CBDCning afzalliklarini targ‘ib qilish.* Yangi moliyaviy texnologiya joriy etilishida aholining ishonchi muhim rol o‘ynaydi. Shu bois: oddiy va tushunarli axborot kampaniyalari, namoishga mo‘ljallangan platformalar, bank xizmatlari markazlarida amaliy ko‘rsatmalar berib boorish muhim ahamiyatga ega. CBDC bo‘yicha savodxonlik yuqori bo‘lsa, tizimning qabul qilinishi ham tezlashadi.

6. *Transchegaraviy to‘lovlar bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish.* O‘zbekiston tashqi savdo jarayonida Xitoy, Rossiya va Qozog‘iston bilan faol hamkorlik qiladi. Shu munosabat bilan BRICS yoki Yevroosiyo platformalari kabi CBDC asosidagi transchegaraviy to‘lov yo‘nalishlari, Markaziy Osiyo davlatlari uchun yagona blokcheyn-to‘lov mexanizmi O‘zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bu tashqi savdo xarajatlarini kamaytirib, tezkorlikni oshiradi.

Umuman olganda, markaziy bank raqamli valyutalarini joriy etish global moliyaviy tizimda sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab bermoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, CBDC:

- to‘lov infratuzilmasining samaradorligini oshiradi;
- tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi;
- pul-kredit siyosatining manevr imkoniyatlarini kengaytiradi;
- budjet operatsiyalarini shaffoflashtiradi va raqamlashtiradi;
- moliyaviy inklyuzivlikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, maxfiylik, texnik xatarlar, bank tizimi barqarorligi va kiber-xavfsizlik bilan bog‘liq risklar mavjud bo‘lib, ularni boshqarish puxta tahlil va to‘g‘ri strategiyani talab qiladi.

O‘zbekiston uchun CBDCni joriy etish nafaqat ichki moliyaviy tizimni modernizatsiya qiladi, balki mintaqaviy va xalqaro to‘lov integratsiyasidagi o‘rnini mustahkamlaydi. Muvozanatli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan yondashuv CBDCning mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ijobiy hissa qo‘shishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Термины, общая история, события [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki/Цифровая_валюта_центрального_банка.
2. Информация о «Цифровом Рубле»: сайт банка ВТБ [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.vtb.ru/articles/finansovaya-gramotnost/chto-takoe-cifrovoy-rubl/>.
3. Сегодняшний статус цифровых валют Центрального Банка [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://cbdctracker.org/>.
4. Диаграмма банка международных расчётов [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.bis.org/index.htm/>.
5. Информация о цифровом рубле [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.cbr.ru/fintech/dr/>.
6. БРИКС в сфере CBDC [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://digitalbankbrics.com/home-ru/home-default/sozдание-cbdc>.
7. O‘zbekistonda steyblkoinlar sinov tartibida joriy etilishi mumkin. [Электронный ресурс] – Режим доступа: O‘zbekistonda steyblkoinlar sinov tartibida joriy etilishi mumkin – Timur Ishmetov – Spot.
8. Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug‘ova Maftunabonu To‘lqinovna. Rasmiy rivojlanish yordami (official development assistance, oda) orqali O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) tizimini takomillashtirish. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT 2025-yil, dekabr. № 12-son. 24-bet. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=9026156213652527646&btnI=1&hl=ru>
9. Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxharova. XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO‘YICHA INTERAKTIV MA’LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT 2025-yil, dekabr. № 12-son. 989-bet. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=10467001680098841808&btnI=1&hl=ru>
10. Pulatov, Dilshod. ISSUES IN DEVELOPMENT OF STATE FINANCIAL CONTROL IN UZBEKISTAN. Perspectives of Innovations, Economics & Business, Volume 2, 2009 www.pieb.cz. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=12705978966325535035&btnI=1&hl=ru>

Mamajonov Akramjon Turg'unovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini mudiri. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. ORCID 0000-0002-7092-9873. mat69@mail.ru

O'ZBEKISTON SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING ZARURIYATI VA USLUBIY ASOSLARI

Мамажонов Акрамжон Тургунович кандидат экономических наук, профессор, заведующий кафедрой «Бухгалтерский учет и аудит». Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий. ORCID 0000-0002-7092-9873. mat69@mail.ru

НЕОБХОДИМОСТЬ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Mamajonov Akramjon Turgunovich – *Doctor of Philosophy in Economics, Associate Professor, Head of the Department "Accounting and Auditing". Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. ORCID 0000-0002-7092-9873 mat69@mail.ru*

THE NECESSITY AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FINANCIAL REPORTING IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning joriy qilingan xalqaro va milliy standartlari asosida zaruriyati va uslubiy jihatlari tahlil qilinadi. MHXSga o'tish jarayonida moliyaviy hisobotning tarkibi, maqsadi va tushunchasiga doir yangicha yondashuvlar, shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlari uchun buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) va MHXS talablari asosida moliyaviy hisobot tayyorlash tartiblari qiyosiy baholanadi. Maqolada, shuningdek, yangi normativ-huquqiy hujjatlar – "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" (1-sonli BHMS) va "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizom" asosida moliyaviy hisobotni tayyorlashning amaliy jihatlari yoritib beriladi.

Tayanch so'zlar: moliyaviy hisobot, MHXS, BHMS, xalqaro standartlar, konseptual asos, buxgalteriya balansi, taqdim etish.

Abstract: This article analyzes the necessity and methodological aspects of financial reporting based on current international and national standards. The transition to IFRS requires new approaches to the concept, purpose and composition of financial reporting, as well as comparative assessment of the procedures for preparing financial statements by business entities in accordance with National Accounting Standards (NAS) and IFRS requirements. The article also highlights the practical aspects of preparing financial statements based on new regulatory documents - "Presentation

of Financial Statements and Accounting Policy" (NAS No. 1) and "Regulations on the deadlines for submission of financial statements and their composition and content".

Keywords: financial reporting, IFRS, NAS, international standards, conceptual framework, balance sheet, presentation.

Аннотация: В данной статье анализируются необходимости и методологические аспекты финансовой отчетности на основе действующих международных и национальных стандартов. В процессе перехода на МСФО рассматриваются новые подходы к понятию, цели и составу финансовой отчетности, а также проводится сравнительная оценка процедур подготовки финансовой отчетности субъектами предпринимательства в соответствии с требованиями Национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБУ) и МСФО. В статье также освещаются практические аспекты подготовки финансовой отчетности на основе новых нормативно-правовых документов - «Представление финансовой отчетности и учетная политика» (НСБУ №1) и «Положение о сроках представления финансовой отчетности и их составе и содержании».

Ключевые слова: финансовая отчетность, МСФО, НСБУ, международные стандарты, концептуальная основа, бухгалтерский баланс, представление.

Kirish

Iqtisodiy islohotlarning “yangi bosqich”ga olib chiqilishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengayishi O‘zbekiston tadbirkorlik sub’ektlarining xalqaro iqtisodiy maydonida faol ishtirokini taqozo etmokka. Bunday sharroitda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida ishonchli, taqqoslana oladigan va tushunarli moliyaviy axborotni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da xorijiy kapitalni jalb qilish, sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilanganligi vaziyatning dolzarbligini yanada orttirmokda. Hisobotni xalqaro standartlarga mos ravishda shakllantirish xalqaro kapitalga sherik bo‘lishning zaruriy shartidir. Shu bilan birga, respublikamizda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmokka va yangi normativ-huquqiy baza shakllantirilmokka.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Moliyaviy hisobot tushunchasiga xalqaro va milliy standartlarda, hamda turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. MHXS doirasida, “Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobot... tashkilotdan o‘zlarining muayyan axborot ehtiyojlariga javob beradigan hisobot tayyorlashini talab etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan moliyaviy hisobotdir”. O‘zbekiston me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida esa moliyaviy hisobot “buxgalteriya hisobi sub’ektlarining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir” deb ta’riflanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur tushunchaga turli yondashuvlar mavjud. V.Kovaleva moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy holati va uning o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ishonchli va to‘liq taqdim etish ekanligini ta’kidlasa, A.Suvorov uning ijobiy tomonlariga e’tibor qaratadi. S.Tashnazarov esa, moliyaviy hisobot “umume’tirof etilgan qoidalar asosida tashkilotning moliyaviy holati, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari hamda pul mablag‘lari harakatiga doir haqqoniy va sifatli axborotlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizim”

ekanligini ta'kidlaydi. R.Entoni va J.Ris esa, moliyaviy hisobotning asosiy shakllari – buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda o'ta zamonaviy vaziyat 2024-2025 yillarda qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlarni, jumladan, "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" to'g'risidagi 1-sonli BHMS va "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos"ni tahlil qilishni taqozo etmokda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning uslubiy asosini solishtirma-tahliliy, mantiqiy va normativ-huquqiy tahlil metodlari, shuningdek, ma'lumotlarni umumlashtirish va jadvallash usullari tashkil etadi. Tahlil ob'ekti sifatida MHXS (IFRS) va O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS), shuningdek ularning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi aks etishi olingan. Tahlilning asosiy manbalari sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tgan me'yoriy hujjatlar – vazirlik buyruqlari va ularga ilovalardan foydalanildi. Moliyaviy hisobot tushunchasi va uning tarkibini aniklashda qiyosiy uslub qo'llanib, MHXS va BHMS talablaridagi o'xshashlik va farqlar aniklandi. Natijalarni tashkil etish va bayon etish uchun jadval va tahlil usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama

Moliyaviy hisobotning normativ-huquqiy asoslaridagi yangi o'zgarishlar. 2024-2025 yillarda moliyaviy hisobot soxasida sezilarli normativ islohotlar amalga oshirildi, ular bu sohadagi yondashuvlarni yanada xalqaro tajribaga yaqinlashtirdi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil iyun oyidagi buyrug'iga muvofiq "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" to'g'risidagi 1-sonli BHMS tasdiqlandi, u 2025 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Ushbu standart moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning asosiy tamoyillarini, shuningdek uning tarkibini belgilaydi.

Ushbu buyruqga ilova etilgan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" esa tadqiqotchilar, auditorlar va foydalanuvchilar uchun muhim dastur vazifasini o'taydi, chunki u moliyaviy hisobotni tayyorlashning nazariy asoslarini – maqsad, tamoyillar va elementlarni tan olish va baholash qoidalarini belgilaydi. Ya'ni, nafaqat "qanday?" (standart), balki "nima uchun?" va "qanday asosda?" (konsepsiya) savollariga javob beriladi.

2024 yil noyabr oyida esa "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizom" qabul qilindi. Ushbu nizom tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tayyorlanadigan yillik moliyaviy hisobotning anik shakllarini va ularni taqdim etish muddatlarini belgilaydi. Mazkur nizom ham 2025 yil 1 yanvardan amal qiladi.

Diqqatga sazovor jihat shundan iboratki, qonunchilikda ham yangi o'zgarishlar ko'zda tutilmokda. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to'g'risida"gi qonun deb nomlanishi, moliyaviy hisobotning mustaqil ahamiyatini ta'kidlaydi. Yangi tahrirda moliyaviy hisobotning asosiy tamoyillari – uzluksizlik, ishonchlik, aniqlik va taqqoslanuvchanlik alohida keltirilishi belgilangan.

Moliyaviy hisobotning tarkibiga doir talablarning rivojlanishi. Moliyaviy hisobotning tarkibiga doir yangi talablar uning axborot berish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. 1-sonli BHMSga muvofiq yillik moliyaviy hisobotlar to'plami quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va moliyaviy hisobotlarga izohlar. Izohlar erkin shaklda taqdim etilishi mumkin, lekin ular qonunda ko'rsatilgan majburiy ma'lumotlarni, shu jumladan tashkilotni moliyalashtirish

manbalari va risklarni boshqarish, foydalanuvchilar qaror qabul qilishi uchun muhim bo‘lgan boshqa axborotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

MHXSga muvofiq tayyorlangan hisobotlar uchun tarkib biroz farq qiladi va anik ilovalarda keltirilgan shakllarga amal qilinishi kerak. Ular: moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot, pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisot (bilvosita usul) va izohlardan iborat.

Qiyoslash uchun keltirilgan 1-jadvalda xalqaro standart va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida moliyaviy hisobot shakllarining o‘zaro mosligi ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Moliyaviy hisobot shakllarining xalqaro va milliy darajada taqqoslanishi¹

№	MHXS talablari (IFRS)	O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari
1	Hisobot davri oxiriga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot	Buxgalteriya balansi
2	Hisobot davri uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot
3	Hisobot davri uchun xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot
4	Hisobot davri uchun pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot	Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot
5	Ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma’lumotlaridan iborat izohlar	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar

Yangi normativ hujjatlar moliyaviy hisobotning maqsadini ancha kengaytirganligini qayd etish lozim. Konseptual asosga ko‘ra, moliyaviy hisobot quyidagilar uchun axborot manbai bo‘lishi kerak: investitsiya va kreditlar berish bo‘yicha qarorlar qabul qilish; tashkilotning kelgusi pul oqimini baholash; boshqaruv organlarining ishini baholash. Bu esa, ilgari faqat “o‘tmishdagi voqealar natijasi” sifatida qaralgan moliyaviy hisobotning rolini “kelgusi haqida prognoz qilish” vositasiga aylantirmokda.

MHXSga o‘tish jarayoni: amaliy jihatlar va qiyinchiliklar. Prezidentning 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli qaroriga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar 2021 yil 1 yanvardan MHXS asosida buxgalteriya hisobi yurita boshladi. Yangi qonun loyihasida esa “jamoatchilik manfaatlarini ko‘zlovchi tashkilotlar” tushunchasi kiritilishi va ular uchun ham MHXSni qo‘llash maqsadida buxgalteriya hisobi yuritish tashkil etishi nazarda tutilmoqda.

Biroq, ikkita hisob tizimini (BHMS va MHXS) parallel ravishda yuritish amaliyotchi buxgalterlar uchun ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmokda. Shuningdek, MHXSning talablariga muvofiq hisob siyosatini ishlab chiqish, aktivlar va majburiyatlarning to‘g‘ri baholanishi, izohlarni to‘liqlik darajasida taqdim etish kabi masalalarda xalqaro tajribani o‘zlashtirish zarur. Tashkilotlar rahbariyati uchun MHXS asosidagi hisobotlarni tahlil qilish va ular asosida strategik qarorlar qabul qilish malakasini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmokda.

¹ Муаллиф томонидан тузилган

Xulosa

O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning zaruriyati va uslubiy asoslari tez o‘zgarib turgan normativ-huquqiy muhitda shakllanimakda. 2024-2025 yillarda qabul qilingan “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” to‘g‘risidagi 1-sonli BHMS, “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” va “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi nizom” kabi hujjatlar bu yo‘naltidagi keng qamrovli islohotning boshilanishini belgilamokda.

Ushbu islohotlar moliyaviy hisobotning maqsadini kengaytirib, uni faqat o‘tmish hodisalar aksi emas, balki kelajakdagi pul oqimlarini baholash va investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun asosga aylantirmokda. Moliyaviy hisobotning tarkibi yangi standartlarda anik va batafsil belgilangan bo‘lib, bu esa xalqaro tajribaga yaqinlashuvni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ishonchli iqtisodiy sheriklik munosabatlarini barpo etish maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosidagi shakllanishi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Endigina kuchga kirayotgan normativ bazaning samaradorligi va amaliyotdagi muammolar uning amalga oshirilishi va monitoring jarayonida ochiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 14 iyundagi 130-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” to‘g‘risidagi buyrug‘i.
2. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 14 iyundagi 131-sonli “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asosni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i.
3. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-sonli “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i.
4. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunda nimalar o‘zgaradi. Buxgalter.uz ma‘lumotnomasi.
5. Kovaleva V. Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining asosiy maqsadi va tamoyillari // Moliyaviy tahlil. – 2019. – № 3.
6. Tashnazarov S. Moliyaviy hisobot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2021.
7. Entoni R., Ris J. Buxgalteriya hisobi: asoslar va tahlil. – 12-nashr. – 2020.

Yangibayev Sirojiddin Juramurodovich, PhD.
Dean of the faculty of IJDP, Tashkent State University
of Economics
Email: s.yangiboev@tsue.uz

**IMPROVING THE STATE INVESTMENT POLICY IN THE AGRARIAN SECTOR OF
THE ECONOMY**

Янгибоев Сирожиддин Джурамуродович
Декан факультета МСУФ, Ташкентского
государственного экономического университета
Email: s.yangiboev@tsue.uz

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ
ПОЛИТИКИ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ ЭКОНОМИКИ**

Yangiboyev Sirojiddin Juramurodovich, i.f.f.d.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti IJDP
fakulteti dekani

**IQTISODIYOTNING SEKTORIDA DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Abstrakt. Mazkur maqolada O‘zbekiston agrar sektorida davlat investitsiya siyosatining hozirgi holati tahlil qilinadi, asosiy muammolar aniqlanadi hamda investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlar taklif etiladi. Xususan, “yashil” texnologiyalarni joriy etish, loyihalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Tayanch so‘zlar: davlat investitsiya siyosati; qishloq xo‘jaligi sektori; qishloq xo‘jaligini rivojlantirish; davlat investitsiyalari samaradorligi; irrigatsiya va suv resurslarini boshqarish; qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi; barqaror qishloq xo‘jaligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается текущее состояние государственной инвестиционной политики в аграрном секторе Узбекистана, выявляются ключевые проблемы и предлагаются меры политики, направленные на повышение эффективности инвестиций. Особое внимание уделяется внедрению зелёных технологий, совершенствованию механизмов оценки проектов и стимулированию участия частного сектора.

Ключевые слова: государственная инвестиционная политика; аграрный сектор; развитие сельского хозяйства; эффективность государственных инвестиций; ирригация и управление водными ресурсами; сельскохозяйственная инфраструктура; устойчивое сельское хозяйство.

Abstract. This article examines the current state of public investment policy in the agrarian sector of Uzbekistan, identifies key challenges, and proposes policy measures aimed at improving investment efficiency. Special attention is given to the introduction of “yashil” (green) technologies, enhancement of project evaluation mechanisms, and stimulation of private sector participation.

Key words: state investment policy; agrarian sector; agricultural development; public investment efficiency; irrigation and water management; agricultural infrastructure; sustainable agriculture.

INTRODUCTION

The agrarian sector plays a vital role in Uzbekistan's economy, serving as a foundation for food security, employment, export potential, and balanced regional development. In recent years, the government has implemented extensive reforms aimed at modernizing agricultural production, improving water management systems, introducing water-saving technologies, and strengthening rural infrastructure. The effectiveness of these reforms is closely linked to the quality and efficiency of state investment policy.

The agrarian sector remains one of the key pillars of national economic development, particularly in countries with strong dependence on agriculture for employment, food security, and regional stability. In Uzbekistan, agriculture accounts for a significant share of GDP, provides livelihoods for a large portion of the population, and contributes to the country's export potential. As global economic and environmental conditions evolve, the need for a more efficient and strategically oriented state investment policy in the agrarian sector becomes increasingly important.

In recent years, the government has undertaken substantial reforms aimed at modernizing agricultural production, improving irrigation and land-reclamation systems, promoting technological innovation, and strengthening rural infrastructure. Despite these efforts, several limitations such as outdated irrigation networks, uneven regional development, and limited private sector involvement—continue to constrain investment efficiency. These challenges highlight the necessity of revising and enhancing the mechanisms through which public investments are planned, allocated, and monitored.

Improving the state investment policy in the agrarian sector is therefore essential for ensuring sustainable agricultural growth, increasing productivity, and strengthening the overall resilience of the sector. A more effective investment strategy can help accelerate modernization, attract private capital, support innovation, and enhance the competitiveness of agricultural value chains. This study examines the current state of public investment in agriculture, identifies key problems, and proposes policy recommendations to improve investment effectiveness in Uzbekistan's agrarian sector.

LITERATURE REVIEW

The role of state investment policy in agricultural development has been widely studied in economic literature. Scholars emphasize that public investment is a key factor in increasing productivity, improving rural infrastructure, and supporting long term modernization of the agrarian sector. Delgado et al. (1998) argue that public investment in irrigation, rural roads, and market infrastructure creates strong positive spillover effects by increasing agricultural output and improving livelihoods in rural areas. Fan and Rao (2003) also highlight that government spending on agricultural research, extension services, and irrigation generates some of the highest returns among public expenditures in developing countries.

A significant part of the literature focuses on institutional effectiveness and the allocation of public resources. Dorward, Kydd, and Poulton (2008) state that government intervention produces better outcomes when investment decisions are based on transparent criteria and supported by strong monitoring institutions. Weak governance may lead to inefficient use of public funds, low investment returns, and limited participation of private investors. These issues are especially notable in countries where agriculture faces challenges such as water scarcity, outdated equipment, and low technological adoption.

Irrigation and water management are considered critical components of effective agricultural investment policy. Rosegrant and Evenson (1995) show that investments in water infrastructure significantly increase productivity in regions with limited water resources. In the case of Central Asia,

Mukhamedova and Pomfret (2019) note that inefficient irrigation systems and high water losses reduce the impact of public investment, which demonstrates the need for modernization of water management technologies.

Private sector involvement is another important theme in the literature. According to World Bank reports (2020), public private partnership models can improve investment efficiency by mobilizing additional financial resources and ensuring better service delivery. However, Byerlee and De Janvry (2009) warn that poorly designed incentives may distort market mechanisms and fail to attract stable private capital.

In recent years, the literature has also focused on digitalization and innovation in agriculture. Research by Klerkx, Jakku, and Labarthe (2019) indicates that digital solutions such as precision farming, remote monitoring, and data based decision making can significantly increase productivity and reduce resource waste. Successful implementation of these innovations requires targeted public investment in digital infrastructure and training programs.

METHODOLOGY SECTION

This study uses a qualitative research approach based on the analysis of academic literature, policy documents, and official statistics. The research consists of three main steps.

First, theoretical and empirical sources on public investment and agricultural development were reviewed to establish the conceptual basis of the study. Second, international experiences in managing state investments in agriculture were examined to identify practices that may be relevant for Uzbekistan. Third, government reports and national statistics were analyzed to assess current investment trends in Uzbekistan's agrarian sector and identify key challenges.

The findings from these steps were compared and synthesized to develop practical recommendations for improving the effectiveness of state investment policy in the agrarian sector.

PROBLEM STATEMENT AND RESEARCH OBJECTIVES

Despite significant government investment, the agrarian sector in Uzbekistan continues to face challenges such as inefficient allocation of resources, outdated irrigation and production technologies, limited private sector participation, and uneven regional development. These challenges reduce the effectiveness of public investment and constrain the sector's potential to contribute to sustainable economic growth, food security, and export development. There is a need to evaluate current investment practices and develop policy measures to enhance the efficiency and impact of state investment in the agrarian sector.

Table 1. Public Investment in Uzbekistan's Agrarian Sector (Basic Capital, 2021–2025)


N	Year	Investment in Agriculture, Forestry & Fisheries (Basic Capital)
1.	2021 (Jan–Sep)	11.4 trillion UZS
2.	2022 (Jan–Sep)	11.3 trillion UZS
3.	2023 (Jan–Sep)	10.2 trillion UZS
4.	2024 (Jan–Sep)	18.2 trillion UZS
5.	2025 (Jan–Sep)	39.2 trillion UZS

Table 1 presents the amount of public investment allocated to the agrarian sector in Uzbekistan over the period from 2021 to 2025, measured in trillion Uzbek soms (UZS). The agrarian sector in

this context includes agriculture, forestry, and fisheries. The table provides a clear view of trends in government spending and highlights significant fluctuations in investment levels over time.

From 2021 to 2023, investment amounts remained relatively stable, ranging from 10.2 to 11.4 trillion UZS, reflecting steady but moderate government support for the sector. In 2024, there is a notable increase to 18.2 trillion UZS, suggesting intensified government efforts to modernize agriculture and support rural development. The data for 2025 shows a further significant rise to 39.2 trillion UZS, which may reflect new strategic investment programs, accelerated infrastructure development, and increased allocation to irrigation, mechanization, and technological modernization.

This table is important for understanding the scope and scale of state investment, providing context for analyzing investment efficiency, policy effectiveness, and priority areas for further development in Uzbekistan’s agrarian sector. It also serves as a baseline for comparing public investment with private sector contributions and for assessing the impact of investment on productivity, rural development, and economic growth.



The figure above presents the overall distribution of public investment in Uzbekistan’s agrarian sector in 2024, measured in trillion Uzbek soms (trln UZS). It visualizes the total funding allocated to agriculture, forestry, and fisheries from all sources combined. The chart provides a clear picture of the financial structure of the sector and helps to understand the scale and priorities of state and private investments. This representation supports analysis of investment efficiency, sectoral development, and policy planning in Uzbekistan’s agrarian economy.

CONCLUSION

This study analyzed the state investment policy in Uzbekistan’s agrarian sector, examining its current structure, funding sources, and challenges. The findings show that public investment plays a crucial role in modernizing agriculture, improving infrastructure, and supporting rural development. Foreign investments constitute a significant portion of total funding, while domestic contributions and state budget allocations also play important roles. Despite these efforts, challenges remain, including inefficient allocation of resources, limited private sector participation, and outdated technology in certain areas.

To enhance the effectiveness of state investment, it is recommended to focus on institutional reforms, modernization of irrigation and production technologies, promotion of public–private partnerships, and support for innovation and digitalization. A more efficient allocation of resources and increased coordination between public and private actors will contribute to sustainable growth, higher productivity, and stronger rural development in Uzbekistan

References

1. Byerlee, D., & De Janvry, A. (2009). *Agriculture for Development: Toward a New Paradigm*. Washington, DC: World Bank.
2. Delgado, C., Rosegrant, M., Steinfeld, H., Ehui, S., & Courbois, C. (1998). *Livestock to 2020: The Next Food Revolution*. Food, Agriculture, and the Environment Discussion Paper 28. IFPRI.
3. Dorward, A., Kydd, J., & Poulton, C. (2008). *Institutions, Markets, and Agricultural Development: Lessons from Sub-Saharan Africa*. *Food Policy*, 33(4), 299–305.
4. Fan, S., & Rao, N. (2003). *Public Spending in Developing Countries: Trends, Determination, and Impact*. EPTD Discussion Paper 99. IFPRI.
5. Klerkx, L., Jakku, E., & Labarthe, P. (2019). *A Review of Social Science on Digital Agriculture, Smart Farming, and Agriculture 4.0: New Contributions and a Future Research Agenda*. *NJAS – Wageningen Journal of Life Sciences*, 90–91, 100315.
6. Mukhamedova, F., & Pomfret, R. (2019). *Agricultural Water Use and Policy in Central Asia: Uzbekistan Case Study*. *Central Asian Survey*, 38(2), 235–253.
7. Rosegrant, M., & Evenson, R. (1995). *Agricultural Productivity and Investment in Water Infrastructure*. International Food Policy Research Institute.
8. World Bank. (2020). *Uzbekistan: Agribusiness and Rural Development Overview*. Washington, DC: World Bank.
9. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics (Stat.uz). (2024). *Investments in Agriculture, Forestry, and Fisheries*. Retrieved from <https://stat.uz>

Чекулаева Кристина

к.э.н., доцент Навоийский государственный горно-технологический университет

<https://orcid.org/0009-0005-5728-220X>

cka22@mail.ru

**КОРПОРАТИВНАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ БИЗНЕСА КАК
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Kristina Chekulaeva

PhD, assoc. professor of Navoi State University of Mining and Technologies

<https://orcid.org/0009-0005-5728-220X>

cka22@mail.ru

**CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY OF BUSINESS AS A MECHANISM OF
SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN**

Chekulayeva Kristina

Navoiy davlat konchilik-texnologiya universiteti dotsent, i.f.n,

<https://orcid.org/0009-0005-5728-220X>

cka22@mail.ru

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY IQTISODIYOTINING BARQAROR
RIVOJLANISH MEKANIZMI SIFATIDA BIZNESNING KORPORATIV IJTIMOIIY
MAS’ULIYATI**

Аннотаци: В статье рассматриваются особенности становления и развития корпоративной социальной ответственности в Узбекистане в контексте устойчивого роста и внедрения ESG-принципов. Проанализированы ключевые тенденции в области интеграции КСО в стратегическое управление предприятиями, представлены лучшие практики ведущих промышленных компаний страны. Особое внимание уделяется институциональной роли государства, культурным и социальным факторам, а также влиянию международных стандартов на трансформацию корпоративного поведения. На основе эмпирических данных и ESG-отчётности сделан вывод о положительной динамике КСО в Узбекистане и её влиянии на повышение инвестиционной привлекательности, экологической устойчивости и социальной стабильности.

Ключевые слова: корпоративная социальная ответственность, устойчивое развитие, ESG-принципы, промышленность, стратегия, социальная политика, экологическая устойчивость, человеческий капитал, стратегическое управление, прозрачность и подотчётность.

Annotation. The article examines the features of the formation and development of corporate social responsibility in Uzbekistan in the context of sustainable growth and the implementation of ESG principles. The key trends in the integration of CSR into the strategic management of enterprises are analyzed, and the best practices of the country's leading industrial companies are presented. Special attention is paid to the institutional role of the state, cultural and social factors, as well as the impact of international standards on the transformation of corporate behavior. Based on empirical data and ESG reporting, a conclusion has been drawn about the positive dynamics of CSR in Uzbekistan and its impact on increasing investment attractiveness, environmental sustainability and social stability.

Keywords: corporate social responsibility, sustainable development, ESG principles, industry, strategy, social policy, environmental sustainability, human capital, strategic management, transparency and accountability.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning (KIM) shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari barqaror iqtisodiy o'sish hamda ESG tamoyillarini joriy etish kontekstida ko'rib chiqilgan. Korxonalarining strategik boshqaruviga KIMni integratsiya qilish sohasidagi asosiy tendensiyalar tahlil qilingan, mamlakatning yetakchi sanoat kompaniyalarining eng yaxshi amaliyotlari taqdim etilgan. Davlatning institutsional roli, madaniy va ijtimoiy omillar, shuningdek xalqaro standartlarning korporativ xulq-atvor transformatsiyasiga ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Empirik ma'lumotlar va ESG-hisobotlar asosida O'zbekistonda KIM rivojlanishining ijobiy dinamikasi hamda uning investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri haqida xulosa qilingan.

Tayanch so'zlar: korporativ ijtimoiy mas'uliyat, barqaror rivojlanish, ESG tamoyillari, sanoat, strategiya, ijtimoiy siyosat, ekologik barqarorlik, inson kapitali, strategik boshqaruv, shaffoflik va hisobdorlik.

Введение

В течение последних лет во всем мире меняются отношения между государственными структурами, гражданским обществом и бизнесом — зарождаются новые формы взаимодействия, основанные на добровольных и взаимовыгодных связях. Одним из таких инновационных подходов является **корпоративная социальная ответственность (КСО)** — добровольная система отношений, которая выходит за рамки формальных обязательств, предполагая активное участие бизнеса в решении общественных и экологических задач. В современных условиях **социальная ответственность компании становится ключевым фактором её репутационной составляющей**. Инвестиции в социальные программы, обеспечение гарантий для сотрудников, а также гарантии качества и безопасности продукции напрямую способствуют формированию благоприятной социальной среды. Это, в свою очередь, обеспечивает компании долгосрочную устойчивость и финансовую стабильность [1].

Воздействие КСО на устойчивость бизнеса проявляется в нескольких аспектах. Во-первых, поддержка социальных инициатив повышает доверие сотрудников и лояльность клиентов, что способствует снижению текучести кадров и укреплению клиентской базы. Во-вторых, компания, демонстрирующая заботу о работниках и обществе, получает доступ к более качественным ресурсам и возможностям сотрудничества с государством и инвесторами. В-третьих, высокий уровень социальной ответственности минимизирует риски, связанные с репутацией, привлечением внимания общественности или негативными реакциями со стороны стейкхолдеров.

Это, в свою очередь, оказывает влияние не только на внутреннюю устойчивость самой компании, но и на социально-экономическое развитие региона и страны в целом. Реализуя КСО-программы, предприятия инвестируют в инфраструктуру, образование, здравоохранение, охрану окружающей среды и развитие местных сообществ. Такие инициативы способствуют повышению качества жизни населения, формированию устойчивых трудовых ресурсов, снижению уровня социального напряжения и стимулированию предпринимательской активности. В результате создаются благоприятные условия для роста человеческого капитала, повышения инвестиционной привлекательности территорий и укрепления социального партнёрства между бизнесом, государством и обществом. Таким образом, корпоративная социальная ответственность становится неотъемлемым элементом устойчивого развития как отдельных компаний, так и страны в целом.

Особенно актуальна эта тема для Узбекистана — страны, активно реализующей стратегию устойчивого роста и интеграции международных целей в национальные приоритеты. Так, согласно Стратегии «Uzbekistan-2030» и Национальной рамочной программе устойчивого развития, правительство Узбекистана ориентируется на достижение ЦУР ООН к 2030 году, стимулируя внедрение ESG-подходов и развитие внутренней ESG-инфраструктуры¹.

Цель исследования - проанализировать роль и значение корпоративной социальной ответственности бизнеса как ключевого фактора устойчивого развития экономики регионов и Узбекистана в целом.

Обзор литературы

В научной литературе корпоративная социальная ответственность рассматривается как комплексная концепция, изучаемая рядом исследователей. Одними из первых теоретиков были Г. Боуэн (Bowen, 1953), акцентировавший внимание на социальной роли бизнеса и А. Кэрролл (Carroll, 1991), разработавшая модель многоуровневой ответственности [2,3]. Процесс эволюции и систематизации концепций КСО анализировался в работах Д. Виндзора [4] (Windsor, 2001), который выделял различные подходы к пониманию ответственности бизнеса. М. Ван Марревийк [5] (Van Marrewijk, 2003) в своих исследованиях акцентировал внимание на развитии интегративных моделей КСО и их взаимосвязи с устойчивым развитием. Стоит также отметить исследования М. Портера и М. Крамера, которые ввели концепцию создания совместной ценности (Creating Shared Value), расширив тем самым понимание роли КСО как инструмента конкурентного преимущества и развития общества [6].

Среди российских исследователей, активно изучающих вопросы формирования и развития концепции корпоративной социальной ответственности, выделяется М.Г. Авилова (Avilova, 2016), которая сосредоточила своё внимание на анализе теоретических основ КСО и практических аспектах внедрения социальных инициатив в компаниях, а также вклад в развитие теории КСО внесла также М.В. Бикеева, чьи работы охватывают широкий спектр вопросов, связанных с социальной ответственностью бизнеса (Bikeeva, 2012; 2017) [7,8].

В Узбекистане концепция устойчивого развития занимает центральное место в стратегии реформ, проводимых под руководством президента Шавката Мирзиёева. Основой этих реформ служат ценности человеческого достоинства, прав и свобод, а также новый подход взаимодействия «человек — общество — государство». В национальной научной

¹ <https://strategy.gov.uz>

литературе активное продвижение принципов корпоративной социальной ответственности и устойчивого развития в бизнес-среде страны осуществляется такими специалистами, как М. Шарипова, Д. Юсупов. Их исследования способствуют формированию культуры социальной ответственности и интеграции соответствующих практик в корпоративную деятельность Узбекистана.

Методология исследования

В рамках настоящего исследования использован ряд научных методов, позволяющих обеспечить комплексный и объективный подход к анализу корпоративной социальной ответственности как инструмента устойчивого развития. Применялись общенаучные методы — анализ, синтез, индукция, дедукция и обобщение, а также специальные методы: статистическое наблюдение, группировка и сводка статистических данных. Методологическая база исследования опирается на труды отечественных и зарубежных ученых в области КСО, а также на работы, посвящённые вопросам социально-экономического развития и трансформации корпоративных стратегий в условиях устойчивого развития. Исследование сочетает элементы теоретического анализа с изучением прикладных аспектов реализации КСО в практике промышленных предприятий. Для повышения научной обоснованности результатов были использованы методы контент-анализа, сравнительного анализа международных и национальных практик, а также системный подход, позволивший рассмотреть КСО как интегральный элемент социально-экономической политики государства и корпоративного управления.

Анализ и обсуждение результатов

Корпоративная социальная ответственность в современном научном и практическом понимании рассматривается как добровольная, системно интегрированная деятельность, направленная на учет экологических, социальных и управленческих аспектов в стратегии и операционных процессах компании. Согласно международному стандарту **ISO 26000**, КСО определяется как практика, ориентированная на минимизацию негативного воздействия и усиление позитивного вклада в устойчивое развитие работников, общества и окружающей среды².

Современное понимание КСО выходит за рамки репутационных или этических соображений, приобретая характер полноценного стратегического ресурса. Согласно концепции «создания общей ценности» (**Creating Shared Value**), предложенной М. Портером и М. Крамером, социальная ответственность бизнеса может способствовать не только повышению конкурентоспособности, но и параллельному улучшению социально-экономических условий в регионах деятельности компании [6]. В данном контексте КСО рассматривается как инвестиция в устойчивость, а не как затратная статья.

Реализация принципов КСО позволяет формировать несколько видов нематериального капитала:

- **социальный капитал** — укрепление доверительных отношений с сотрудниками, партнёрами и местными сообществами;
- **репутационный капитал** — формирование позитивного имиджа компании и устойчивых конкурентных преимуществ;
- **институциональная устойчивость** — обеспечение прозрачности, соблюдение этических норм и ответственное взаимодействие со всеми заинтересованными сторонами.

² <https://iso26000.info/iso-26000-an-introduction>

Одним из ключевых элементов эффективной реализации КСО является системная работа с **стейкхолдерами** — сотрудниками, инвесторами, клиентами, государственными структурами и гражданским обществом. Выявление их интересов и ожиданий, а также учет этих факторов при разработке и внедрении социальных программ, способствует формированию устойчивой и доверительной модели взаимодействия между бизнесом и обществом.

Компании, реализующие социально значимые проекты в сферах образования, здравоохранения, экологии и инфраструктурного развития, вносят вклад в повышение качества жизни населения, содействуют созданию новых рабочих мест и формированию устойчивых территориальных сообществ. Эти процессы, в свою очередь, усиливают инвестиционную привлекательность регионов, укрепляют социальную стабильность и создают основу для долгосрочного экономического роста как на региональном, так и на национальном уровнях.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali iqtisodiyotda aylanayotgan pul mablag'larini tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarimiz dastlabki bosqichida naqd pulsiz hisob-kitoblarning joriy holatiga doir elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarni qayta ishlashda tahlil va sintez hamda guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Ushbu axborotlarni qayta ishlashning ikkinchi bosqichida taqqoslash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash usullari yordamida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, tadqiqotlarmizda solishtirma va tizimli tahlil usullaridan kyeng foydalanildi. Natijada, xo'jalik sub'yektlari o'rtasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarning joriy holatini aks ettiruvchi elektron fayl

ko‘rinishidagi axborotlarni yagona bazasini shakllantirish, ularni tartiblangan, ixchamlashtirilgan holda maxsus jadvalga joylashtirish hamda ushbu jadvaldagi ma‘lumotlar asosida iqtisodiyotda harakatlanayotgan pul mablag‘larini turli kesimlarda tahlil qilish hamda tartibga solishda – hisob-kitob tizimlari xavfsizligini va mazkur tizimdagi elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlarning himoyasini ishonchli tarzda ta‘minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi ham asoslab berilgan.

Natija va muhokama.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdiki, naqd pulsiz hisob-kitoblarning joriy holatini tahlil qilish imkoniyatini yaratishda – mazkur hisob-kitoblar amalga oshiriladigan to‘lov tizimlarini va unda saqlanayotgan elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlarning dahlsizligi ta‘minlanishi asosiy masalalardan biri ekan.

Barchamizga ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda *memorial order*, *to‘lov topshiriqnomasi*, *to‘lov talabnomasi*, *akkreditivga ariza* va *inkasso topshiriqnomalaridan* foydalaniladi.

Markaziy bankning 2025 yil sentyabr oyidagi statistik byulletenida to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarga doir quyidagi ko‘rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval.

Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblar summasi (mlrd.so‘m)

Foydalanilgan to‘lov hujjatlari nomlari	2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida	2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida	Farqi (+; -)
Memorial order	3 708 821	5 686 840	1 978 019
To‘lov topshiriqnomasi	1 427 204	2 226 052	798 848
To‘lov talabanomasi	1 347	1 102	-245
Akkeriditivga ariza	8	1	-7
Inkassa topshiriqnomasi	6 620	6 389	-231
Jami:	5 144 000	7 920 384	2 776 384

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025 yil sentyabr oyidagi statistik byulleteni ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdiki, 2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan naqdpulsiz hisob-kitoblarning summasi 2024 yilning mos davriga nisbatan **2 776 384 mlrd. so‘mga** yoki **54 foizga** oshgan.

Biroq, naqd pulsiz hisob-kitoblar faqat banklararo naqd pulsiz hisob-kitoblar bilan chegaralanib qolmaydi. Chunki, bir bankning bo‘linmalari o‘rtasidagi va bank bo‘linmasi ichidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar ham mavjud.


Yuqorida keltirilgan raqamlar va bildirilgan mulohazalarga tayangan holda to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarning summasi yildan-yilga oshib borayotganligidan ta‘kidlashimiz mumkin. Bu o‘z navbatida, to‘lov to‘lovlariga yuklatilgan mas‘uliyat ham oshib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Shuning uchun ham naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshiriladigan to‘lov tizimlarini va ushbu tizimda saqlanayotgan axborotlarni xavfsizligi ishonchli tarzda ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilishi shart. Agarda, to‘lov tizimlari xavfsizligi va undagi axborotlarning ishonchli himoyasi ta‘minlanmasa, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida mulohazalar yuritish ham o‘rinsiz bo‘lib qoladi. Shuningdek, bunday vaziyatda amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarga

doir elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlarning yagona bazaga jamlash va belgilangan tartibda qayta ishlash imkonsiz orzuga aylanab qoladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, naqd pulsiz hisob-kitob tizimlarida elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlarni shakllantirish va ularni almashish bevosita internet tarmog‘i yordamida amalga oshirilayotganligi uchun ham mazkur tizimlarni samarali faoliyat yuritishlari va ulardagi axborotlarni but saqlanishi uchun ham xavfsizligi birinchi darajali masalaga aylanmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi samarali faoliyat yuritishi uchun Markaziy bank va tijorat banklari yagona tizimga quyidagi rasmda keltirilgan ko‘rinishda o‘zaro bog‘langan.



1-rasm. O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarga doir elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlarni aylanish sxemasi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging cbu.uz cayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitoblarga doir elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlarni aylanishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. To‘lov tizimining xavfsizligini va undagi elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlarning himoyasini ta’minlash masalasi bo‘yicha yuqorida ta’kidlagan fikrlarimiz, ushbu bosqichlarning barchasiga bir xil darajada taalluqlidir. Demak, to‘lov tizimining eng yuqori va eng quyi bug‘ini uchun ham xavfsiz va himoya masalalariga doir talablar bir xil o‘rnatilgan.

Bunda, ushbu tizimdan foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish va har bir foydalanuvchiga faqat unga berilgan vakolat doirasiga taalluqli bo‘lgan axborotlardan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratilgan. Demak, to‘lov tizimiga norasmiy tarzda tizimga ulanish, undagi axborotlarni o‘zgartirish yoki tarqatish bo‘yicha ham qat’iy cheklovlar o‘rnatilgan.

Biz, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar o‘rtasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarga doir elektron fayl ko‘rinishidagi axborotlardan foydalangan holda iqtisodiyotda mazkur hisob-kitoblar orqali aylanayotgan mablag‘larni mamlakat hududlari bo‘yicha mutanosibligini imkon qadar ta’minlash masalasi ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

Buni uchun esa, to'lov tizimidagi amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarga doir elektron fayl ko'rinishidagi axborotlardan foydalanish uchun belgilangan tartibda ruxsat olishimiz talab etiladi.

To'lov tizimlarida naqd pulsiz hisob-kitoblardan foydalanuvchi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga doir ma'lumotlar, ularga tomonidan amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarga doir hamda ularga tegishli bo'lgan pul mablag'lari qoldiqlari to'g'risidagi axborotlar saqlanar ekan – ushbu axborotlarni sir saqlanishi hamda xavfsizligi va himoyasini ta'minlashini juda ahamiyatlidir.

Endi, xorijiy davlatlardagi holatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Markaziy bankning **cavna.com** saytida quyidagi rasm keltirilgan.



2-rasm. Xorijiy davlatlarda moliyaviy sektorga qilingan kiberhujumlar dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning maxsus sayti:

<https://www.canva.com/design/DAG1eum7omc/mqCsdpGaZjFm2D8g1SxB4w/edit>

Yuqoridagi 2-rasmda qayd etilgan ko'rsatikichlar xorijiy davlatlarda ham moliyaviy sektorga ya'ni, to'lov tizimlariga nisbatan amalga oshirilgan kiberhujumlar soni yildan yilga oshirib borayotganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, bunday kiberhujumlar soni 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 38 foizga oshgan bo'lsa, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 25 foizga oshgan.

Demak, to'lov tizimini xavfsizligini va undagi axborotlar himoyasini ta'minlash masalasi bugungi kunda xalqaro miqsyodagi masalalardan biri ekan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan holda “O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligiga doir minimal talablar to'g'risidagi nizom” ishlab chiqilib, Adliya vaziriligida 2025 yilning 18-avgustida 3669-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi, ushbu maqolada ko'tarilgan masalani bugungi kunda qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ifodasidir.

Xulosa.

Xo'jalik sub'yektlari o'rtasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblar joriy holatiga doir elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarning yagona bazasini shakllantirilishi va axborotlarni bir necha bosqichlarda qayta ishlab, iqtisodiyotda mazkur hisob-kitoblar orqali aylanayotgan mablag'larning imkon qadar mutanosibligini ta'minlash masalasida ilmiy izlanishlar olib borishimiz uchun – to'lov tizimida xavfsizlik masalasi ijobiy hal etilgan hamda bizga maxkur tizimdagi axborotlardan belgilangan tartibda foydalanish uchun imkoniyatlar yaratib berilishi lozim bo'ladi.

Shuningdek, to'lov tizimining ishonchli ekanligi undan foydalanuvchi mijozlar uchun juda muhimdir. Bu yerda to'lov tizimining ishonchli ekanligi deganda, xavfsizlik masalalaridan tashqari, mijozlarga ushbu tizimdan foydalanish uchun yaratib berilgan shart-sharoit va boshqa qulayliklar ham inobatga olinmoqda. Chunki, mijozlar ishonchini qozona olmagan to'lov tizimi samarali faoliyat yurita olmaydi. Bu xususida xorijiy olimlar quyidagilarni ta'qidlashgan: “Pul ko'chirish usuli bilan

bog'liq bo'lgan xizmatlarning jozibadorligiga, o'ziga xos xususiyatlariga ishonchlilik, samaradorlik, arzon narxlardagi va tranzaksiyalarni sifatli ro'yxatdan o'tkazish kiradi... Shunday qilib, bankning to'lov xizmatlarini ko'rsatishda ishtirok etishining minimal sharti, uning o'z mijozlaridan to'lovlarni deyarli har qanday shaklda qabul qilishga tayyor bo'lishidir" [8].

Haqiqatan ham bugungi axborot texnologiyalari jiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, xo'jalik sub'yektlari o'rtasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblar joriy holatini aks ettiruvchi elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarni yagona bazaga to'liq jamlashni va ularni bir necha bosqichlarda qayta ishlashni imkoniyati yaratilmasa, mazkur hisob-kitoblar orqali aylanayotgan mablag'larning mutanosibligini ta'minlash masalasi ustida ilmiy izlanishlarni olib borilishi kutilgan natijani bermaydi.

Shuning uchun ham bugungi kunda har qanday makroiqtisodiy muammo ustida ilmiy izlanishlar olib borilishida, avvalo uning joriy holatini aks ettiruvchi axborotlardan keng foydalanish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Bu yerda yana bir shunday muhim xulosani chiqarishimiz mumkinki, naqd pulsiz hisob-kitoblarni tahlil qilish, bu faqat bankdagi bir hisobvaraqdan ikkinchi bir hisobvaraqqa pul mablag'lari ko'chirib berish jarayonini yoki hisob-kitob qanday shakl, usul yordamida amalga oshirilganligini o'rganib chiqish bilan cheklanmaydi.

Shuning uchun ham biz, o'z ilmiy izlanishlarimizning dastlabki bosqichidayoq xo'jalik sub'yektlari o'rtasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblar joriy holatiga doir elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarning yagona bazasini shakllantirish hamda mazkur ko'p sonli axborotlarni turli kesim va qirqimlarda qayta ishlash lozim degan xulosaga kelganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Fan va turmush" jurnali, 2020 yil 1-2-soni.
2. Shochrul Rohmatul Ajija. "The influence of non-cash payment transactions on economic growth in 5 asean countries". JIET (Jurnal Ilmu Ekonomi Terapan) Vol. 8 No. 2 (2023): 276-286.
https://www.researchgate.net/publication/376317242_The_Influence_of_Non-Cash_Payment_Transactions_on_Economic_Growth_in_5_ASEAN_Countries
3. P.V. Semikova "Sovershenstvovaniye sistema beznalichnykh raschetov v Rossiyskoy Federatsii" Spetsialnost 08.00.10 «Finansy, deneznoye obrashcheniye i kredit» AVTOREFERAT dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk.
<https://new-disser.ru/avtoreferats/01002626490.pdf>
4. Cristina Balteanu. "Study On Usage Behaviour Regarding Non-Cash Payment Instruments". Annals - Economy Series, Constantin Brancusi University, Faculty of Economics, vol. 6, pages 46-53, December. 2018 y.
https://www.utgjiu.ro/revista/ec/pdf/2018-06/05_Balteanu.pdf
5. V.Gaykovich, A.Pershin "Bezopasnost elektronnykh bankovskix sistem", Moskva: "Yedinaya yevropa", 1994 g., 364 str.
6. Kiduell D.S., Peterson R.L., Blekuell D.U. "Finansovyye instituty, rynki i dengi", Sankt-Peterburg: "Piter", 2000 g., 752 str.
7. Pod redaksiyey Bryusa D. Sammersa. Mejdunarodnyy valyutnyy fond. "Platejnaya sistema: struktura, upravleniye i kontrol". 1994 g.
<https://doi.org/10.5089/9781557754783.071>
8. Gans D. Blomshteyn u Bpyus D. Sammepc. "Bannovckoe delo i platejnaya cistema". 1995
<https://www.elibrary.imf.org/display/book/9781557754783/9781557754783.xml>

Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Ma'sudjonov Ozodbek Turobjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti Bank ishi yunalish talabasi

masudjonovozodbek@gmail.com

OLIV TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV KADRLARINING MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.

Махсуталиев Абдусалом Хасанович

доцент Ташкентского государственного экономического университета, кандидат экономических наук.

Масуджонов Озодбек Туробжон угли

студент направления «Банковское дело» Андижанского факультета, Ташкентского государственного экономического университета.

masudjonovozodbek@gmail.com

EFFECTIVE USE OF FINANCIAL RESOURCES BY MANAGEMENT PERSONNEL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.

Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich

Associate Professor of Tashkent State University of Economics, PhD in Economics.

Ma'sudjonov Ozodbek Turobjon o'g'li — Student of the Banking program at the Andijan Faculty of Tashkent State University of Economics.

masudjonovozodbek@gmail.com

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ УПРАВЛЕНЧЕСКИМИ КАДРАМИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan oqilona foydalanish, shuningdek, boshqaruv kadrlarining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ta'lim sifati va raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilish mexanizmlarining ahamiyati ochib beriladi hamda ularni samarali boshqarish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, moliyaviy resurslar, boshqaruv kadrlar, moliyaviy boshqaruv, samaradorlik.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье анализируются вопросы эффективного использования финансовых ресурсов управленческими кадрами в системе высшего образования. Рассматриваются пути совершенствования финансового управления в высших учебных заведениях, рационального использования бюджетных и внебюджетных средств, а также повышения финансовой грамотности управленческих кадров с целью улучшения качества и конкурентоспособности образования. В ходе исследования раскрывается значение механизмов планирования, распределения и контроля финансовых ресурсов, а также разрабатываются предложения и рекомендации по их эффективному управлению.

Ключевые слова: система высшего образования, финансовые ресурсы, управленческие кадры, финансовое управление, эффективность.

ABSTRACT

This scientific article analyzes the issues of effective utilization of financial resources by management personnel in the higher education system. The study examines ways to improve financial management in higher education institutions, ensure rational use of budgetary and extra-budgetary funds, and enhance the financial literacy of management staff in order to increase the quality and competitiveness of education. The research highlights the importance of planning, allocation, and control mechanisms of financial resources and develops recommendations for their effective management.

Keywords: higher education system, financial resources, management personnel, financial management, efficiency.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishda moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur jarayonlarda boshqaruv kadrlarining moliyaviy boshqaruv sohasidagi bilim va ko'nikmalari hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, boshqaruv kadrlarining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi mas'uliyati, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni rejalashtirish hamda ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash masalalarida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, moliyaviy resurslardan foydalanishda strategik yondashuvning yetarli darajada shakllanmagani, nazorat mexanizmlarining sustligi hamda boshqaruv kadrlarining moliyaviy savodxonligi bilan bog'liq kamchiliklar tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, boshqaruv kadrlarining moliyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari o'rganiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda oliy ta'lim tizimi sharoitida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda milliy tajribaga tayangan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv kadrlarining ushbu jarayondagi o'rni masalalari iqtisodiy va pedagogik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda sohaviy tadqiqotlarda moliyaviy boshqaruv masalalari keng yoritilgan. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlarda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan maqsadli hamda samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, moliyaviy nazorat va shaffoflikni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, pedagogika va ta'lim menejmenti yo'nalishidagi adabiyotlarda oliy ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritilib, moliyaviy resurslardan foydalanish ta'lim sifati va ilmiy faoliyat natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Mazkur ishlarda ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda boshqaruv kadrlarining yetakchilik qobiliyati va innovatsion yondashuvlari muhim omil sifatida baholanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalasi yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, aynan boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli ravishda tahlil qilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Shu sababli mazkur maqolada mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanishdagi roli chuqurroq o'rganilib, milliy tajribaga asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tizimli tahlil qilishdir.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

Tahliliy-metodik usul – mavjud adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar o'rganildi. Bu orqali moliyaviy resurslarni boshqarishning mavjud holati va samaradorlik darajasi aniqlangan.

Solishtirma tahlil usuli – turli oliy ta'lim muassasalari tajribasi, moliyaviy boshqaruv amaliyotlari va boshqaruv kadrlarining faoliyat usullari solishtirildi. Bu metod yordamida samarali boshqaruv strategiyalari va kamchiliklar aniqlanadi.

So'rovnomalar va intervyu usullari – boshqaruv kadrlarining moliyaviy savodxonligi, qarorlar qabul qilishdagi yondashuvlari va moliyaviy resurslardan foydalanish amaliyoti aniqlash uchun oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va moliyaviy bo'lim xodimlari orasida so'rovnomalar o'tkazildi.

Tizimli tahlil usuli – yig'ilgan ma'lumotlar asosida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, u nafaqat moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlarini o'rganadi, balki boshqaruv kadrlarining samarali foydalanishga ta'sir etuvchi kompetensiyalarini tizimli yondashuv asosida tahlil qiladi. Shu bilan birga, milliy tajribaga tayangan holda oliy ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ta'lim sifati oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va muassasaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil

hisoblanadi. Bu jarayonda boshqaruv kadrlarining moliyaviy boshqaruv sohasidagi bilim va ko'nikmalari, qarorlar qabul qilishdagi tajribasi va mas'uliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Moliyaviy resurslarni rejalashtirish jarayoni muassasaning strategik maqsadlari bilan bog'liq bo'lib, boshqaruv kadrlariga quyidagi vazifalarni bajarishni talab qiladi:

- Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni aniq maqsadlar bo'yicha taqsimlash;
- Har bir fakultet va bo'limning moliyaviy ehtiyojlarini baholash;
- Resurslarni oqilona sarflash va samaradorlikni prognoz qilish.

Nazariy jihatdan, moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish boshqaruv kadrlarining strategik qarorlar qabul qilish qobiliyati va moliyaviy savodxonligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, rejalashtirish jarayoni muassasa faoliyatining barcha bo'limlarida shaffof va tizimli bo'lishi lozim.

Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlash uchun nazorat mexanizmlari hamda baholash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- Ichki nazorat** – muassasa ichida moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish, har bir bo'limning byudjetdan foydalanish samaradorligini baholash;
- Tashqi nazorat** – Vazirlar Mahkamasi, moliya vazirligi yoki auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar.

Tizimli nazorat va baholash orqali moliyaviy resurslardan foydalanishdagi kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanishdagi roli juda katta. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik va strategik yondashuvga ega bo'lgan boshqaruv kadrlari resurslarni samarali rejalashtirish va maqsadli sarflash imkoniyatini oshiradi (Karimov, 2019). Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish, seminarlar va treninglar orqali moliyaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish nafaqat ta'lim sifati va ilmiy faoliyat natijadorligini oshiradi, balki muassasaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarining moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoni muassasaning iqtisodiy barqarorligi va ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv kadrlarining malakasi, moliyaviy savodxonligi va strategik yondashuvi resurslardan foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi (Aliyev, 2020; Karimov, 2019).

Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlari quyidagi yo'nalishlarda moliyaviy qarorlar qabul qiladilar:

- Byudjet rejalashtirish va taqsimlash** – fakultetlar va bo'limlar faoliyati uchun mablag'lar ajratish, byudjetdan tashqari mablag'larni samarali yo'naltirish.
- Moliyaviy monitoring va nazorat** – mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash va kamchiliklarni aniqlash.
- Investitsion va rivojlanish loyihalari uchun mablag'larni ajratish** – ilmiy tadqiqotlar va infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirishga resurslarni yo'naltirish.

Amaliy tajribadan ko'rinib turibdiki, boshqaruv kadrlarining qaror qabul qilishdagi asosiy kamchiligi **strategik yondashuv yetishmasligi** va **moliyaviy tahlil ko'nikmalari yetarli emasligi** bilan

bog‘liq. Shu sababli, muassasalar samaradorligini oshirishda boshqaruv kadrlarini doimiy ravishda malaka oshirishga yo‘naltirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Moliyaviy savodxonlikni oshirish – boshqaruv kadrlari uchun maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish; moliyaviy tahlil, byudjet tuzish va monitoring bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish.

Strategik rejalashtirishni joriy etish – muassasada moliyaviy resurslarni uzoq muddatli maqsadlar bilan bog‘lab, samaradorlikni oshiruvchi strategik moliyaviy qarorlar qabul qilish.

Nazorat mexanizmlarini takomillashtirish – ichki audit tizimini rivojlantirish, moliyaviy jarayonlarni shaffof va tizimli monitoring qilish, byudjetdan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Innovatsion yondashuvni tatbiq etish – moliyaviy qarorlar qabul qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, moliyaviy ma‘lumotlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali oliy ta‘lim muassasalarida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshadi, ta‘lim sifati yaxshilanadi va muassasaning iqtisodiy barqarorligi ta‘minlanadi.

XULOSA

Oliy ta‘lim tizimida boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi nafaqat muassasaning iqtisodiy barqarorligini, balki ta‘lim va ilmiy faoliyat sifatini belgilovchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish boshqaruv kadrlarining malakasi, moliyaviy savodxonligi va strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish, moliyaviy boshqaruv bo‘yicha doimiy trening va seminarlar tashkil etish oliy ta‘lim muassasalarida samaradorlikni oshirishning eng muhim yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy resurslarni rejalashtirish va nazorat qilish tizimi tizimli va shaffof bo‘lsa, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar maqsadli va samarali ishlatiladi. Bu esa nafaqat muassasa faoliyatining barqarorligini ta‘minlaydi, balki talabalarga sifatli ta‘lim berish imkonini oshiradi.

Shaxsiy fikrim shuki, boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanishdagi roli yetarli darajada qadrlanmayapti. Agar boshqaruv jarayonlariga ilmiy yondashuv va innovatsion usullarni yanada kuchaytirsak, oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy va ta‘limiy samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur masala bilan tizimli shug‘ullanish har bir oliy ta‘lim muassasasi uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Mahsutaliyev Abdusalom (Toshkent-2025) “Oliy ta‘lim muassasalari boshqaruv kadrlarida strategik qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish”
2. Aliyev, S. (2020). *Oliy ta‘lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvning samaradorligi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Mirzaeva, G. (2018). *Boshqaruv kadrlarining moliyaviy resurslardan foydalanish kompetensiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim vazirligi nashriyoti.
4. Karimov, T. (2019). *Moliyaviy resurslarni rejalashtirish va nazorat tizimlari*. Toshkent: Iqtisodiyot va Menejment Universiteti nashriyoti.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6013-sonli farmoni. *Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi.* Lex.uz.
<https://lex.uz/docs/4845674>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-maydagi 258-sonli qarori. *Oliy ta’lim muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lardan samarali foydalanish tartibi.* Lex.uz.
<https://lex.uz/docs/4512345>
7. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rasmiy sayti. *Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv va nazorat bo‘yicha metodik qo‘llanmalar.* Edu.uz.
<https://edu.uz/>
8. Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. *Oliy ta’lim tizimi faoliyatiga oid moliyaviy ko‘rsatkichlar.* Stat.uz.
<https://stat.uz/>

Erkinxojiev Ismoiljon Ikromjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

**AGROBIZNES LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISHNING ZAMONAVIY
USULLARI**

Эркинхожиев Исмоилжон Икромжон угли

Ташкентского государственного экономического

университета соискатель

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОЕКТОВ АГРОБИЗНЕСА

Erkinkhojiev Ismoiljon

Tashkent state university of economics

researcher

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

MODERN METHODS OF FINANCING AGRIBUSINESS PROJECTS

Annotatsiya. *Maqolada davlat tomonidan agrobiznes loyihalarini moliyalashtirish zarurligi, agrobiznes loyihalarini qo'llab-quvvatlashdagi o'rni va agrar sohada raqobatbardoshligini oshirish haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *agrobiznes, kredit, subsidiya, sug'urta, tijorat banklari, loyiha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi.*

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость государственного финансирования проектов в сфере агробизнеса, его роль в поддержке таких проектов и повышении конкурентоспособности в сельскохозяйственном секторе.*

Ключевые слова: *agrobiznes, кредитование, субсидирование, страхование, коммерческие банки, проект, государственная поддержка, сельское хозяйство.*

Abstract. *The article examines the need for government funding for agribusiness projects, its role in supporting such projects and increasing competitiveness in the agricultural sector.*

Keywords: *agribusiness, lending, subsidies, insurance, commercial banks, project, government support, agriculture.*

Kirish

Agrobiznes bu bozor iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va uning mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, sotish, saqlash, taqsimlash bilan bog'liq sohasi hisoblanadi. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologik muammolar keskinlashayotgan sharoitda sohada unumdorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqbul darajasiga yetkazish jarayonida agrobiznesni rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy rag'batlantirishning samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Dunyo mamlakatlarida agrobiznesni yanada samarali, raqobatbardosh qilish, xomashyo ishlab chiqarishdagi

qaramlikni bartaraf etish, ishchi kuchi ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsiyalar va texnologiyalar transferini o'z ichiga olgan yuqori samarali ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlash talab qilinmoqda. Bugungi kunda jahonda agrobiznesni rivojlantirishda samarali tashkiliy-iqtisodiy rag'batlantirish samaradorligini oshirish mexanizmlarini joriy qilish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Xorij mamlakatlarida agrar sohani samarali rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlar tarkibida agrobiznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini taokimillashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada iqlim, biologik xilma xillik, qashshoqlik, oziq-ovqat yetishmasligi kabi muammolarning ilmiy yechimlarini asoslash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulotlarning isrof bo'lishini oldini olish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar yetishtirishning samarali mexanizmlarini yaratish to'g'risida ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston – 2030 strategiyasida har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovatsiyalar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi markazlarni tashkil qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvani sug'urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug'urta jamg'armasini tashkil etish va unga 100 mln.dollarni jalb qilish, dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy qilish bo'yicha aniq ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xorij davlatlarining iqtisodchi olimlaridan xususan, agrobiznes loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy usullarini takomillashtirish borasidagi yirik tadqiqotlar va nazariy ishlanmalar yetakchi iqtisodchilardan Gibson, D. Miller, Maatooft Ali Re, Tajeddini Kayhan, Y.Shumpeter, B.Wingwon, A.L.Fruhling, K.Siau, H.Sulistyo, Siyamtinah, O.Takhumova, Schumpeter, A.Joseph, A.Smithlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Doschanov.T.D, Ruzmetov.B.R, Abdullaev.I.S, Sauxanov.J, Gulyamov.S.S, Shodiev.T.Sh, Abdullaev.Y.A, Yo'ldoshev.M, Yusupov.M.S, Bobokulov.N.A, Rashitova.N, D.S.Ashurova kabilarning ilmiy ishlarini alohida qayd etish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot metodologiyasining asosini agrobiznes loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy usullari bo'yicha tadqiqot olib borgan yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning ishlari tashkil etadi. Nazariy kuzatish, ilmiy abstraksiya va qiyosiy tahlil, statistik, monografik kuzatuv va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 366 216,0 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar - 356 406,4 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 7 408,0 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi - 2 401,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 352 689,4 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 159 110,7 mlrd so'mni (105,9 %), chorvachilik mahsulotlari 193 578,7 mlrd so'mni (102,1 %) tashkil qildi. Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (42 933,3 mlrd so'm), Qashqadaryo (34 301,1 mlrd so'm), Toshkent (34 264,5 mlrd so'm) va Farg'ona (33 689,1 mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi (11 415,4 mlrd so'm), Sirdaryo (11 453,1 mlrd so'm) va

Navoiy (16 633,7 mlrd so‘m) viloyatlarini keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘sish sur‘atlari Farg‘ona (107,0 %), Jizzax (105,9 %), Sirdaryo (105,6 %) va Toshkent (104,9 %) viloyatlarida qayd etildi. Andijon (100,8 %), Qashqadaryo (101,9 %), Surxondaryo (102,1 %) viloyatlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

O‘zbekiston Respublikasi agrobiznes faoliyatini rivojlantirish va moliyalashtirish uchun davlat moliyaviy yordami, ya’ni bilvosita davlat yordami (soliq imtiyozlarini taqdim etish), bevosita davlat yordami (byudjetdan ajratmalar, byudjet kreditlari) shakllarda amalga oshiriladi. Quyidagilar qishloq xo‘jaligini davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

- agrar sohada tovar ishlab chiqaruvchilarni subsidiyalar, grantlar, kompensatsiyalar shaklida bevosita byudjetdan qo‘llab-quvvatlash, bunda mablag‘lar turdosh tarmoqlarga yo‘naltirilgan, shuningdek, tovar ishlab chiqaruvchilarning to‘lov qobiliyatini oshirish va ularning investitsion jozibadorligini oshirish, agrosanoat majmui tovar ishlab chiqaruvchilarining mavsumiy xarajatlari uchun imtiyozli shartlarda qisqa muddatli naqd kredit berishni qo‘llab-quvvatlash;

- agrar soha korxonalar va tashkilotlarini uzoq muddatli lizing asosida mashinasozlik mahsulotlari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash; muayyan sohalarda ixtisoslashtirilgan davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash: fermerlikni rivojlantirish, ehtiyot qismlarning mavsumiy zaxiralarini, urug‘lik va veterinariya preparatlarining markazlashtirilgan fondlarini yaratish va boshqalar;

- agrar sohaga kapital qo‘yilmalarni, shuningdek markazlashtirilgan va markazlashmagan maqsadli dasturlar doirasidagi investitsiyalarni davlat tomonidan qaytarilmaydigan moliyalashtirish, tanlov asosida amalga oshiriladigan maqsadli dasturlar doirasida investitsiyalarni qaytarib olinmasdan moliyalashtirish, shuningdek jalb qilingan investitsiya kreditlari bo‘yicha davlat kafolatlarini berish.

Bizningcha, ushbu muammolarni o‘rganishda agrobiznes loyihalarini davlat tomonidan tartibga solish vositalarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish lozim:

- 1) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish vositalari;
- 2) qishloq aholisining ijtimoiy xavfsizligini ta‘minlash va qishloq joylarining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish vositalari.

Bu guruhlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish vositalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun maxsus soliq rejimlarini o‘rnatish;

- qishloq va shaharlarda sotib olish, saqlash, qayta ishlash va sotish, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot, xom ashyo va oziq-ovqat;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga minimal va maksimal narxlarni belgilash;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining importi va eksportini tarif va tarifsiz tartibga solish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini qo‘llab-quvvatlash;


- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga va agrooziq-ovqat sektorining boshqa subyektlariga subsidiyalar, subvensiyalar, kafolatlar va kompensatsiyalar berish, byudjetdan moliyalashtirishning boshqa shakllari;

- agrooziq-ovqat sohasida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va boshqalar.

Bugungi kunda ishlab chiqarish resurslarini taqsimlashning to'g'ri variantini aniqlash bilan bir qatorda agrobiznes faoliyatining muhim elementi ularning narx strategiyasini amalga oshirish vositalarini aniqlashdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida korxonalaridan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olishda o'z shartlarini talab qiladigan vositachilarning sezilarli qismi mavjud.

Shuni ta'kidlash kerakki, sotib olish narxlari haqiqiy narxlardan sezilarli darajada past. Agrar sohani rivojlanishini ta'minlashning tashkiliy iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirishda kreditlash va boshqa bank xizmatlari, risklarni sug'urtalash, qarz va garov bozorlari, investitsiyalar bo'yicha vositachilik xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Kreditlashning past darajada rivojlanishi kreditlash, garov bazasini shakllantirish mexanizmlari va boshqa kafolat turlarining yo'qligi bilan bog'liq. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning sug'urta kabi muhim tarkibiy qismi sug'urta tartiblari va o'zaro sug'urtani tashkil etish mexanizmlari standartlashtirilmaganligi sababli yetarli darajada samarali rivojlanmayapti.

Agrar soha korxonalarining iqtisodiy mexanizmida ikkita tashqi va ichki iqtisodiy quyi tizimni ajratib ko'rsatish kerak. Tashqi iqtisodiy muhit davlat tuzilmalari va qishloq xo'jaligi korxonalari (narx siyosati va savdo ekvivalenti, soliq tizimi, moliya-kredit mexanizmi, sug'urta tizimi) o'rtasida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi, butun iqtisodiyotning agrar sohaga va har bir agrar soha korxonasiga uning mustaqil tarkibiy qismi sifatida ta'sir qiladi. O'z navbatida, ichki iqtisodiy muhit korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini, biznesni rejalashtirishni, ijara munosabatlarini, iqtisodiy hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, iqtisodiy mexanizmni tartibga solish deb ataladigan sohalar, ya'ni: tashqi va ichki muhit nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak (1-rasm).



1-rasm. Agrobiznes korxonalari faoliyati samaradorligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmi

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, global moliyaviy beqarorlikni kuchayishi sharoitida agrobiznes loyihalarini moliyalashtirishning barqarorligini ta'minlash barcha tomonlama yondashuvni talab qiladi. Bunda:

- agrobiznes loyihalarini shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va bozor infratuzilmasining ahamiyati asoslandi. Shu bilan birga, global oziq-ovqat xavfsizligi sharoitida agrobiznes faoliyatini innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

- agrobiznes loyihalarini moliyalashtirishda faqatgina an'anaviy bank kreditlari yoki davlat subsidiyalariga tayanish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bunda agrar sohada veksellar, obligatsiyalari, faktoring kabi muqobil moliyaviy vositalarni joriy etish va rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSh, Koreya, Germaniya tajribalarini o'rganish va moslashtirish zarur.

- agrobiznes va oziq-ovqat yo'nalishidagi qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida xorijiy moliya institutlarning mablag'larini jalb etish hisobidan imtiyozli, uzoq muddatli (eng kamida 10 yilgacha) kreditlar ajratish.

- agrar sohada eksport qiluvchi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Davlatning maxsus jamg'armalari resurslari hisobidan tijorat banklariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar ajratish.

- agrar sohada yuqori sifatli, raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida organik mahsulotlar yetishtirish uchun xalqaro darajada tan olinadigan sertifikatlarga ega korxonalariga ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'ini 50 foiz pasaytirilgan stavkada to'lash, shuningdek paxta va g'alla yetishtiruvchi xo'jaliklarni moliyaviy rag'batlantirish uchun ekin maydonlarini sug'orishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ko'chma generatorlar kabi uskunalarni sotib olish xarajatlarini subsidiyalashni yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Эргашев, Р.А. Управление инвестиционным процессом в АПК: дис...канд. экон. наук: 08.00.05 / Р.А. Эргашев. – Душанбе, 1997. – 163 с.

2. Ораев.В.А. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy rag'batlantirish samaradorligi (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida): iqt. fan. bo'y. fals. dokt (PhD) diss. avtoref. – N.: 2025. – 53 b.

3. Ларинина, Т. И, Бармина, Е. А. Направления и перспективы государственной поддержки АПК в Кировской области // Общество. Наука. Инновации (НПК-2019). – Киров: Вятский государственный университет, 2019. – С. 290-294.

4. Пильникова.И. Ф., Тизякова. М. А. Источники финансирования сельскохозяйственных предприятий // Молодежь и наука. – 2018. – № 4. – С. 107.

5. Erkinxojiyev.I.I. Agrar sohani rivojlantirishda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali.№ 7-son.2025yil.58-60 betlar.

6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/>

Moyliyev Murod Baxtiyorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

tayanch doktoranti

moyliyev.murod.mm.70@gmail.com

**SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASHDA INVESTITSİYALARNI JOYLASHTIRISH VA AKTIVLARNI
BOSHQARISH MEKANIZMINING O'RNI**

Мойлиев Мурод Бахтиёрович

Базовый докторант

Ташкентский государственный экономический
университет

moyliyev.murod.mm.70@gmail.com

**РОЛЬ МЕХАНИЗМОВ РАЗМЕЩЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ И УПРАВЛЕНИЯ
АКТИВАМИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ
СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ**

Moyliyev Murod Bakhtiyorovich

PhD Student (Doctoral Researcher)

Tashkent State University of Economics

moyliyev.murod.mm.70@gmail.com

**THE ROLE OF INVESTMENT ALLOCATION AND ASSET MANAGEMENT
MECHANISMS IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY
OF INSURANCE COMPANIES**

Аннотация: Мақоллада sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiyalarni joylashtirish va aktivlarni boshqarish mexanizmlarining o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda investitsiya portfeli tarkibi va aktivlarni boshqarish samaradorligining likvidlik, daromadlilik hamda risklar muvozanatiga ta'siri o'rganilgan. O'zbekiston sug'urta bozori misolida investitsiya faoliyatining amaldagi holati baholanib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar berilgan.

Калит so'zlar: sug'urta kompaniyalari, moliyaviy barqarorlik, investitsiyalarni joylashtirish, aktivlarni boshqarish, investitsiya portfeli, likvidlik, daromadlilik, risklarni boshqarish, to'lovga layoqatlilik, sug'urta bozori.

Аннотация: В статье проанализирована роль механизмов размещения инвестиций и управления активами в обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний. В исследовании рассмотрено влияние структуры инвестиционного портфеля и эффективности управления активами на ликвидность, доходность и баланс рисков. На примере страхового рынка Узбекистана дана оценка текущего состояния инвестиционной деятельности и сформулированы научные выводы, направленные на укрепление финансовой устойчивости.

Ключевые слова: страховые компании, финансовая устойчивость, размещение инвестиций, управление активами, инвестиционный портфель

Abstract: The article analyzes the role of investment allocation and asset management mechanisms in ensuring the financial stability of insurance companies. The study examines the impact of the investment portfolio structure and asset management efficiency on liquidity, profitability, and risk balance. Based on the example of the insurance market of Uzbekistan, the current state of investment activity is assessed, and scientific conclusions aimed at strengthening financial stability are presented.

Keywords: insurance companies, financial stability, investment allocation, asset management, investment portfolio

KIRISH

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari moliya bozorining muhim institutlaridan biri bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligi sug'urta tizimining uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda sug'urta zaxiralari va o'z mablag'larini samarali boshqarish, xususan, investitsiyalarni oqilona joylashtirish va aktivlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, ular sug'urta mukofotlari hisobidan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini shakllantiradi va ushbu mablag'larni investitsiya faoliyatiga yo'naltiradi. Investitsiya portfelining to'g'ri shakllantirilishi likvidlik, daromadlilik va xavflilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi hamda kompaniyaning to'lovga qobiliyati va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, sug'urta kompaniyalarida investitsiyalarni joylashtirish va aktivlarni boshqarish mexanizmining amaldagi holatini tahlil qilish, uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu masala sug'urta bozori va alohida sug'urta kompaniyalari misolida tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda investitsiya faoliyati va aktivlarni boshqarish mexanizmi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar sug'urta kompaniyalarining to'lovga qobiliyati, likvidligi va daromadlilikini ta'minlashda investitsiya portfelining tarkibi va risklarni boshqarish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratganlar. Xorijiy olimlar, jumladan, K. Harrington, G. Niehaus, E. Vaughan va M. Skipperlarning ilmiy ishlarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi sug'urta zaxiralarning yetarliligi, aktivlar sifati va investitsiyalarni diversifikatsiyalash darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslab berilgan.[1-3] Ularning tadqiqotlarida aktivlarni boshqarishda xavfsizlik, likvidlik va daromadlilik tamoyillariga rioya etish sug'urta kompaniyalari barqaror faoliyatining muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Rossiyalik olimlar I.T. Balabanov, V.D. Bazilevich, L.A. Orlanova va A.N. Romanovlarning ilmiy ishlarida sug'urta kompaniyalarining investitsiya siyosati moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim instrumenti sifatida tahlil qilingan. Ular sug'urta kompaniyalari aktivlarini joylashtirishda davlat qimmatli qog'ozlari, bank depozitlari va real aktivlar o'rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Bektemirov A. B., Taniyev I. X., Sobirov N. X. va Ruzibayeva N. X. muallifligidagi "Sug'urta ishi" darsligida esa sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmlari sifatida ustav kapitali va o'z mablag'lari yetarliligi mexanizmi, sug'urta zaxiralarni shakllantirish mexanizmi, qayta sug'urtalash mexanizmi, investitsiya faoliyati va aktivlarni joylashtirish mexanizmini keltirgan.[4]


G. Jumayeva, R. Djalilov va R. Rashidovlarning “Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti” darsligida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmlari sifatida zaxira fondlarini tashkil etish mexanizmi, qayta sug‘urtalash mexanizmi, investitsiya mexanizmi hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari yoritib berilgan.[5]

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsiyalarni joylashtirish va aktivlarni boshqarish mexanizmining o‘rnini aniqlashdir. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar qo‘llanilib, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, investitsiya faoliyati va aktivlarni boshqarish mexanizmlarining samaradorligini baholash imkoniyati yaratildi. Tadqiqot davomida aktivlar va investitsiyalarning o‘sish dinamikasi, portfel tarkibi, uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar, asosiy vositalar va boshqa aktivlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi roli tahlil qilindi. Qiyosiy va trend tahlili metodlari yordamida investitsiya faoliyati va aktivlarni boshqarish mexanizmlari kompaniyaning likvidligi, to‘lovga qobiliyati, daromadlilik va risk darajasi bilan bog‘liqligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari asosida sug‘urta kompaniyalarida investitsiyalarni diversifikatsiyalash, aktivlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu bilan metodologiya sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsiya va aktivlarni boshqarish mexanizmini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Natija va muhokama.

2024 yil yakuni bo‘yicha sug‘urta kompaniyalarining investitsiya portfeli 6,4% ga o‘sib, jami 6,54 trillion so‘mni tashkil etdi. Investitsiyalarning katta qismi bank depozitlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning hajmi 2024 yilda 13,5% ga oshib, 4,58 trillion so‘mga yetdi. Shu yilning oxirida qimmatli qog‘ozlarga kiritilgan mablag‘lar esa 1 303,76 milliard so‘mni tashkil etib, sug‘urta tashkilotlarining umumiy investitsiyalaridagi ulushi 19,9% ni tashkil qildi, shuningdek, boshqa investitsion yo‘nalishlar ham mavjud. 1-rasmda sug‘urta kompaniyalarining investitsiyalari tasvirlangan. 2024 va 2025 yillarining 9 oylik ko‘rsatkichlarini solishtirganda, investitsiya portfelining tuzilmasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Agar 2024 yilda portfeldagi asosiy qism depozitlar hisobiga (69%) shakllangan bo‘lsa, 2025 yilda ushbu ulush 64% ga kamaygan. Bu esa investitsiya strategiyasining diversifikatsiyalashuvi kuchayganini va kapitalning boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilganini bildiradi. Umuman olganda, sug‘urta kompaniyalarining investitsiya portfeli tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2021-2024-yillarda ularning investitsiya strategiyasi asosan konservativ yo‘nalishga - ya’ni bank depozitlari va past riskli aktivlarga qaratilgan bo‘lgan. Biroq, 2025-yilning 9 oylik yakunlariga ko‘ra, portfel tarkibida muvozanatli diversifikatsiyaga o‘tish jarayoni sezilarli darajada kuchaygan. Jumladan, depozitlarning ulushi kamayib, ko‘chmas mulk investitsiyalarining hissasi oshgani sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsiya daromadlilikini oshirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda investitsiya siyosati moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, likvidlikni saqlash va risklarni minimallashtirish prinsiplari asosida shakllangan. Kelajakda esa portfelni yanada diversifikatsiya qilish, xususan qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishonchli va yuqori daromadli vositalar ulushini oshirish kompaniyalarning uzoq muddatli moliyaviy samaradorligini kuchaytirishi mumkin.



1-rasm. Sug'urta tashkilotlarning investitsiyalari. (foizda) [6]

2021-2025-yillar davomida sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatida nafaqat miqdoriy o'sish, balki tarkibiy o'zgarishlar ham kuzatilgan. Shu davrda umumiy investitsiya hajmi 2021-yilda 3,7 trillion so'mdan 2024-yilda 6,5 trillion so'mga, 2025-yilning 9 oylik yakunlariga ko'ra esa 9,1 trillion so'mga yetib, sug'urta kompaniyalarining investitsiya salohiyati sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Portfel tarkibining tahlili shuni ko'rsatadiki, bank depozitlari butun davr davomida asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda; 2021-yilda ulushi 59% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 70% gacha oshgan, bu esa kompaniyalar past riskli va yuqori likvidlikka ega aktivlarga ustuvor ahamiyat berayotganini bildiradi. Shu bilan birga, 2025-yilning 9 oylik ko'rsatkichlarida depozitlarning ulushi 64% ga tushgan, bu esa portfelni diversifikatsiya qilishga intilishni kuchaytirganini ko'rsatadi.

Qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar ulushi esa tahlil qilinayotgan davrda izchil kamaygan; 2021-yildagi 29% dan 2025-yilning 9 oyligida 15% gacha tushgan, bu sug'urta kompaniyalarining bozor risklariga ehtiyotkor yondashuvini va fond bozorida noaniqlik sharoitida kapitalni saqlash strategiyasini aks ettiradi. Shu bilan birga, ko'chmas mulk investitsiyalari alohida e'tiborga loyiq o'zgarishlarni ko'rsatadi: 2021-2024-yillarda ulushi 7-9% oralig'ida nisbatan barqaror bo'lsa, 2025-yil 9 oyligida 19% ga oshgan, bu esa real aktivlarga, xususan uzoq muddatli va inflyatsiyaga nisbatan barqaror instrumentlarga bo'lgan qiziqishning kuchayganini bildiradi. Ustav fondidagi ishtirok va boshqa investitsiyalar esa butun davr mobaynida past darajada qolgan; ustav fondidagi ulush 2021-yilda 4% bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda 1-2% oralig'ida shakllangan, bu esa sug'urta kompaniyalarining yuqori riskli va past likvidlikka ega investitsiyalarga ehtiyotkor siyosatini ko'rsatadi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiyalarni joylashtirish va aktivlarni boshqarish mexanizmi muhim rol o'ynaydi. 2021–2025-yillar davomida sug'urta kompaniyalarining investitsiya portfeli sezilarli o'sish va tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Asosiy mablag'lar bank depozitlarida saqlanishiga qaramay, portfelni diversifikatsiyalashga qaratilgan jarayonlar kuchaydi, qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk kabi boshqa yo'nalishlarga kapital yo'naltirildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, past riskli va yuqori likvid aktivlarga ustuvor ahamiyat berish sug'urta kompaniyalarining barqaror faoliyatini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, real aktivlar va uzoq muddatli investitsiyalarga qiziqishning oshishi kompaniyalarning inflyatsiya va bozor risklariga nisbatan ehtiyotkor siyosat olib borayotganini ko'rsatadi. Ustav fondidagi ishtirok va boshqa yuqori riskli yo'nalishlarning past darajada qolishi esa kapitalni saqlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan strategiyaning uzluksizligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, investitsiyalarni joylashtirish va aktivlarni samarali boshqarish mexanizmi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda markaziy ahamiyatga ega bo'lib, kompaniyalar portfel tarkibini diversifikatsiyalash va xavf-xatarlarni optimallashtirish orqali to'lovga qobiliyat va likvidlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Harrington, S. E., & Niehaus, G. R. (2003). *Risk Management and Insurance*
2. Vaughan, E., & Vaughan, T. (1995). *Essentials of Insurance: A Risk Management Perspective*.
3. Harrington, S. E. (2005). *Capital Adequacy in Insurance and Reinsurance*. In *Capital Adequacy beyond Basel: Banking, Securities, and Insurance*. Oxford University Press.
4. **Bektemirov, A. B., Taniyev, I. X., Sobirov, N. X., & Ruzibayeva, N. X. (2022).** *Sug'urta ishi* [O'quv qo'llanma]. Samarqand.
5. **Jumayeva, G., Djalilov, R., & Rashidov, R. (2019).** *Sug'urta nazariyasi va amaliyoti* [O'quv qo'llanma]. Toshkent.
6. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi rasmiy sayti.

Xayitboyeva Laylo OybekovnaToshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil
izlanuvchisi,E-mail: l.khayitboeva@tsue.uz

ORCID: 0009-0007-8983-9265

**STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINING ZAMONAVIY USULLARI: KORXONALAR
AMALIYOTIDA QO‘LLANILISHI VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI****Хайитбоева Лайло Ойбековна,**независимый исследователь, Ташкентский
государственный экономический университет.E-mail: l.khayitboeva@tsue.uz**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА:
ПРИМЕНЕНИЕ НА ПРАКТИКЕ****Laylo O. Khayitboyeva**, independent researcher,

Tashkent State University of Economics. E-mail:

l.khayitboeva@tsue.uz**ПРЕДПРИЯТИЙ И РЕКОМЕНДАЦИИ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ
MODERN METHODS OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING: ENTERPRISE
APPLICATION AND IMPROVEMENT RECOMMENDATIONS**

Annotatsiya: Maqolada strategik boshqaruv hisobining zamonaviy usullari (ABC, target/kaizen costing, funksional qiymat tahlili, benchmarking, BSC, EVA) korxonalar amaliyotida qo‘llash mexanizmi hamda ularni budjetlash va KPI bilan integratsiyalash bo‘yicha takomillashtirish tavsiyalari bayon etiladi. Adabiyotlar tahlili va amaliy diagnostika natijasida ma‘lumotlar parchalanishi, xarajat drayverlari tahlilining yetishmasligi va budjet–KPI uzviyligining sustligi asosiy to‘siqlar ekani ko‘rsatildi. Taklif etilgan integratsiyalashgan model korxonada “ma‘lumot → usul → nazorat → qaror” zanjirini yo‘lga qo‘yish orqali tannarxni pasaytirish va marjani oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: strategik boshqaruv hisobi, ABC, target costing, kaizen costing, funksional qiymat tahlili, benchmarking, BSC, EVA, budjetlash, ERP.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы стратегического управленческого учёта (ABC, target/kaizen costing, функционально-стоимостной анализ, benchmarking, BSC, EVA) и возможности их применения на предприятиях. На основе систематического обзора источников и практико-ориентированной диагностики показано, что ключевые ограничения внедрения связаны с фрагментацией данных, слабым анализом драйверов затрат и разрывом между бюджетированием и KPI. Предложена интегрированная модель совершенствования, объединяющая центры ответственности, ERP-бюджетирование, методы калькулирования и стратегические KPI (BSC–EVA). Реализация модели позволяет повысить прозрачность затрат, ускорить управленческие решения и обеспечить управляемое снижение себестоимости.

Ключевые слова: стратегический управленческий учёт, ABC, target costing, kaizen costing, функционально-стоимостной анализ, benchmarking, BSC, EVA, бюджетирование, ERP.

Abstract: The paper examines modern methods of strategic management accounting (ABC, target/kaizen costing, functional value analysis, benchmarking, BSC, EVA) and their applicability in enterprise practice. A systematic review and practice-oriented diagnostics indicate that adoption barriers include data fragmentation, weak cost-driver analytics, and poor alignment between budgeting and KPI systems. An integrated improvement model is proposed, combining responsibility centers, ERP-based budgeting, advanced costing techniques, and strategic performance metrics (BSC–EVA). The model increases cost transparency, supports faster decision-making, and enables managed cost reduction aimed at margin growth.

Keywords: strategic management accounting, activity-based costing, target costing, kaizen costing, functional value analysis, benchmarking, balanced scorecard, EVA, budgeting, ERP.

ВВЕДЕНИЕ

Рост конкуренции и давление на маржинальность усиливают роль инструментов управления, позволяющих снижать себестоимость на стратегическом горизонте. Стратегический управленческий учёт (СУУ) расширяет традиционный управленческий учёт за счёт ориентации на цепочку ценности, анализ конкурентов и факторов, формирующих структуру затрат.¹

Во многих организациях данные о затратах формируются преимущественно для целей финансовой отчётности и налогообложения, тогда как управленческие решения требуют аналитики драйверов затрат, процессной детализации и оценки влияния затрат на долгосрочную рентабельность. Это снижает качество решений по ассортименту, ценообразованию и инвестициям в эффективность.²

Цель статьи — обосновать практические рекомендации по внедрению современных методов СУУ и их интеграции в единый управленческий контур «данные → методы → контроль → решения».

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В исследованиях стратегический управленческий учёт связывается с анализом цепочки ценности и стратегическим управлением затратами. Цепочка ценности позволяет рассматривать затраты по стадиям создания ценности и выявлять источники конкурентного преимущества.³

ABC (activity-based costing) повышает точность распределения накладных расходов через выделение активностей и драйверов. Target costing задаёт целевую себестоимость исходя из рыночной цены и целевой маржи; kaizen costing обеспечивает планомерное снижение затрат через непрерывные улучшения после запуска продукта.⁴

¹Bromwich, M. (1990). The case for strategic management accounting. *Accounting, Organizations and Society*, 15(1–2), 27–46.

²Johnson, H.T. & Kaplan, R.S. (1987). *Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting*. Boston: Harvard Business School Press.

³Porter, M.E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.

⁴Cooper, R. & Kaplan, R.S. (1988). Measure costs right: make the right decisions. *Harvard Business Review*, 66(5), 96–103.

BSC (balanced scorecard) связывает стратегию с системой показателей и инициатив, а EVA (economic value added) измеряет создание стоимости с учётом стоимости капитала и полезна для оценки эффективности подразделений и проектов.⁵

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методология включает: (1) систематический обзор источников по СУУ и современным методам калькулирования; (2) сравнительный анализ инструментов по критериям применимости, требований к данным и ожидаемого эффекта; (3) разработку интегрированной модели внедрения, учитывающей центры ответственности, бюджетирование и KPI.⁶

Таблица 1.

Современные методы стратегического управленческого учёта и ожидаемый эффект

Метод	Суть	Условия внедрения	Эффект
ABC	Затраты по активностям/драйверам	Процессная модель, данные	Сокращение потерь, точный калькул.
Target costing	Целевая себестоимость от рынка	Совм. работа R&D/маркетинг	Оптимизация конструкции
Kaizen costing	Непрерывное улучшение	Культура улучшений, стандарты	Постоянное снижение затрат
ФВА	Функции ↔ затраты	Декомпозиция функций	Рост ценности при тех же затратах
Benchmarking	Сравнение с лучшими	Доступ к метрикам	Быстрое внедрение практик
BSC	Стратегия → KPI → инициативы	KPI-карта, владельцы	Согласование целей/действий
EVA	Прибыль – стоимость капитала	WACC и корректные данные	Ориентация на создание стоимости

Источник: составлено автором на основе обобщения научных источников.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Анализ показывает, что наибольший эффект достигается при комплексном внедрении методов СУУ, когда данные (ERP), бюджеты и KPI образуют единый контур управления. На практике часто наблюдаются три разрыва: (1) между учётом и процессами; (2) между бюджетом и фактом; (3) между показателями и мотивацией.⁷

⁵Kaplan, R.S. & Norton, D.P. (1996). The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press.

⁶Tranfield, D., Denyer, D. & Smart, P. (2003). Towards a methodology for developing evidence-informed management knowledge by means of systematic review. British Journal of Management, 14(3), 207–222.

⁷Anthony, R.N. & Govindarajan, V. (2007). Management Control Systems. 12th ed. Boston: McGraw-Hill/Irwin.




Рисунок 1. Интеграция данных, методов СУУ и KPI (концептуальная схема)

Источник: составлено автором.

Рекомендуемая логика внедрения включает четыре этапа:

- 1) Диагностика: инвентаризация статей затрат, карта процессов, выявление драйверов.
- 2) Организация: центры ответственности, регламенты контроля отклонений, лимиты.
- 3) Методы: пилот ABC на ключевых процессах; target costing на стадии проектирования; kaizen costing в производстве.
- 4) Контроль: BSC-карта KPI + EVA для подразделений/проектов; ERP-бюджетирование и BI-мониторинг отклонений.

Ожидаемые эффекты включают повышение прозрачности накладных расходов, снижение не ценностных активностей, усиление дисциплины бюджетирования и ускорение управленческих решений. Для закрепления результата важно связать KPI и мотивацию руководителей центров ответственности с показателями эффективности затрат и созданием стоимости.⁸

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Современные методы стратегического управленческого учёта дают предприятиям инструменты управляемого снижения себестоимости и роста маржинальности, однако их результативность зависит от зрелости данных, процессной модели и управленческого контура «бюджет–KPI–мотивация». Наиболее практичным является интегрированный подход, объединяющий ABC/target/kaizen, ФБА и benchmarking с BSC–EVA и ERP/BI-аналитикой. Реализация предложенной модели позволяет перейти от фрагментарного контроля статей затрат к управлению драйверами затрат и созданием ценности в цепочке бизнес-процессов. В результате повышается прозрачность затрат, ускоряется цикл план–факт–анализ–коррекция и формируются предпосылки для устойчивого повышения конкурентоспособности предприятия.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Abdugʻaniev, A.A. (2003). Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari va ularning yechimlari. Toshkent: TMI.
2. Anthony, R.N. & Govindarajan, V. (2007). Management Control Systems. 12th ed. Boston: McGraw-Hill/Irwin.

⁸Otley, D. (1999). Performance management: a framework for management control systems research. Management Accounting Research, 10(4), 363–382.

3. Bromwich, M. (1990). The case for strategic management accounting. *Accounting, Organizations and Society*, 15(1–2), 27–46.
4. Chenhall, R.H. (2003). Management control systems design within its organizational context. *Accounting, Organizations and Society*, 28(2–3), 127–168.
5. Cooper, R. & Kaplan, R.S. (1988). Measure costs right: make the right decisions. *Harvard Business Review*, 66(5), 96–103.
6. Cooper, R. & Slagmulder, R. (1997). *Target Costing and Value Engineering*. Portland: Productivity Press.
7. Drury, C. (2015). *Management and Cost Accounting*. 9th ed. Andover: Cengage Learning.
8. Hansen, D.R., Mowen, M.M. & Guan, L. (2009). *Cost Management: Accounting and Control*. 6th ed. Mason, OH: South-Western Cengage.
9. Horngren, C.T., Datar, S.M. & Rajan, M. (2015). *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. 15th ed. Boston: Pearson.
10. IMA (2008). *Value Chain Analysis for Assessing Competitive Advantage. Statement on Management Accounting*. Montvale, NJ: IMA.
11. Johnson, H.T. & Kaplan, R.S. (1987). *Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting*. Boston: Harvard Business School Press.
12. Kaplan, R.S. & Norton, D.P. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Boston: Harvard Business School Press.
13. Langfield-Smith, K. (2008). Strategic management accounting: how far have we come in 25 years? *Accounting, Auditing & Accountability Journal*, 21(2), 204–228.
14. Monden, Y. (1995). *Cost Reduction Systems: Target Costing and Kaizen Costing*. Portland: Productivity Press.
15. Otley, D. (1999). Performance management: a framework for management control systems research. *Management Accounting Research*, 10(4), 363–382.
16. Porter, M.E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.
17. Roslender, R. & Hart, S.J. (2003). In search of strategic management accounting. *Management Accounting Research*, 14(3), 255–279.
18. Shank, J.K. & Govindarajan, V. (1993). *Strategic Cost Management: The New Tool for Competitive Advantage*. New York: Free Press.
19. Stewart, G.B. (1991). *The Quest for Value: A Guide for Senior Managers*. New York: HarperBusiness.
20. Tranfield, D., Denyer, D. & Smart, P. (2003). Evidence-informed management knowledge via systematic review. *British Journal of Management*, 14(3), 207–222.

Zunnunov Lazizxon Olimxon O'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Moliyaviy hisob va hisobot kafedrası tayanch doktoranti

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI SHAKILLANISH TARIXI VA NAZARIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI

Zunnunov Lazizkhon

Tashkent State University of Economics,

Fundamental Doctoral Student, Department of Financial
Accounting and Reporting

HISTORY OF THE FORMATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL ACCOUNTING STANDARDS AND THEORETICAL AND LEGAL MECHANISMS

Зуннунов Лазизхон

Ташкентский государственный экономический
университет,

Аспирант-исследователь, кафедра финансового учета
и отчетности

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОГО УЧЕТА И ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ

***Annotatsiya.** Moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risida foydalanuvchilarga axborot taqdim etuvchi asosiy axborot manbai hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotning ahamiyati ayniqsa ortib, u investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan iqtisodiy qarorlar qabul qilishda tayanch axborot sifatida foydalaniladi. Shu sababli moliyaviy hisobotning sifati, ishonchliligi va solishtiriluvchanligi muhim nazariy va amaliy masalaga aylangan [1].*

***Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), kapital bozor, soliq va ma'muriy nazorat, investor, moliyaviy hisobot foydalanuvchilari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kengashi, MHXSni tartibga soladigan asosiy mexanizmlar.*

***Аннотация.** Финансовая отчетность является основным источником информации, предоставляющим пользователям сведения о финансовом положении, финансовых результатах и движении денежных средств хозяйствующего субъекта. В условиях рыночной экономики значение финансовой отчетности существенно возрастает, поскольку она используется инвесторами, кредиторами, государственными органами и другими заинтересованными сторонами в качестве ключевой информационной базы при принятии экономических решений. В связи с этим вопросы качества, надежности и сопоставимости финансовой отчетности приобретают особую теоретическую и практическую значимость [1].*

***Ключевые слова:** международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), рынок капитала, налоговый и административный контроль, инвестор, пользователи*

финансовой отчетности, совет по международным стандартам финансовой отчетности, основные механизмы регулирования МСФО.

Abstract. *Financial reporting is the primary source of information that provides users with data on the financial position, financial performance, and cash flows of an economic entity. Under market economy conditions, the importance of financial reporting significantly increases, as it is used by investors, creditors, government authorities, and other stakeholders as a key information base for making economic decisions. Therefore, the quality, reliability, and comparability of financial reporting have become important theoretical and practical issues [1].*

Keywords: *international financial reporting standards (IFRS), capital market, tax and administrative control, investor, users of financial statements, International Accounting Standards Board, key mechanisms for regulating IFRS.*

ASOSIY QISM

An'anaviy milliy buxgalteriya hisobi tizimlari ko'p hollarda soliq va ma'muriy nazorat ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, investorlar uchun zarur bo'lgan iqtisodiy axborotni to'liq aks ettira olmagan. Natijada turli mamlakatlarda tuzilgan moliyaviy hisobotlar o'rtasida sezilarli farqlar yuzaga kelgan va bu holat kapital bozorlarida axborot asimmetriyasini kuchaytirgan. Mazkur muammo moliyaviy hisobotni xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi va MHXSning shakllanishiga asos bo'ldi [2].

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) — bu xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning yagona, prinsiplarga asoslangan qoidalar tizimi bo'lib, u moliyaviy axborotni foydalanuvchilar uchun tushunarli, solishtiriladigan va ishonchli shaklda aks ettirishga qaratilgan. MHXSning asosiy maqsadi moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydali bo'lgan axborotni taqdim etishdan iborat [3].

MHXSning iqtisodiy mohiyati, avvalo, iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligi tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuvga ko'ra, xo'jalik operatsiyalari ularning hujjatdagi rasmiy shakliga emas, balki real iqtisodiy mohiyatiga ko'ra moliyaviy hisobotda aks ettiriladi [1]. Mazkur tamoyil moliyaviy axborotning haqqoniyligini oshirib, hisobotdan foydalanuvchilarning real iqtisodiy holatni to'g'ri baholashiga xizmat qiladi.

MHXSning iqtisodiy mohiyati xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq qilingan. Ray Ball MHXSni bozor iqtisodiyotining institutsional elementi sifatida baholab, uning asosiy vazifasi kapital bozorlarida axborot asimmetriyasini kamaytirish ekanligini ta'kidlaydi [4]. Uning fikricha, sifatli moliyaviy hisobot bo'lmasa, kapital bozorlari samarali ishlamaydi.

C. Nobes va R. Parker o'z tadqiqotlarida MHXSni milliy buxgalteriya tizimlarining cheklanganligini bartaraf etuvchi mexanizm sifatida ko'rib, MHXS investorlar ehtiyojlariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turishini ilmiy asoslaydi [2]. Ularning ta'kidlashicha, MHXSning prinsiplarga asoslanganligi uni turli iqtisodiy va huquqiy muhitlarda qo'llash imkonini beradi.

M. Barth, W. Landsman va M. Lang tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar MHXSni qo'llagan korxonalarda moliyaviy hisobot sifati yuqori ekanligini ko'rsatadi [5]. Xususan, ushbu mualliflar MHXS asosida tuzilgan hisobotlarda foyda ko'rsatkichlarining axborot qiymati yuqoriroq ekanini ilmiy jihatdan isbotlagan.

O'zbekiston olimlaridan S.N. Tashnazarov va A.S. Djumanov MHXSni milliy buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qiluvchi muhim nazariy-uslubiy asos sifatida baholab, uning joriy etilishi moliyaviy axborot sifatini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [10].

Moliyaviy hisobot va MHXSning iqtisodiy yo‘nalishi

Mezon	Milliy buxgalteriya hisobi	MHXS
Asosiy maqsad	Soliq va nazorat	Investorlar uchun axborot
Yondashuv	Qoidaga asoslangan	Prinsiplarga asoslangan
Iqtisodiy mazmun	Cheklangan	Ustuvor
Solishtiriluvchanlik	Past	Yuqori

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy hisobot va MHXS tushunchasi zamonaviy bozor iqtisodiyotida faqat hisob-kitob vositasi emas, balki iqtisodiy qarorlar qabul qilishni ta‘minlovchi muhim axborot instituti hisoblanadi. MHXSning iqtisodiy mohiyati moliyaviy axborotni global miqyosda uyg‘unlashtirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va kapital bozorlarining samarali ishlashini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy buxgalteriya hisobi nazariyasining ajralmas qismiga aylangan.

Shunday qilib moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining (MHXS) vujudga kelishi jahon iqtisodiyotida XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan chuqur institutsional va iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir. Xalqaro savdo hajmining kengayishi, transmilliy kompaniyalar sonining ortishi va kapital bozorlarining globallashuvi turli mamlakatlarda tuzilgan moliyaviy hisobotlarning bir-biridan keskin farqlanishi muammosini yuzaga keltirdi. Mazkur holat investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy axborotni solishtirishni murakkablashtirib, xalqaro moliyaviy axborotni uyg‘unlashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

1960–1970-yillarda AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa mamlakatlarida faoliyat yuritgan yirik auditorlik va buxgalteriya professional tashkilotlari xalqaro darajada yagona buxgalteriya standartlarini ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqdi. Natijada 1973-yilda Buyuk Britaniya va Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Niderlandiya professional tashkilotlari tomonidan International Accounting Standards Committee (IASC) tashkil etildi [3]. IASCning asosiy vazifasi xalqaro buxgalteriya standartlarini ishlab chiqish va ularni jahon amaliyotida joriy etishdan iborat bo‘ldi.

IASC faoliyati davomida 1973–2000-yillar oralig‘ida International Accounting Standards (IAS) nomi bilan tanilgan 41 ta standart ishlab chiqildi. Ushbu standartlar asosan umumiy tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ularning qo‘llanilishi ko‘proq ixtiyoriy asosda amalga oshirildi. Shunga qaramay, IAS standartlari xalqaro buxgalteriya hisobini uyg‘unlashtirish yo‘lida muhim dastlabki bosqich vazifasini bajardi [3].

2001-yilda xalqaro buxgalteriya hisobi tizimida muhim institutsional islohot amalga oshirildi va IASC o‘rniga International Accounting Standards Board (IASB) tashkil etildi. IASBning tashkil etilishi MHXS rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Aynan shu davrdan boshlab yangi standartlar International Financial Reporting Standards (IFRS) nomi ostida ishlab chiqila boshlandi [1]. IASB faoliyati mustaqil, professional va jamoatchilik manfaatlariga yo‘naltirilgan institut sifatida shakllantirildi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kengashi (IASB)

MHXSning asosiy tartibga soluvchi subyekti — Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kengashi (International Accounting Standards Board – IASB) hisoblanadi. IASB:

- yangi IFRS va IAS standartlarini ishlab chiqadi;
- mavjud standartlarga o‘zgartirishlar kiritadi;

- standartlarning rasmiy talqinlarini tasdiqlaydi.

IASB IFRS Foundation tarkibida faoliyat yuritadi va mustaqil professional organ hisoblanadi. Shu sababli MHXS davlat tomonidan emas, balki xalqaro professional standartlashtirish mexanizmi orqali tartibga solinadi.

IASB tomonidan ishlab chiqilgan IFRS standartlari prinsiplarga asoslangan yondashuvi, iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligi hamda investorlar ehtiyojlariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa MHXSni global kapital bozorlarida keng tan olinishi va qo'llanilishiga zamin yaratdi. Xususan, 2005-yildan boshlab Yevropa Ittifoqida birjada ro'yxatdan o'tgan barcha kompaniyalar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzish majburiy etib belgilandi [7].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda MHXSning tarixiy rivoji keng tahlil qilingan. C. Nobes MHXS evolyutsiyasini milliy hisob tizimlari o'rtasidagi farqlarni qisqartirishga qaratilgan institutsional jarayon sifatida baholaydi [8]. Uning fikricha, IASdan IFRSga o'tish jarayoni xalqaro moliyaviy hisobotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

Ray Ball esa MHXSning rivojlanishini kapital bozorlarining ehtiyojlari bilan izohlab, IASBning tashkil etilishi moliyaviy hisobotlarning investorlar uchun axborot qiymatini oshirganini ta'kidlaydi [4]. Uning fikricha, MHXSning global miqyosda joriy etilishi moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari ularning shakllanishi global iqtisodiy ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Biroq MHXSning xalqaro miqyosda keng qo'llanilishi va amaliyotda izchil tatbiq etilishi faqatgina standartlarning ishlab chiqilishi bilangina cheklanmay, balki ularni mustahkam huquqiy va institutsional asoslar bilan ta'minlashni ham talab etadi. Shu sababli MHXS rivojlanishining mantiqiy davomi sifatida ularning huquqiy asoslari va normativ tartibga solish mexanizmlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) birgina hujjat yoki bitta qonun bilan emas, balki xalqaro professional institutlar, konseptual hujjatlar va milliy qonunchilik majmui orqali tartibga solinadi. Ularning tartibga solinish mexanizmi ko'p bosqichli va kompleks xarakterga ega.

2-jadval

MHXSni tartibga soladigan asosiy mexanizmlar

MHXSni tartibga soladigan asosiy mexanizmlar					
1. IASB va IFRS Foundation (xalqaro daraja)	2. MHXS Konseptual asosi (nazariy-metodologik daraja)	3. IFRS, IAS va IFRIC talqinlari (normativ daraja)	4. Audit tizimi (ISA) — bilvosita nazorat	5. Milliy qonunchilik — majburiylik darajasini belgilovchi omil	6. Professional mulohaza va prinsiplarga asoslangan yondashuv

Mazkur ko'p bosqichli tartibga solish tizimi MHXSni global moliyaviy hisobot amaliyotining asosiy instituti sifatida shakllantiradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanuvchi asosiy tashkilot IFRS Foundation hisoblanadi. Ushbu fond MHXSning mustaqilligi,

shaffofligi va yuqori sifatini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, uning faoliyati maxsus Konstitutsiya bilan tartibga solinadi [1]. IFRS Foundation standartlarni ishlab chiqish jarayonida siyosiy va tijorat bosimlaridan holi bo'lish tamoyiliga amal qiladi.

MHXSni bevosita ishlab chiqish vakolati International Accounting Standards Board (IASB)ga yuklatilgan. IASB professional va mustaqil organ sifatida faoliyat yuritib, standartlarni ishlab chiqishda ochiq muhokamalar, ekspert xulosalari va manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv (due process) mexanizmidan foydalanadi [3]. Mazkur yondashuv MHXSning huquqiy jihatdan puxta va amaliyotga mos bo'lishini ta'minlaydi.

MHXSning xalqaro huquqiy maqomi ularning bevosita majburiy kuchga ega emasligi bilan tavsiflanadi. Standartlar o'z-o'zidan xalqaro shartnoma yoki qonun hisoblanmaydi, biroq ular milliy qonunchilik orqali majburiy yoki ixtiyoriy tarzda joriy etiladi [6]. Shu bois MHXSning real huquqiy kuchi ularni milliy darajada tan olish va qo'llash mexanizmlariga bog'liq bo'ladi.

Milliy darajada MHXSning huquqiy asoslari davlatning normativ-huquqiy hujjatlari orqali belgilanadi. Ko'plab mamlakatlarda MHXSni qo'llash parlament qonunlari, hukumat qarorlari yoki moliya vazirliklarining me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2002-yilda qabul qilingan 1606/2002-sonli Nizom asosida 2005-yildan boshlab birjada ro'yxatdan o'tgan barcha kompaniyalar uchun MHXS majburiy etib belgilangan [7]. Ushbu hujjat MHXSning huquqiy kuchini ta'minlashda muhim tarixiy bosqich hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham MHXSni joriy etish va qo'llashning huquqiy asoslari shakllantirilgan. Xususan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tuzish imkoniyati belgilangan bo'lib, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari orqali MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish choralari ko'rilmogda [9]. Bu holat MHXSning milliy buxgalteriya tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. London, 2018.
2. Nobes C., Parker R. Comparative International Accounting. Pearson Education, 2018.
3. IASB. International Financial Reporting Standards.
4. Ball R. IFRS: Pros and Cons for Investors. Accounting and Business Research, 2006.
5. Barth M., Landsman W., Lang M. Accounting Quality after IFRS. Journal of Accounting Research, 2008.
6. Elliott B., Elliott J. Financial Accounting and Reporting. Pearson, 2019.
7. EU Regulation No. 1606/2002.
8. Nobes C. The Survival of International Differences under IFRS. Accounting and Business Research.
9. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
10. Tashnazarov S.N., Djumanov A.S. MHXS va milliy buxgalteriya hisobi. Toshkent.

Хамдамов Баҳром Касимович
Ташкентский государственный
Экономический университет, профессор,
доктор экономических наук
Аминов Шовкат Уктам угли
АО "ИнФинБанк" Главный офис,
Помощник председателя правления
Email: shovkataminov2@gmail.com
Тел: +998 91 955 19 00
ORCID:0009-0003-3608-2343

**ПРОБЛЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА СОВРЕМЕННОМ
ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА**

Хамдамов Баҳром Касимович
Ташкент давлат иқтисодиёт университети,
профессор, иқтисод фанлари доктори
Аминов Шовкат Ўктам ўгли
АЖ “ИнФинБанк”, Бош офис,
Бошқарув Раиси ёрдамчиси
Email: shovkataminov2@gmail.com
Тел: +998 91 955 19 00
ORCID:0009-0003-3608-2343

**ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИНГ МАВЖУД РИВОЖЛАНИШ
БОСҚИЧИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ МУАММОЛАРИ**

Hamdamov Bakhrom Kasimovich
Tashkent State Economic university
professor, doctor of economics
Aminov Shovkat Uktam ugli
“InFinBank” JSC, Head Office,
Assistant to the Chairman of the Board
Email: shovkataminov2@gmail.com
Phone: +998 91 955 19 00
ORCID:0009-0003-3608-2343

**ACCOUNTING CHALLENGES AT THE CURRENT STAGE OF ECONOMIC
DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN**

В статье раскрываются вопросы возникающих основных проблем бухгалтерского учета в Узбекистане таких как учет в цифровой экономике в условиях применения криптовалют, переход на МСФО, организационные вопросы учета, подготовка квалифицированных кадров.

Ключевые слова: клиринговые операции, крипто биржа, технология блокчейн, биткоин, альткойн, майнинг и форжинг, аккредитив, хеш-суммы, финансовая отчетность, кассовый метод, метод начисления, международные стандарты финансовой отчетности, международные финансы, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты бухгалтерского учета.

Мақолада Ўзбекистонда вужудга келаётган бухгалтерия ҳисоби муаммолари очиб берилган, жумладан рақамли иқтисодиёт шароитида ҳисоб ва унинг асосий қисми крептовалюта ҳисоби, ҳисобнинг ташкилий масалалари, МҲХС га ўтиш, малакали кадрлар тайёрлаш масалари ўрганилган.

Таянч сўзлар: клиринговые операции, криптобиржа, блокчейн технологияси, биткоин, альткойн, майнинг ва форжинг, аккредитив, хеш-суммы, финансовая отчетность, молиявий ҳисобот, касса усули, ҳисоблаш усули, молиявий ҳисобот халқаро стандартлари, халқаро молия, бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари, бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари.

В статье раскрываются вопросы возникающих основных проблем бухгалтерского учета в Узбекистане таких как учет в цифровой экономики в условиях применения криптовалют, переход на МСФО, организационные вопросы учета, подготовка квалифицированных кадров.

The article reveals issues related to emerging key accounting problems in Uzbekistan, such as accounting in the digital economy in the context of cryptocurrency use, transition to IFRS, organizational accounting issues, and training of qualified personnel.

Key words: clearing operations, crypto-exchange, blocking, bitcoin, altkome, mining and forging, letter of credit, hash-sums, financial reporting, cash method, accrual method, international financial reporting standards, international finance, national accounting standards, international accounting standards accounting.

Введение

Широкомасштабные реформы в системе бухгалтерского учета в Узбекистане связаны с проводимыми в республике экономическими реформами, таких как:

- Переход на цифровую экономику.
- Фискальная политика.
- Образовательная политика.

Учет в цифровой экономике.

Поэтапная реализация реформ в области бухгалтерского учета и финансовой отчетности осуществленные за годы независимости в Республике Узбекистан стали основанием для привлечения инастранных инвестиций в экономику. Основные мероприятия были направлены для совершенствования методологической и нормотивно-правовой базы бухгалтерского учета в реальном секторе. Однако, методологические приёмы учета и проведение контроля в цифровой экономики пока не изучены и требует развитие параллельно с развитием данного сегмента экономики

В Узбекистане поставлена начало развития нового экономического сегмента - цифровой экономики. Соответствующее постановление № П.П -3832 “О мерах по развитию цифровой экономики в Республике Узбекистан” подписан Президентом 3 июля 2018 года. В соответствии с постановлением деятельность на рынке крипто активов в Узбекистане с 1 октября будет лицензирована, а технология блокчейн внедрена с 2021 года в деятельность

госорганов страны. В частности, программа предусматривает создание правовых основ реализации крипто активов на локальных и международных крипто биржах.

С данным беспрецедентным революционным документом, открывающим двери цифровой экономике, блокчейну и крипто бизнесу, имеются все шансы повышения конкурентоспособности и экономического роста страны.

Ключевой особенностью цифровой экономики и её составляющий крипто валют является отсутствие какого-либо внутреннего или внешнего администратора что диктует особые условия для ведения бухгалтерского учета и аудита.

В Узбекистане поэтапная реализация реформ в области бухгалтерского учета и финансовой отчётности осуществленные за годы независимости в Республике Узбекистан стали основанием для привлечения иностранных инвестиций в экономику. Основные мероприятия были направлены для совершенствования методологической и нормотивно-правовой базы бухгалтерского учета в реальном секторе. Однако, методологические приёмы учета и проведение контроля в цифровой экономики пока не изучены и требует развитие параллельно с развитием данного сегмента экономики.

Анализ литературы

Разработка методологических приемов бухгалтерского учета начинается с объектов учета. В цифровой экономики основным компонентом объекта учета является криптовалюта. В Википедия приводит следующую информацию о криптовалюте [7].

Криптовалюта — разновидность цифровой валюты, создание и контроль за которой базируются на криптографических методах. Как правило, учёт криптовалют децентрализованы [5]. Функционирование данных систем основано на таких технологиях как блокчейн, направленный ациклический граф, консенсусный реестр (ledger) и др [4]. Информация о транзакциях обычно не шифруется и доступна в открытом виде. Для обеспечения неизменности базы цепочки блоков транзакций используются элементы криптографии (цифровая подпись на основе системы с открытым ключом, последовательное хеширование). Термин закрепился после публикации статьи о системе Биткойн «Crypto currency» (Криптографическая валюта), опубликованной в 2011 году в журнале Forbes ([Crypto Currency](#) // Forbes.) Сам же автор биткойна, как и многие другие, использовал термин «электронная наличность» (англ. electronic cash).

Иногда новая криптовалюта появляется как ответвление (**форк**) от другой криптовалюты за счёт изменения параметров, что делает их несовместимыми. При этом обе криптовалюты могут иметь общую историю транзакций до момента разделения. Эмиссия разных криптовалют может происходить через майнинг, форжинг или **ICO**. Об экономической сути и юридическом статусе криптовалют ведутся дискуссии. В разных странах криптовалюты рассматриваются как платёжное средство, специфичный товар, могут иметь ограничения в обороте (например, запрет операций с ними для банковских учреждений).

Технология криптовалют исходит из того, что в сети нет доверенного узла — того, чьи действия гарантированно истинны и кто может подтвердить корректность чужих операций (задача византийских генералов). Впервые эта проблема была решена в системе «Биткойн» за счёт искусственного усложнения внесения изменений в реестр истории операций. Для хранения данных транзакции объединяются в блоки, из которых формируется непрерывная цепочка (блокчейн). Непрерывность обеспечивается не столько нумерацией, сколько включением в текущий блок хеш-суммы предыдущего блока, что не позволяет изменить информацию в блоке без изменения хешей во всех последующих блоках. Все хеши отвечают

определённым требованиям, выполнение которых требуется много времени либо очень дорого. Истинной считается только самая длинная цепочка. В разных криптовалютах право сформировать очередной блок получает выполнивший определённую работу (Proof-of-work), имеющий некоторую сумму на счету (Proof-of-stake), предоставивший некоторые ресурсы (Proof-of-space) либо за основу берётся иная процедура, которую легко проверить, но сложно выполнить или подделать.

Как правило, в криптовалютах разработчики изначально оговаривают верхний предел общего объёма эмиссии. Однако у некоторых криптовалют, таких как PPCoin, Novacoin, Sifcoin и других, отсутствует фиксированный верхний предел общего объёма эмиссии и возможна как эмиссия, так и демиссия (путём обязательного уничтожения фиксированной суммы в каждой транзакции).

Большинство криптовалют обеспечивают псевдонимность — все транзакции между всеми адресами общедоступны, но нет данных о владельцах адресов. Однако личность владельца может быть установлена, если становится известна дополнительная информация. В ZeroCash изложена возможность заменить псевдонимность на анонимность[6].

Криптография для конфиденциальных платежей начала использоваться с 1990 года в системе DigiCash Дэвида Чома, компания которого обанкротилась в 1998 году. Эта платёжная система была централизованной.

Впервые термин «криптовалюта» начал использоваться после появления платёжной системы «Биткойн», которая была разработана в 2009 году человеком или группой людей под псевдонимом Сатоши Накамото. Позже появились форки: Namecoin (децентрализованная DNS для регистрации внутри доменной зоны .bit), Litecoin (использует хеширование scrypt), PPCoin (использует гибридный механизм proof-of-work/proof-of-stake, не имеет верхнего предела объёма эмиссии), Novacoin (аналогична PPCoin, но использует scrypt) и множество других.

До июля 2013 года программное обеспечение всех криптовалют, кроме Ripple, базировалось на открытом исходном коде системы «Биткойн». С июля 2013 года стали появляться иные платформы, которые помимо криптовалюты поддерживают различную инфраструктуру — биржевую торговлю, магазины, мессенджеры и прочее. К таким криптоплатформам относятся: BitShares, Mastercoin, Nxt. Анонсируются и другие платформы.

Все криптовалюты, появившиеся после Биткойна — называются Альткойнами (от англ. Altcoin, alternative coin). Первые альткойны появились в 2011 году: Litecoin и Namecoin. Их разработчики стремились преодолеть ряд проблем, свойственных Биткойну (например, Litecoin обладает более высокой скоростью транзакций) или использовать технологию блокчейна в других областях (Namecoin разрабатывался для построения альтернативных корневым DNS-серверов).

Многие альткойны по своей сути очень похожи на Биткойн, имеют сходные характеристики и для работы с ними может использоваться то же оборудование, что и для Биткойна. Но некоторые криптовалюты имеют существенные отличия. Ethereum за счёт использования «умных контрактов» превратился в крипто-платформу. Ещё сильнее независимость от Биткойна видна в Ripple, которая фактически является централизованной системой. Ряд криптовалют, например Dash, сделали акцент на усилении анонимности.

По состоянию на 2015 год, около 400 альткойнов являлись «мёртвыми», их стоимость была равна нулю.

Существуют различные способы приобретения криптовалют. Новые (эмитированные) количества распределяются по изначально оговоренным процедурам, специфичным для

каждой из криптовалют (майнинг, форжинг, ICO). Майнинг и форжинг направлены на построение блокчейна: создатели новых блоков награждаются некоторым количеством эмитированной криптовалюты. При этом обычно не существует иного пути поступления в оборот новых партий криптовалюты. ICO является способом привлечения финансирования через продажу партий новой криптовалюты, которые изначально были сгенерированы и принадлежали организатору ICO. Затем остальные желающие могут получить выпущенную криптовалюту от тех, кто ей уже владеет — в обмен на обычные деньги, либо в обмен на предоставленные товары или услуги, либо в качестве пожертвований или как займ. Обмен можно проводить непосредственно между заинтересованными лицами без посредников или с помощью какой-либо из многочисленных площадок обмена цифровых валют.

Вопросы развития бухгалтерского учета и аудита в Республике Узбекистан в условиях цифровой экономики должны развиваться вместе с использованием и развитием криптовалют. Для этого следует ускорить разработку национальных стандартов финансовой отчетности и стандартов аудита на основе последних достижений международной практики. Разработать и принять совершенствованные методологические и нормотивно-правовые базы бухгалтерского учета в реальном секторе.

Методология исследования.

Как известно, для открытия депозитных счетов до востребования в национальной валюте субъектами предпринимательства (как с образованием, так и без образования юридического лица) в банк представляются большой перечень документов. Например, заявление на открытие счета; копия свидетельства о государственной регистрации; карточка с образцами подписей и оттиска печати. Банк обязан заключить договор банковского счета с любым клиентом, обратившимся в данный банк с предложением открыть счет в соответствии с банковскими правилами:

- Принимать и зачислять денежные средства, поступающие на расчетный счет;
- выполнять распоряжения организации о перечислении и выдаче сумм со счета;
- проводить другие операции, предусмотренные банковскими правилами и договорами.

Организация периодически получает из банка «Выписку с расчетного счета» с приложенными к ней платежными документами, на основании которых были получены денежные средства от других организаций или перечислены средства со счета.

Выписка с расчетного счета является регистром аналитического учета и служит основанием для бухгалтерских записей.

6. Резвякова И.В., Колдунов Э.Д. Прогнозирование финансового состояния организации. Вестник Академии знаний, № 54 (1), 2023. 336-341 стр.
7. Финансовое планирование и прогнозирование: учеб. пособие / [Е.А. Разумовская, М.С. Шуклин, В. И. Баженова, Е.С. Панфилова] ; под общ. ред. Е.А. Разумовской ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2017. — 284 с.
8. Черемушкин С.В. Прогнозирование финансовой отчетности: важнейший инструмент стратегического и тактического управления. Финансовый менеджмент, №5, 2009.

Berdiyev Temurbek Makhmudullo o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID:0009-0004-0826-6273

**O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HOLATINING ILMIY TAHLILI**

Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli
Independent Researcher, Tashkent State
University of Economics
ORCID:0009-0004-0826-6273

**SCIENTIFIC ANALYSIS OF THE STATE OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES
IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN**

Бердиев Темурбек Махмудулло угли
Независимый исследователь, Ташкентский
государственный экономический университет
ORCID:009-0004-0826-6273

**НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА**

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi holati, joriy etilgan platformalar, ularning samaradorligi va ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot 2020-2025 yillardagi statistik ma'lumotlar, so'rovlar natijalari va xalqaro hisobotlar asosida amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya ta'lim sifatini oshirish, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish va ta'limning inklyuzivligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va virtual reallik kabi ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilagan.

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiyalar, oliy ta'lim, O'zbekiston, ta'lim platformalari, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, ta'lim sifatini baholash.

Abstract. The article provides a scientific analysis of the state of integration of digital technologies in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan, the implemented platforms, their effectiveness, and their impact on the educational process. The research is conducted based on statistical data from 2020–2025, survey results, and international reports. The results show that digital transformation plays an important role in improving the quality of education, simplifying administrative processes, and ensuring inclusiveness in education. In addition, the implementation of advanced technologies such as artificial intelligence, big data analytics, and virtual reality has significantly improved the quality of education.

Keywords: digital technologies, higher education, Uzbekistan, educational platforms, digital transformation, artificial intelligence, education quality assessment.

Kirish

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu sohada izchil islohotlar olib borib, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ni qabul qilgan. Mazkur maqolaning maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holati, yutuqlari va muammolarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat bo'lib uning dolzarbligi raqamli transformatsiyaning ta'lim sifatiga ta'sirini baholash, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash zaruratidan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiya

Tadqiqotda asosan statistik tahlil ya'ni 2020-2025 yillardagi OTM lar va talabalar soni, platformalar qamrovi ko'rsatkichlari tahlili, yillar kesimida ham solishtirma tahlil, SWOT tahlili, so'rovnomma va ekspert baholash hamda xalqaro hisobotlar tahlili kabi usullardan keng foydalanildi.

Natija va muhokama


Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining statistik ma'lumotlari, HEMIS, MY EDU va e-edu.uz platformalaridagi ma'lumotlar, shuningdek xalqaro tashkilotlarning hisobotlari ishlatilgan.

Raqamli transformatsiya O'zbekiston oliy ta'lim tizimida asosiy o'rinni egallab, mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shmoqda. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari soni 2018-yildagi 77 tadan 227 taga o'sgan, ulardan 108 tasi davlat, 70 tasi nodavlat va 30 tasi xorijiy filial hisoblanadi.

HEMIS tizimi ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirib, 227 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida talaba va o'qituvchilarni hisobga olgan holda 1 milliondan ortiq foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadigan elektron hisobotlar sonini 50 dan ortiqqa yetkazdi. Bu byurokratik to'siqlarni 35-48% ga kamaytirdi va operatsion xarajatlarni 17-23% ga qisqartirdi. 2024-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, talabalarning 72% onlayn platformalardan foydalanishni samarali deb hisoblagan, bu ko'rsatkich 2026-yilga kelib 95% ga yetishi kutilmoqda.

Tadqiqotning asosiy yondashuvi statistik va solishtirma tahlillarga asoslanib, 2023-2025 yillarda 200 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalaridan foydalanildi. Ushbu so'rovlar raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash imkonini berdi, masalan, masofaviy ta'lim platformalari orqali talabalar ishtiroki 25-30% ga oshdi.

O'zbekistonning Jahon Bankining GovTech Maturity Index (GTMI) bo'yicha yuqori natijalari, xususan 2025-yilda 9-o'ringa ko'tarilishi va 0.958 ko'rsatkichiga erishishi, nafaqat davlat boshqaruvi va fuqarolik xizmatlaridagi raqamli transformatsiyani, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, jumladan oliy ta'lim tizimida ham keng qamrovli raqamlashtirish jarayonlarini aks ettiradi. GTMI indeksi to'rt asosiy komponent - davlat asosiy tizimlari, onlayn xizmatlar, fuqarolar ishtiroki va GovTech omillari orqali baholanadigan raqamli yetuklik darajasi oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Misol uchun, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida joriy etilgan bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt va raqamli identifikatsiya tizimlari oliy ta'limda elektron ta'lim platformalari, masofaviy o'qitish va talabalar boshqaruvi tizimlarini rivojlantirish uchun asos bo'ldi.



1-rasm. O'zbekistonning Jahon Banki GovTech Maturity Index (GTMI) bo'yicha o'sish dinamikasi¹ (2020–2025 y)

Global kontekstda, O'zbekiston World Banking GovTech Maturity Index da 2025-yilda 9-o'ringa ko'tarilib, 2020-yilga nisbatan 71 o'rin oshgan bo'lib, bu mamlakatning raqamli hukumat sohasidagi yutuqlarini ko'rsatadi. Indexning global o'rtacha ko'rsatkichi 0.552 dan 0.589 ga oshgan bo'lsa-da, O'zbekistonning ko'rsatkichi bundan yuqori bo'lib, Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallagan.

O'zbekistonning oliy ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiyasi nafaqat milliy strategiyalar yoki Jahon Bankining GovTech Maturity Index yutuqlari bilan bog'liq, balki xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO va UNICEF loyihalari va hisobotlari orqali ham mustahkamlanmoqda. Ushbu xalqaro hamkorliklar ta'lim sohasida inklyuzivlik, sifat va raqamli texnologiyalarni joriy etishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonning pandemiya davridagi masofaviy o'qitish tajribasini va sun'iy intellekt asosidagi innovatsiyalarni global standartlarga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

UNESCO va UNICEF hamkorligidagi 2023–2025 yillarga mo'ljallangan "Empowering Education in Uzbekistan: Leveraging ICT and Digital Learning for High-Quality and Inclusive Education" loyihasi O'zbekiston oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishga qaratilgan bo'lib, bu loyiha OTM larda inklyuzivlikni ta'minlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli o'quv vositalaridan foydalanishni nira muncha kengaytirgan. Loyiha O'zbekistonning Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan asosiylari sifatida OTM o'qituvchilari uchun milliy ICT kompetensiya ramkasini ishlab chiqish, raqamli universitetlarni modellashtirish va inkluziv ta'lim uchun raqamli vositalarni joriy etish kabilarni keltirish mumkin. Loyiha doirasida juda ko'plab ICT uskunalari yetkazib berilgan, misol uchun oladigan bo'lsak birgina 2025-yilning oktyabr oyida tender savdolari orqali 1,500 dan ortiq kompyuter va planshetlar taqdim etilgan, bu esa qishloq va shahar OTM laridagi raqamli bo'linishni 35% ga kamaytirgan². Bundan tashqari, loyiha UNICEFning Eduten platformasi ya'ni Finlyandiya raqamli matematika dasturi nomli pilot loyihasi orqali amalga oshirilgan, unda 1,046 talaba qatnashib, ularning matematika va IT fanlari bo'yicha ko'nikmalari 16,9% ga

¹ <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/gtmi-2025-update> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

² UNICEF, 2025

yaxshilanishi kuzatilgan. Shuningdek, 2025 yilda UNICEF Innovation Hub da tashkil etilgan Teacher Pro dasturi orqali professor-o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi 17% ga oshganligi qayd etilgan. Albatta ushbu loyiha va tajribalar OTM larda raqamlashtirish jarayonlarining jadal kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, chunki loyiha professor-o'qituvchilar va talabalar uchun raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlarini taklif qilgan, bu OTM larda blended learning modellarini kengaytirishga asos bo'lgan³.

Loyiha natijalari O'zbekistonning raqamli ta'lim strategiyasini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim bo'lib, 2025-yilga kelib umumiy natijalar shuni ko'rsatdiki raqamli OTM lar sonini 205 taga yetkazilgan va talabalar uchun raqamli resurslarga kirish darajasi 80% ga yetkazilgan⁴. Tahliliy jihatdan umumlashtiradigan bo'lsak, ushbu loyihalar OTM larda boshqaruv sifatini ham sezilari darajada optimallashtirishga o'z hissasini qo'shgan masalan, raqamli platformalar orqali administrativ jarayonlar 25% ga qisqargan va talabalar o'quv natijalari 12% ga yaxshilangan⁵. Ushbu loyihalar tahlili ta'limda raqamli inkluzivlikni ta'minlashning samaradorligini ko'rsatadi va boshqaruv sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qolaversa 2023-yilda chiqarilgan UNESCOning "Global Education Monitoring Report" hisobotida⁶ O'zbekistonning raqamli ta'limdagi yutuqlari, jumladan, pandemiya davridagi masofaviy o'qitish tajribasi ijobiy baholangan bo'lib, ushbu hisobot ta'lim sohasida texnologiyalarning ijobiy tomonlari masalan, pandemiya vaqtida millionlab talabalarga masofaviy ta'lim imkoniyatlari yaratilganligi qayd etilgan. O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak pandemiya davridagi masofaviy ta'lim yondashuvi televizion va raqamli platformalar orqali o'quv natijalarini saqlab qolganligi ijobiy ta'kidlangan, bu OTM larda 2020–2022 yillarda masofaviy o'qitishni joriy etish to'g'ri qaror ekanligini tasdiqlabgina qolmasdan yana qator tavsiyalar jumladan, texnologiyalarni ta'limda muvofiqlik, tenglik va masshtablilik asosida joriy etish hamda texnologiyalarning salbiy tomonlarini bo'lmish ma'lumotlar xavfsizligi va kibertahdidlar kabilarning mavjudligini inobatga olib, OTM larda ushbu masalalarga ISO 27001 standartlarini joriy etish orqali qarshi choralar ko'rish zarurligi bo'yicha alohida to'xtalib o'tilgan⁷. Ushbu dalillarni chuqurroq tahlil qilish orqali O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'zlashtirish va uyg'unlashtirish orqali 2030-yilgacha SDG ning to'rtinchi sifatli ta'lim maqsadlariga erishishida katta ahamiyat kasb etadi va OTM larda raqamli transformatsiyaning ta'lim hamda boshqaruv sifatini oshirishdagi strategik ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda raqamli ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi 2018-yildan boshlab sezilarli dinamikaga ega bo'ldi. Bu jarayon bir tomondan dunyo tendensiyalari, ikkinchi tomondan mamlakatning ichki ehtiyojlari tufayli shakllandi. COVID-19 pandemiyasi global ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, O'zbekiston uchun bu raqamli transformatsiyani jadallashtiruvchi muhim omil bo'ldi. Davlatning "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va Oliy ta'lim tizimini isloh qilish dasturlari ushbu sohada tizimli yondashuvni ta'minladi.


³ UNESCO, 2025

⁴ World Bank GTMI, 2025

⁵ UNICEF Global Report, 2025

⁶ <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385723>

⁷ https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386147_uzb




2-rasm. O'zbekistonda raqamli ta'lim texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari⁸ (2018-2024)

2024-yilga kelib O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga o'tdi, ya'ni texnologiyalarni oddiy qo'llash davridan innovatsion yechimlar va strategik rivojlanish modelini shakllantirish bosqichiga o'tildi, bu esa nafaqat mavjud vositalarni takomillashtirish, balki ta'lim paradigmasini o'zgartiruvchi keng qamrovli yondashuvlarni talab qildi. Asosiy e'tibor sun'iy intellekt asosida ishlaydigan adaptiv o'qitish tizimlariga qaratilib, ular har bir talabanning kognitiv qobiliyatlari, o'zlashtirish tezligi va individual o'rganish uslubini tahlil qilish orqali shaxsiylashtirilgan o'quv traektoriyalarini avtomatik ravishda ishlab chiqarish imkoniyatini berdi, bu esa an'anaviy "bir o'lchamli" ta'lim modelini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qildi.

Virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining joriy etilishi esa amaliy va eksperimental fanlarda keskin sifat o'zgarishini keltirib chiqardi, chunki tibbiyot talabalari virtual operatsiyalarni bajarish, muhandislik yo'nalishi talabalari esa murakkab mexanizm va konstruksiyalarni interaktiv modelini yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu esa nafaqat xavfsizlik jihatidan, balki resurslar tejash nuqtai nazaridan ham sezilarli afzalliklar berdi. Shu bilan birga, katta ma'lumotlar tahlili vositalari oliy ta'lim muassasalarining rahbariyatiga o'quv jarayonining samaradorligini real vaqt rejimida monitoring qilish, akademik yutuqlarning prognoz modelini yaratish va potensial muammoli sohalarni oldindan aniqlash imkoniyatini taqdim etdi, bu esa reaktiv boshqaruvdan proaktiv strategik boshqaruvga o'tishga yo'l ochdi.


⁸ Mavjud ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



3-rasm. 2025 – yilda O‘zbekistonda raqamli ta’lim innovatsiyalari holati⁹

Ushbu diagramma 2025-yilda O‘zbekiston oliy ta’limida shakllangan raqamli innovatsiyalar ekotizimining o‘zaro bog‘liqligi va integratsiya darajasini aniq ko‘rsatadi. Markazda joylashgan “Innovatsion Yadro” sun’iy intellekt tizimlari, katta ma’lumotlar platformasi va VR/AR texnologiyalarining o‘zaro ta’siridan iborat bo‘lib, ular doimiy ma’lumot almashinuvi orqali bir-birini boyitadi va takomillashtiradi. Talaba markazi va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimlari ushbu yadro bilan ikki tomonlama aloqada bo‘lib, bir tomondan talabalar va o‘qituvchilar faoliyati haqida ma’lumot taqdim etsa, ikkinchi tomondan yadrodan shaxsiylashtirilgan dasturlar va proaktiv tavsiyalar oladi. Diagrammaning eng muhim jihati – “Mahalliy Resurslar” blokining ajralmas qism sifatida ko‘rsatilishi bo‘lib, bu O‘zbekistonning raqamli ta’lim strategiyasining asosiy prinsipi – global texnologiyalarni milliy madaniy, lingvistik va ta’lim kontekstiga moslashtirish g‘oyasini aks ettiradi. Natijada, ushbu integratsiya nafaqat texnologik samaradorlikni oshirishga, balki ta’lim mazmuni va metodologiyasini tubdan transformatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

⁹ Muallif ishlanmasi



4-rasm. Oliy ta'limda raqamlashtirishning samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarish dinamikasi¹⁰

Ushbu grafikdagi ma'lumotlar O'zbekistondagi OTM larda oxirgi uch yilda raqamlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshib, elektron hujjat aylanishi va online hisobotlar qamrovi 90–100% ga yaqinlashganligi, hamda umumiy ta'limda masofaviy ta'lim ishtiroki yuqori ko'rsatkichlarga erishganligi natijasida administrativ va pedagogik jarayonlarda vaqt resurslari samarali tejalganligini ko'rsatmoqda. Bu raqamli transformatsiyaning oliy ta'limda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, o'quv jarayonini moslashtirish va resurslarni tejashdagi ijobiy ta'sirini yaqqol ko'rsatadi, shu bilan birga ta'lim sifati va inkluzivlikni oshirishga hissa qo'shmoqda. Ushbu dinamika mamlakatning raqamli hukumat va ta'lim strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

1-jadval.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari soni va talabalar dinamikasi¹¹
(2020-2025 yillar)

Yil	OTM soni	Talabalar soni (ming)	Raqamli platformalar qamrovi (%)
2020	120	600	70
2022	190	950	85
2023	205	1 000	92
2024	211	1 100	95
2025	226	1 200	98

Xulosa va takliflar

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiya kompleks, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u institutsional, texnologik, pedagogik va iqtisodiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. 2018-2025 yillar davomida erishilgan yutuqlar nafaqat kvantitativ ko'rsatkichlarning o'sishini (OTM soni 194.8%, foydalanuvchilar soni 193.6%), balki sifat jihatidan yangi ta'lim paradigmasining

¹⁰ Statistic ma'lumotlar tahlili asosida muallaif tomonidan tayyorlandi.

¹¹ Edu.uz web sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

shakllanishini ham ko'rsatadi. Kelgusida ushbu transformatsiyani chuqurlashtirish va kengaytirish yo'nalishlarida sun'iy intellektning chuqur integratsiyasi, katta ma'lumotlar tahlilining pedagogik jarayonlarda keng qo'llanilishi, raqamli kompetensiyalarning standartlashtirilishi va xalqaro hamkorlikning kengaytirilishi ustuvor yo'nalishlar sifatida ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020, 5-iyuldagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4881712>
3. Abdullaev, A. R., & Karimov, N. A. (2023). Digital transformation in higher education: The case of Uzbekistan's HEMIS system. *Journal of Educational Technology Development and Exchange*, 16(2), 45-62. <https://doi.org/10.18785/jetde.1602.03>
4. Ismailova, G. T. (2024). E-learning platforms adoption in Central Asian universities: Comparative analysis. *Central Asian Journal of Educational Research*, 8(1), 112-129.
5. Khalilov, M. M., & Sultanova, D. A. (2022). Impact of COVID-19 on digital education in Uzbekistan: Challenges and opportunities. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 17(5), 234-250. <https://doi.org/10.3991/ijet.v17i05.29876>
6. Rakhmonov, S. S. (2023). GovTech maturity and digital education: Correlation analysis for developing countries. *Journal of Digital Governance*, 4(3), 78-95.
7. UNESCO. (2023). *Global education monitoring report 2023: Technology in education – A tool on whose terms?* UNESCO Publishing. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385723>
8. World Bank. (2025). *GovTech Maturity Index 2025: Central Asia regional report*. World Bank Publications. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1995-6>
9. UNICEF Uzbekistan. (2024). *Empowering education in Uzbekistan: Leveraging ICT and digital learning for high-quality and inclusive education – Final evaluation report*. UNICEF Uzbekistan Country Office.
10. OECD. (2024). *Digital education outlook 2024: Innovative practices and policies in higher education*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/6e9d8a9c-eng>.

Gulirano Nosirova Abdulaziz kiziPhD., doc., of the “Finance” Department of
The Banking and Finance Academy of the
Republic of Uzbekistang.nosirova2020@gmail.com**THE ROLE OF EFFECTIVE DELEGATION IN PROJECT MANAGEMENT****Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи**Ўзбекистон Банк Молия Академиясининг
“Молия” кафедраси доценти., PhDg.nosirova2020@gmail.com**ЛОЙИХАЛАРНИ БОШҚАРИШДА САМАРАЛИ ВАЗИФАЛАРНИ
ТАҚСИМЛАШНИНГ ЎРНИ****Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи**доцент., PhD кафедрасы “Финансы” Банковской
Финансовой Академии Республики Узбекистанg.nosirova2020@gmail.com**РОЛЬ ЭФФЕКТИВНОГО ДЕЛЕГИРОВАНИЯ В УПРАВЛЕНИИ ПРОЕКТАМИ**

Abstract: This article examines the role of effective delegation in project management. In modern conditions, project management requires a comprehensive approach to organizing work, coordinating participants, and efficiently utilizing limited resources. Delegation is considered a key managerial tool that enables project managers to distribute tasks, authority, and responsibility among project team members. The study analyzes the impact of effective delegation on project performance indicators such as time, cost, quality, and risk reduction. Particular attention is paid to common delegation mistakes and practical approaches to improving delegation effectiveness in project management. The article concludes that effective delegation contributes to improving project sustainability, team motivation, and overall project success.

Keywords: project management, delegation, authority, responsibility, project team, efficiency, leadership, risk reduction, performance.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada loyihalarni boshqarishda samarali delegirovanie jarayonining ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy sharoitda loyihalarni boshqarish ishlarni tashkil etish, ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda cheklangan resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Delegirovanie rahbarlik faoliyatining muhim vositasi sifatida qaralib, u vazifalar, vakolatlar va javobgarlikni loyiha jamoasi a‘zolari o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi. Maqolada samarali delegirovaniening loyiha muddatlari, xarajatlari, sifati va risklarni kamaytirishga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, delegirovanie jarayonida yo‘l qo‘yiladigan asosiy xatolar va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan. Xulosa sifatida, samarali delegirovanie loyihaning barqarorligi, jamoa motivatsiyasi va umumiy muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Tayanch soʻzlar: loyihani boshqarish, delegirovanie, vakolat, javobgarlik, loyiha jamoasi, samaradorlik, rahbarlik, risklarni kamaytirish.

Аннотация: В статье рассматривается роль эффективного делегирования в управлении проектами. В современных условиях управление проектами требует комплексного подхода к организационным работам, координации участников и рациональному использованию ограниченных ресурсов. Делегирование рассматривается как ключевой управленческий инструмент, позволяющий распределять задачи, полномочия и ответственность между участниками проектной команды. Проанализировано влияние эффективного делегирования на показатели реализации проекта, включая сроки, стоимость, качество и уровень проектных рисков. Особое внимание уделено типичным ошибкам в процессе делегирования и практическим методам повышения его эффективности. Сделан вывод о том, что эффективное делегирование способствует повышению устойчивости проектов, мотивации команды и успешности проектной деятельности.

Ключевые слова: управление проектами, делегирование, полномочия, ответственность, проектная команда, эффективность, лидерство, снижение рисков.

INTRODUCTION

Modern project management is characterized by increasing complexity, strict deadlines, limited resources, and high uncertainty. Under such conditions, the role of the project manager extends beyond technical planning and control to include effective leadership and coordination of the project team. One of the most important managerial tools in this context is delegation.

Effective delegation allows project managers to distribute tasks and responsibilities among team members based on their competencies and experience. This not only reduces managerial overload but also enhances team involvement, accountability, and performance. Ineffective delegation, on the contrary, may lead to project delays, quality issues, and increased risks.

In Uzbekistan, project-based approaches are widely applied in public administration, investment, infrastructure, and development projects. Regulatory acts aimed at improving project management emphasize the importance of clear responsibility distribution, accountability, and performance monitoring, which directly relate to delegation practices. Therefore, studying the role of effective delegation in project management is highly relevant.

LITERATURE REVIEW

PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge) – Published by the Project Management Institute (PMI), this guide emphasizes leadership, responsibility assignment, and team management as essential components of successful project management. [1]

"Project Management: A Managerial Approach" (Meredith, J. R., & Mantel, S. J., 2020) – The authors highlight delegation as a critical managerial competence that influences project efficiency and decision-making speed. [2]

"Leadership in Project Management" (Turner, J. R., 2014) – This work explores leadership styles and the role of delegation in managing project teams. [3]

"Effective Project Management" (Wysocki, R. K., 2019) – The book discusses delegation as a mechanism for balancing control and empowerment in project environments. [4]

"Best Practices in Project Management" (Kerzner, H., 2018) – Kerzner identifies delegation as a key factor in improving project performance and reducing management-related risks. [5]

RESEARCH METHODOLOGY

The research methodology is based on a comprehensive approach that includes theoretical analysis of academic literature on project management and delegation, as well as analysis of practical project management cases. The study aims to assess how effective delegation influences project outcomes and identify key factors that enhance delegation effectiveness.

Methods used in the research include comparative analysis, logical analysis, and synthesis of theoretical concepts related to delegation and leadership in project management.

RESULTS AND DISCUSSION

Delegation in project management refers to the process of transferring tasks, authority, and responsibility from the project manager to team members while maintaining overall accountability for project results. Effective delegation enables better utilization of human resources and improves decision-making efficiency.

Impact of Delegation on Project Performance

Effective delegation positively affects:

- project timelines by accelerating task execution;
- project quality through specialization and expertise utilization;
- cost control by reducing rework and inefficiencies;
- risk management by distributing responsibility and enhancing control mechanisms.

Common Delegation Mistakes

Common mistakes in delegation include lack of trust in team members, unclear task definitions, insufficient authority transfer, and inadequate monitoring. These issues often lead to misunderstandings, reduced motivation, and project underperformance.

Ways to Improve Delegation Effectiveness

To enhance delegation effectiveness in project management, the following measures are recommended:

1. Clear definition of tasks, responsibilities, and expected results.
2. Alignment of delegated tasks with team members' competencies.
3. Establishment of performance indicators (KPI, OKR).
4. Regular feedback and monitoring mechanisms.
5. Development of leadership and communication skills of project managers.

Recommendations for Improving the Effectiveness of Delegation in Project Management in Uzbekistan

1. Development of clear delegation frameworks in project management.

It is recommended to develop standardized delegation frameworks that clearly define tasks, authority, and responsibility at each stage of the project lifecycle. Such frameworks will help project managers avoid role ambiguity and improve accountability among project team members;

2. Strengthening the regulatory and methodological base.

Methodological guidelines and internal regulations should be introduced within organizations to regulate delegation processes in project management. These documents should define delegation procedures, reporting requirements, and control mechanisms, ensuring transparency and consistency in decision-making;

3. Training and capacity building of project managers.

Special training programs should be implemented to develop delegation, leadership, and communication skills among project managers. Emphasis should be placed on practical delegation techniques, team motivation, and responsibility management within project environments;

4. Alignment of delegation with performance evaluation systems.

Delegated tasks should be linked to performance indicators such as KPI and OKR. This approach will allow organizations to objectively assess the results of delegated responsibilities and enhance motivation and accountability of project team members;

5. Enhancing trust and empowerment within project teams.

Creating a culture of trust is essential for effective delegation. Project managers should empower team members by granting them sufficient authority to make decisions within their areas of responsibility, while maintaining appropriate monitoring and feedback mechanisms;

6. Use of digital project management tools.

The introduction of digital project management platforms (e.g., task trackers, project dashboards, and collaboration tools) can significantly improve delegation effectiveness by ensuring task transparency, progress tracking, and timely communication among project participants;

7. Adoption of international best practices.

Studying and adapting international experience in delegation and project leadership can enhance project management practices in Uzbekistan. Cooperation with international organizations and participation in global project management initiatives can contribute to improving delegation standards.

CONCLUSION

Effective delegation plays a crucial role in modern project management. It enables project managers to focus on strategic issues while empowering team members to take responsibility for specific tasks. Proper delegation contributes to improved project performance, reduced risks, enhanced team motivation, and sustainable project outcomes. Therefore, developing delegation competencies should be considered a priority in professional project management training and practice.

REFERENCES

1. PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge). Project Management Institute (PMI);
2. Meredith, J. R., & Mantel, S. J. (2020). *Project Management: A Managerial Approach*. Wiley;
3. Turner, J. R. (2014). *The Handbook of Project-Based Management*. McGraw-Hill;
4. Weysocki, R. K. (2019). *Effective Project Management*. Wiley;
5. Kerzner, H. (2018). *Best Practices in Project Management*. Wiley.

Abdurasulov Jamshidbek Axmad o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
tayanch doktoranti
e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-8694

**AJRATIB CHIQRISH SHAKLIDAGI QAYTA TASHKIL ETISHDA AKTIVLAR VA
MAJBURIYATLARNI BAHOLASH HAMDA HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI**

Абдурасулов Джамшидбек Ахмад угли
базовый докторант Самаркандского
института экономики и сервиса
E-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-8694

**ВОПРОСЫ ОЦЕНКИ АКТИВОВ И ОБЯЗАТЕЛЬСТВ И ИХ ОТРАЖЕНИЯ В
БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ ПРИ РЕОРГАНИЗАЦИИ В ФОРМЕ ВЫДЕЛЕНИЯ**

Abdurasulov Jamshidbek Ahmad ugli
PhD student, Samarkand Institute of Economics
and Service
E-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-8694

**ISSUES OF VALUATION OF ASSETS AND LIABILITIES AND THEIR RECOGNITION
IN ACCOUNTING IN SPIN-OFF REORGANIZATION**

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalarni qayta tashkil etishning ajratib chiqarish shaklida aktivlar, huquq va majburiyatlarni taqsimlash hamda ularni mustaqil korxonalarning alohida moliyaviy hisobotlarida aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda xalqaro va milliy hisob standartlari talablari qiyosiy tahlil qilinib, adolatli qiymatda baholash, gudvillni tan olish va taqsimot balansini shakllantirishga oid ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar hisob amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qayta tashkil etish, ajratib chiqarish, aktivlar taqsimoti, adolatli qiymat, gudvill, moliyaviy hisobot.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы распределения активов, прав и обязательств при реорганизации предприятий в форме выделения и их отражения в отдельных финансовых отчетах. Проведен сравнительный анализ требований международных и национальных стандартов учета. Обоснованы подходы к оценке активов по справедливой стоимости, признанию гудвилла и формированию разделительного баланса. Результаты исследования направлены на совершенствование учетной практики.

Ключевые слова: реорганизация, выделение, распределение активов, справедливая стоимость, гудвилл, финансовая отчетность.

Abstract

This article examines the allocation of assets, rights, and liabilities in corporate reorganization through spin-offs and their presentation in separate financial statements. A comparative analysis of international and national accounting standards is conducted. The study substantiates approaches to fair value measurement, goodwill recognition, and preparation of separation balance sheets. The findings contribute to improving accounting practices.

Keywords: reorganization, spin-off, asset allocation, fair value, goodwill, financial reporting.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi tezkor o'zgarishlar, raqobat muhitining kuchayishi va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ko'p jihatdan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkil etilishi, qayta tashkil qilinishi va ularning moliyaviy hisobotlarining shaffofligiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, korxonalarni qayta tashkil etishning turli shakllari, jumladan, "ajratib chiqarish" shakli, milliy iqtisodiyotning zamonaviy talablariga javob beradigan muhim iqtisodiy va moliyaviy jarayon sifatida e'tiborga molikdir. Ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish mavjud korxonalar faoliyatini to'xtatmagan holda uning muayyan bo'limi yoki faoliyat sohasi bo'yicha tuzilmasini mustaqil yuridik shaxs sifatida ajratish jarayonidir. Bu shakldagi qayta tashkil etishning mohiyati shundaki, u korxonaning ichki tuzilmasini optimallashtirish, faoliyat sohasini ixtisoslashtirish va bozor talablariga tez moslashish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish orqali faoliyatning muayyan qismi alohida mustaqil sub'ekt sifatida tashkil etiladi va unga tegishli aktivlar, majburiyatlar hamda kapitalning bir qismi taqsimlanadi.

Qayta tashkil etishning ajratib chiqarish shakli iqtisodiy islohotlar jarayonida korxonalar faoliyatini optimallashtirish, faoliyat sohasini ixtisoslashtirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim vositasi sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish amaldagi korxonadan uning ma'lum bo'limi yoki faoliyat yo'nalishi bo'yicha xo'jalik tuzilmasini mustaqil yuridik shaxs sifatida ajratish jarayoni bo'lib, u faoliyat samaradorligini oshirish, bozor sharoitiga moslashish va hisobotlarda shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda mavjud korxonalar faoliyatini to'xtatmaydi, balki uning bir qismi mustaqil sub'ekt sifatida faoliyat boshlaydi, ya'ni qisman vorislik tamoyili amal qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bunday jarayon huquqiy jihatdan qisman vorislik tamoyiliga asoslanadi, iqtisodiy jihatdan esa korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish hamda yangi sub'ektning mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur resurs bazasini shakllantirish imkonini beradi. Moliyaviy hisobot nuqtai nazaridan esa ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish jarayoni xalqaro standartlar talablariga muvofiq ravishda aktivlar va majburiyatlarning adolatli qiymatda baholanishini, vorislik va shaffoflikni ta'minlashni taqozo etadi. Milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlar, davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish va xususiylashtirish jarayonlari doirasida "ajratib chiqarish" shaklidagi qayta tashkil etish amaliyoti keng qo'llaniladi. Bunday jarayonlar orqali yirik kompaniyalar tarkibidan alohida faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashgan mustaqil sub'ektlar tashkil etilib, ularning iqtisodiy faoliyati samaradorligi oshiriladi. Ayniqsa,

energetika, transport, kimyo va agrosanoat sohalarida bunday qayta tashkil etish holatlari faol amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish jarayonining xalqaro amaliyotdagi o'rnini ham katta ahamiyatga ega. Jahon tajribasida bu jarayon "spin off" yoki "demerger" shaklida yuritilib, MHXS 3 "Biznes birlashuvlari", MHXS 10 "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot" va MHXS 13 "Adolatli qiymatni aniqlash" standartlari talablari asosida hisob va hisobotda aks ettiriladi. Bu standartlar talabiga ko'ra, ajratilgan korxonalar mustaqil sub'ekt sifatida adolatli qiymatda baholanishi, aktiv va majburiyatlar bo'yicha gudvill yoki salbiy gudvill tan olinishi va har ikki sub'ekt mustaqil hisobot taqdim etishi lozim.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, milliy hisob tizimida xalqaro standartlar asosidagi baholash va hisob yuritish amaliyoti hali yetarlicha rivojlanmagan. Ayniqsa, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida baholash, gudvillni tan olish hamda taqsimot balansini standartlashtirish masalalari milliy amaliyotda dolzarb hisoblanadi. Shu bois, ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish jarayonlarini hisob va hisobotda to'g'ri va aniq aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish milliy buxgalteriya tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishning muhim yo'nalishidir. Fikrimizcha, hisob va hisobot tizimini modernizatsiya etish, vorislik asosidagi moliyaviy munosabatlarni aniqlash va hisobotlar shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu orqali iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy axborotlari ishonchligi oshadi, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay investitsion muhit yaratiladi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Qayta tashkil etishning ajratib chiqarish shakli zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatini samarali boshqarish, hisobot tizimini xalqaro mezonlarga moslashtirish va milliy iqtisodiyotni global moliyaviy tizimga integratsiya etishning muhim strategik vositasi sifatida ilmiy va amaliy jihatdan juda dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususiylashtirish va qayta tashkil etish jarayonlari natijasida qayta tashkil etishning ajratib chiqarish shakli amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2025 yillar davomida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar-soni 29,4 foizga oshgan bo'lib, 2025 yil boshiga kelib ularning umumiy-soni 623 mingdan ortiqni tashkil etgan¹. Ushbu o'sishning muayyan qismi qayta tashkil etish jarayonlari hisobiga amalga oshgan. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024 yillar davomida 200 dan ortiq davlat ishtirokidagi korxonalar qayta tashkil etilgan bo'lib, ularning 30–35 foizi aynan ajratib chiqarish shaklida amalga oshirilgan. Bu jarayonlar ayniqsa energetika, transport, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida faol kuzatilmoqda². Masalan, yirik davlat kompaniyalari tarkibidan alohida logistika, ta'mirlash, ta'minot yoki xizmat ko'rsatish bo'limlarining mustaqil sub'ekt sifatida ajratilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, hisobotlarning aniqligi va tadqiq imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish jarayonida asosiy korxonalar faoliyatini to'xtatmagan holda uning ma'lum bo'limi ajratilib, yangi mustaqil yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tadi. Bu jarayonda ikki asosiy balans shakllantiriladi: ajratishdan oldingi asosiy korxonalar balansi va ajratilgan yangi korxonalar balansi. Asosiy korxonalar balansidan yangi tashkil etilgan sub'ektga tegishli aktivlar, majburiyatlar va kapitalning bir qismi adolatli qiymat asosida taqsimlanadi. Bu jarayonda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, zahiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda taqsimlanmagan foyda aniq belgilangan ulushlar asosida ajratiladi. Agar taqsimlangan aktivlar va majburiyatlarning

¹ <https://stat.uz/uz/>

² <https://davaktiv.uz/oz/>

bozor qiymati bilan balans qiymati o'rtasida farq yuzaga kelsa, bu farq xalqaro standartlar talablariga muvofiq gudvill yoki salbiy gudvill sifatida tan olinadi(1-jadval).

1-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining buxgalteriya hisobi milliy standartlari bilan solishtirish jadvali³

№	Ko'rsatkich	MHXS	BHMS	Farqi
1	Aktivlarni baholash	adolatli qiymat	Qoldiq yoki tannarx qiymati	Haqiqiy qiymat aks etmaydi
2	Gudvillni tan olish	MHXS 3 talabiga ko'ra hisoblanadi	Aniq belgilanmagan	Gudvill hisobga olinmaydi
3	Balans shakli	Taqsimot balansi mavjud	Me'yoriy shakl yo'q	Yagona shakl ishlab chiqilmagan
4	Konsolidatsiya	MHXS 10 talablariga mos ravishda	Mahalliy amaliyotda cheklangan	Umumiy hisob yo'q
5	Nomoddiy aktivlar baholashi	BHXS 36 bo'yicha impeyrment test tekshiruvi	Amalda yo'q	Iqtisodiy foydalilik aniqlanmaydi

Xalqaro amaliyotda ajratib chiqarish jarayonlari MHXS 3 "Biznes birlashuvlari", MHXS 10 "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot" va MHXS 13 "Adolatli qiymatni aniqlash" standartlari asosida hisobga olinadi. Bu standartlar talabiga ko'ra, ajratilgan bo'lim mustaqil sub'ekt sifatida adolatli qiymatda baholanishi, vorislik tamoyili asosida aktiv va majburiyatlarining haqiqiy qiymati hisobotda aks ettirilishi lozim. Agar asosiy kompaniya yangi tashkil etilgan sub'ektda ma'lum ulushni saqlab qolsa, u holda konsolidatsiyalangan hisobot (MHXS 10) tuziladi. Ya'ni har ikki sub'ekt asosiy va ajratilgan korxonalar alohida hisobot yuritadi, biroq ular o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar guruh hisobotlarida aks ettiriladi.

Milliy amaliyotda esa bu jarayon asosan buxgalteriya hisobi milliy standarti 23-son "Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish" talablari asosida amalga oshiriladi. Biroq milliy standartlarda adolatli qiymat baholash usuli to'liq joriy etilmagan va gudvill tushunchasi amaliyotda cheklangan holda qo'llaniladi. Bu esa hisobotlarda aktivlarning haqiqiy qiymati aks etmasligiga va vorislik prinsipining to'liq ta'minlanmasligiga sabab bo'lmoqda. Ajratib chiqarish jarayonida hisob va hisobot yuritishning asosiy xususiyati shundaki, har ikki sub'ekt asosiy va ajratilgan mustaqil moliyaviy hisobot tayyorlaydi. Yangi tashkil etilgan sub'ektning boshlang'ich balansida barcha aktiv va majburiyatlar adolatli qiymatda tan olinishi lozim. Asosiy korxonalar esa o'z hisobotida ajratilgan bo'limning tegishli ulushini sarflangan aktivlar sifatida aks ettiradi yoki agar ulush saqlansa, u "tarmoq korxonalar" sifatida hisobga olinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davlat ishtirokidagi korxonalarni bozor mexanizmlariga moslashtirish, ularning samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayonda davlat korxonalarini qayta tashkil etish, ayniqsa, ajratib chiqarish usuli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat ishtirokidagi

³ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

korxonalarini boshqarish va isloh etish strategiyasi (2021–2025 yillar) hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan “yo‘l haritalari” ushbu jarayonni tizimli ravishda amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat korxonalarini isloh etish siyosati doirasida DK, DUK va AJlar tarkibidan alohida faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashgan yangi korxonalarini ajratib chiqarish amaliyoti keng qo‘llanilmoqda. Bu usul, bir tomondan, xo‘jalik hisobini kuchaytirish va har bir faoliyat segmenti bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniq baholash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ularni keyinchalik xususiylashtirish yoki strategik investorlarni jalb etish uchun mustaqil va shaffof biznes sub’ektlariga aylantiradi. Shu tariqa, ajratib chiqarish mexanizmi davlat ishtirokini qisqartirish strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq holda iqtisodiy faoliyatning institutsional tuzilmasini optimallashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qonunchilik nuqtai nazaridan, ajratib chiqarish yuridik shaxs tugatilmasdan, undan yangi yuridik shaxsning ajralib chiqishi va ularga huquq hamda majburiyatlarning muayyan qismi taqsimlash balansi asosida o‘tishi bilan tavsiflanadi. Bu holat bo‘lishdan farq qiladi, chunki bo‘lish jarayonida avvalgi yuridik shaxs tugatiladi, ajratib chiqarishda esa asosiy korxonalar faoliyatini davom ettiradi. Shu bois ajratish jarayonlarida huquqiy asos sifatida taqsimot balansi, vorislik tamoyili va ajratish to‘g‘risidagi qaror muhim rol o‘ynaydi. Buxgalteriya nuqtai nazaridan, ajratish jarayonida eng dolzarb masala aktiv va majburiyatlarning haqqoniy baholanishi hamda ularning moliyaviy hisobda to‘g‘ri aks ettirilishidir. Milliy amaliyotda bu jarayon BHMS 23 “Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish” standarti talablariga asoslanadi. Xalqaro amaliyotda esa MHXS 3 “Biznes birlashuvlari” va MHXS 13 “Adolatli qiymatni aniqlash” standartlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular adolatli qiymat usulida baholash va aktivlarning real bozor qiymatini inobatga olishni talab qiladi. Amaldagi tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ajratish natijasida tashkil etilgan yangi sub’ektlar mustaqil moliyaviy hisobot yuritish orqali banklar, investorlar va auditorlar uchun ishonchli axborot manbaiga aylanmoqda. Bu esa davlat ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyatida shaffoflikni ta‘minlash va ularning moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash amaliyoti ko‘p hollarda to‘liq qo‘llanilmayotgani, gudvill va salbiy gudvillni tan olish hamda BHXS 36 talablariga mos impeyrmnt testini o‘tkazish amaliyotining yo‘qligi, taqsimot balansi shakli va uning normativ asoslari BHMS darajasida to‘liq ishlab chiqilmagani qayd etiladi. Shuningdek, ajratish va qayta tashkil etish jarayonlari bo‘yicha davlat statistika organlarida yagona ma‘lumotlar bazasi mavjud emasligi ilmiy tadqiq va samaradorlikni baholashni cheklamoqda.

Umuman olganda, DK, DUK va AJlar tarkibidan ajratilib chiqqan yangi korxonalar O‘zbekiston iqtisodiyotidagi davlat aktivlarini samarali boshqarish, korporativ sektorni rivojlantirish va xususiylashtirishni chuqurlashtirishning asosiy institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday korxonalarining shakllanishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va barqaror o‘sishiga xizmat qilib, davlat ishtirokini qisqartirish strategiyasini amaliy jihatdan ta‘minlaydi(2-jadval).

Korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarining ajratib chiqarish shaklidagi muammolar va yechimlar tizimli tadqiqi⁴

№	Muammo mazmuni	Ilmiy yechim va amaliy taklif	Kutilayotgan natija
1	Aktivlar baholash usuli real qiymatda emas	MHXS 13 talablariga asoslangan adolatli qiymat baholashni joriy etish	Hisobotning ishonchliligi oshadi
2	Gudvill hisobga olinmaydi	MHXS 3 va BHXS 36 asosida gudvillni tan olish va impeyrment test joriy etish	Nomoddiy aktivlar iqtisodiy foydasini baholash imkoni
3	Taqsimot balansi shakli yo'q	Yagona taqsimot balansi namunasini ishlab chiqish va BHMSga kiritish	Hisoblarda birxillik ta'minlanadi
4	Avtomatlashtirilgan hisob tizimi zaif	Elektron hisobot platformasini yaratish	Vaqt va hisob aniqligi oshadi
5	Kadrlar malakasining yetishmasligi	MHXS bo'yicha malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish	Xalqaro darajada hisob yuritish imkoni yaratiladi

Xalqaro tajriba va milliy iqtisodiy tadqiqatlar shuni ko'rsatmoqdaki, ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etish jarayoni iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish, aktivlardan oqilona foydalanish hamda hisobotlardagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashning muhim institutsional vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu shakl iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning amaliy mexanizmi bo'lib, hisob va hisobot tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish orqali mamlakatda moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlaydi, natijada milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligi ortishiga zamin yaratadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ajratib chiqarish shaklidagi qayta tashkil etishning asosiy mohiyati shundaki, mavjud yuridik shaxs tugatilmagan holda uning ma'lum bo'limi yoki faoliyat yo'nalishi bo'yicha yangi mustaqil yuridik shaxs tashkil etiladi. Bu jarayonda huquq va majburiyatlar taqsimot balansi orqali yangi sub'ektga o'tkaziladi, asosiy korxonada esa o'z faoliyatini davom ettiradi. Bunda mulkchilik shakli davlat, aksiyadorlik yoki xususiy bo'lishidan qat'i nazar jarayonning huquqiy yoki iqtisodiy samaradorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Asosiy e'tibor aktiv va majburiyatlarning adolatli qiymatda baholanishi, vorislik tamoyiliga amal qilinishi hamda hisobotlarning xalqaro standartlar asosida shakllantirilishiga qaratilgan bo'lishi lozim.

